Shahrisabzdagi Dor us-Saodat va Dor ut-Tilovat me'moriy majmualari inshootlari, Toshkentdagi Zangi ota me'moriy majmuasidagi masjid, maqbara va xonaqoh, Termizdagi Sulton Saodat me'moriy majmuasidagi Temuriylar davrida bunyod etilgan maqbara va xonaqoh, Xivadagi Sa'id Alouddin maqbarasi, Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasidagi masjid va maqbaralar, Hirotidagi Gavharshodbegim me'moriy majmuasi, Hirot jome' masjidi va boshqalar.

**Minoralar** esa Sharq me'morchiligining o'ziga xos ko'rinish va qurilish uslubiga ega namunasi bo'lib, masjid, madrasa, maqbara kabi tarixiy inshootlar va yoki ularning barchasini o'zida jamlagan me'moriy majmualarning tarkibiy qismi sifatida bunyod etilgan. Minoralardan asosan musulmonlarni besh vaqt nomozga chorlovchi minbar, shuningdek, shahar xavfsizligini ta'minlashda nazorat punkti sifatida ham foydalanilgan<sup>1</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida ham keng qo'llanilgan minoralar o'ziga xos salobatga ega bo'lib, me'moriy majmualar mahobatini namoyon qilishda xizmat qilgan. Temuriylar davrida alohida me'moriy inshoot tarzida yakka holda qurilgan minoralar uchramaydi. Ammo masjid, maqbara, madrasa va xonaqohlarning ajralmas qismi sifatida qurilgan minoralar o'ziga xos qurilish uslubi va betakror me'moriy bezaklarga ega bo'lgan. Mazkur davrda minoralar sezilarli darajadagi hududiy farqlarga ega bo'lganligini kuzatish mumkin. Masalan, saltanatning Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Hirot va boshqa markaziy shaharlarida bunyod etilgan minoralar mahobatli ko'rinishi, balandligi, turli uslublar uyg'unligida ishlangan me'moriy bezaklaridagi ranglar jilosi va boshqalar bilan ajralib turgan. Kichik shaharlarda va shahar tashqarisida bunyod etilgan inshootlar majmuidagi minoralar nisbatan hajmi kichikligi, oddiy ko'rinishi va bezaklari soddaligi bilan o'ziga xosdir. Minoralar ichidagi zinalari ravoqli qafasagacha (fonar) yetib borgan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'morchilik namunalari Temuriylar davri me'morchiligida erishilgan yutuqlar, xususan, minoralarni qurish borasidagi an'analardan keyingi davrlarda ham unumli foydalanilganidan dalolat beradi (Sherdor va Tillakori madrasalari minoralari). XVIII–XX asr boshlarga kelib minoralar o'zining nisbatan soddaroq ko'rinishi, kichikroq hajmi va tomi qovurg'ali gumbaz bilan yopilgan ravoqli qafasasi bilan

<sup>1</sup> Ҳамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 308-309.

masjidlarda esa uzoq yaqindan kelgan darveshlar, kambag'al yo'lovchilar uchun vaqtinchalik yotoqxona vazifasini o'tagan<sup>1</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan shu turdagi inshootlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Samarqanddagi Saroymulkxonim madrasasi, Muhammad Sulton madrasasi, Mirzo Ulug'bek madrasasi, Buxoro shahridagi Mirzo Ulug'bek madrasasi, G'ijduvondagi Mirzo Ulug'bek madrasasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi. Amir Temur davri madrasalarining aksariyat qismi saqlanib qolmagan. Mazkur bobda Mirzo Ulug'bek madrasalaridan tashqari Saroymulkxonim va Muhammad Sulton madrasalari tarixiga oid tarixiy faktlar aniqlanib, tavsiflari keltirib o'tilgan. Ammo Mirzo Ulug'bek madrasalarini hozirgi kungacha o'z faoliyatini davom ettirayotgan ilm maskanlaridan hisoblanadi. Tadqiqotlar Samarqandda oliy ta'limning rivojlanishi, xususan, Samarqand Davlat universiteti tarixi aynan Mirzo Ulug'bek madrasasi faoliyati bilan bog'langanini ko'rsatmoqda<sup>2</sup>.

Diniy inshootlar sirasiga masjid, minora, maqbara, ziyoratgohlar kiritilgan bo'lib, Amir Temur va Temuriylar davrida bu turdagi inshootlar qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Aksariyat hollarda ularning barchasi bitta majmuada bunyod etilgan.

**Masjid** – musulmonlar namoz o'qiydigan joy, ibodatxona bo'lib, u mehrob, namozxona, xonaqoh, ayvon va hovlidan iborat bo'lgan. O'rta Osiyoda masjidlarning asosan ikki turi keng tarqalgan: jome' masjidlari va guzar (mahalla) masjidlari.

**Jome' (juma) masjidlari** – shahar markazida qurilgan katta hajmli, ya'ni yozgi va qishki namozxonalari, xonaqohi, ayvoni va hovlisi mavjud bo'lgan masjid. Unda ko'p sonli musulmon aholi juma namoylari, Ramazon va Qurbon hayiti namozlarini o'qishda, diniy-tarbiyaviy ma'ruzalarni o'qishda foydalanishgan.

**Maqbara** – qabr ustiga qurilgan me'morial bino. Ilmiy adabiyotlarda maqbara turbat va marqad deb ham keltirib o'tilgan. Temuriylar saltanati hududida bunyod etilgan diniy inshootlarga misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: Samarqanddagi Bibixonim jome' masjidi va maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ruhobod maqbarasi, Ishratxona maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Xoja Doniyor maqbarasi, Shohi Zinda me'moriy majmuasi inshootlari,

natijalari chop ettirilgan. 2016 yilda esa "Uzoq o'tmishdan maktublar: O'zbekiston obidalaridagi bitiklarda ta'lim, ma'rifat, tinchlik va bunyodkorlik" mavzusidagi davra suhbatida "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" loyihasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalarining taqdimoti bo'lib o'tgan<sup>1</sup>.

**Mavzuning xorijiy tarixshunosligi.** Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi xorijiy mualliflar tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilgan. Tadqiq etilayotgan davrda xorijlik olimlar-ning O'rta Osiyoga tashrifi va ular tomonidan tadqiqot ishlari uchun materiallar to'plashlariga turlicha imkoniyatlar mavjud bo'lgan. Xusu-san, XIX asr oxiri–XX asr boshlarida ushbu hududga maxsus topshiriq bilan kelgan chet ellik tadqiqotchilarning tashriflari natijasida yozib qoldirgan hisobot va esdaliklarda mavzuga oid qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Ularda mahalliy xalqlar hayoti, turmush tarzi, madaniy yodgorliklari, shu jumladan, Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xusu-san, G.Vamberi, F.Bernabi, Yu.Skayler, G.Landsel, G.Moser, J.Kurzon, E.Bloshet, V.Kurtis va boshqa mualliflarning asarlari fikrimizga dalil bo'ladi<sup>2</sup>.

O'rta Osiyo hududida sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin chet ellik mutaxassislar tomonidan o'lkaning tabiiy va madaniy boyliklarini tadqiq etish imkoni deyarli cheklab qo'yilgan bo'lsa ham, xorijliklar tomonidan O'zbekiston me'moriy merosini tadqiq etish ishlari to'xtab qolmadi. Xususan, ushbu davrda respublikaning Xiva, Samarqand,

<sup>1</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/ar/yangiliklar-2016/item/1691-obidalaridagi-bitiklar>

<sup>2</sup> Vambéry, Arminius. Travels in Central Asia. – New York: Harper and Brothers Publishers 1865 – 512 p.; Mac Gahan. Campaigning on the Oxus, and the Fall of Khiva. – London, 1874. – 252 p.; Frederick Bernaby. Colonel Venukoff's List of Routes in China and Central Asia. In Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. First published 1876. (Cambridge Library Collection – Travel, Middle East and Asia Minor). – (next Cambridge, 2011). – P. 448-488; Eugene Schuyler. Turkistan. Notes of a journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Vol. I. – New York: Scribner, Armstrong & Co., – 1876. – P. 225-240; Henry Lansdell. Russian Central Asia: including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv; V. 2. – London, 1885. – P. 85-99; Henri Moser. A travers l'Asie Centrale. Chapter V. De Tashkent a Boukhara. – Paris, 1886. – P. 108-141; George Kurson. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. Second edition. – London: Longmans, Green, and CO, 1889. – P. 106-204; Edgar Blochet. Les Inscriptions De Samarkand I. Le Gôûr-I-Mîr, گور امير Ou Tombeau De Tamerlan Épitaphes de Tîmoûr et de plusieurs princes tîmoûrides. (Suite) // Revue Archéologique, Presses Universitaires de France, V.I, – Leroux, 1897. – P. 67-109, 202-231; Curtis William Eleroy. Turkestan: "The Heart of Asia". – New York: George H. Doran Company, 1911. – P. 161-301.

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 312.

<sup>2</sup> O'sha asar. – Б. 202-210.

Buxoro, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlari va ularda joylashgan arxeologiya va arxitektura yodgorliklarini xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu davrda ham "ochiq osmon ostidagi muzeylar", deya e'tirof etilgan tarixiy shaharlarimiz va ularda joylashgan dunyoga mashhur tarixiy obidalar tarixiga oid materiallar M.Holdsvord, S.Bekker, K.Pander, Otto-Dorn va boshqa mualliflar tomonidan nashr ettirilgan<sup>1</sup>.

O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilgach (1991 yil 31 avgust) xalqimiz madaniy merosini keng miqyosda targ'ib etish ishlari yanada kuchaydi. Xususan, YUNESKO tomonidan madaniy merosga bo'lgan e'tibor natijasida "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati"dan joy olgan respublika moddiy va nomoddiy madaniy merosi namunalari sonining sezilarli darajada ortib borgani bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu davrda O'zbekiston me'moriy yodgorliklari tarixi va milliy me'morchilik maktablari an'analari, Amir Temur va Temuriylar tomonidan O'zbekistonning tarixiy shaharlarida bunyod etilgan obidalar F.Glazebruk, K.Henkel, Yu.Goldenshteyn, P.Stronskiy, F.Bressan, P.Judish, Ron Sela, J.Saxadeo, S.Gorshenina, Ye.Paskaleva va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Holdswort Mary. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. – 81 p.; Becker Seymour. Russia's protectorates in Central Asia: Bukhara und Khiva, 1865-1924. – Cambridge, 1968. – 416 p.; Ging K., Combus K. The pearls of Uzbekistan: Bukhara, Samarkand and Khiva. – Budapest, 1973. – 82 p.; Otto-Dorn. Kunst des Islam. Islamic art and architecture. Baden-Baden, Undena Publication, 1981, – 135 p.; Pander Klaus. Sowjetischer Orient, Kunst und Kultur, Geschichte und Gegenwart der Volker Mittelasiens. – Koln: Dumont, 1983. – 416 p.

<sup>2</sup> Kelliner Heinkle B. Glimpses at the cultural life of 19<sup>th</sup> century Khiva Roesnik Orientalistyezny. T. XLIX. Z.2 1994. – P. 119-128; Goldenstein Y. Samarkande, Bukhara, Shakhriabz, Khiva. – Paris, 1995; Notkin, I.I. Decoding Sixteenth-Century Muqarnas Drawings. In Muqarnas Volume XII: An Annual on Islamic Art and Architecture. Leiden: E.J. Brill. 1995. – P. 123-153; History of civilizations of Central Asia. Vol. VI. – Paris: UNESCO Publishing, 1998. – P. 323-364; Pander Klaus. Zentralasien-Uzbekistan, Kirgisstan, Tadschikistan, Turkmenistan, Kasachstan, Köln 2002 – 384 p.; Peitz Judith. Uzbekistan entdecken Seidenstrabe nach Samarkand, Bukhara und Chiwa. – Berlin, 2003. – 282 p.; Ron Sela. The "Heavenly Stone" (Kök Tash) of Samarqand: A Rebels' Narrative Transformed // Journal of the Royal Asiatic Society, Third series, Vol.17, Part 1, 2007. – P. 21-33; Jeff Sahadeo. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865 – 1923. – Bloomington, IN, Indiana University Press, 2007. – 336 p.; Stronski Paul. Tashkent: Forging a Soviet City, 1930 – 1966. – Pittsburgh, University of Pittsburgh Press, 2010. – 350 p.; Gorshenina S. Samarkand and its cultural heritage: perceptions and persistence of the Russian colonial construction of monuments // Central Asian Survey, Vol. 33. 2014. №2. – P. 246-269; Paskaleva Elena. Notes on the epigraphic panel the main entrance to the Ulugh Beg gallery

binolar majmuidan iborat bo'lib, unga baland peshtoqli darvozadan kirilgan. Yirik madrasalar asosan ikki qavatli qilib qurilgan. Madrasaning old tomonida gumbazli peshtoq, uning burchaklarida guldasta (kichik minoralar), yirik madrasalarda esa ikki-uch bo'g'inli baland minoralar qad ko'targan. Hovlisining gir aylanasi talabalar istiqomat qiluvchi hujralar joylashgan. Darsxonalar madrasaning ikki burchagida bo'lgan. Madrasalarning hovliga qaragan tomonida esa ravoqli ayvonlari bo'lgan. Yozda darslar ochiq havoda, ya'ni ushbu ayvonlarda o'tkazilgan. Odatda, o'rta asr madrasalarining aksariyat qismida masjidlar ham mavjud bo'lib, ular talabalarning kundalik namozlarini o'qishlari uchun qulayliklar yaratilgan. Alohida masjidi bo'lmagan madrasalarda namoz xonaqohlarda o'qilgan. O'rganilgan madrasalar xonaqohlarida mavjud bo'lgan mehrob fikrimizni isbotlaydi. Temuriylar davri madrasalarining barchasi ichki va tashqi tarafdin serhasham me'moriy bezaklar bilan bezatilgan. Devorlar bezagi va gumbazlarda moviy koshin, peshtoq va guldastalarda esa islmiy hamda epigrafik naqshlar ustunlik qiladi. XV asrda madrasalar qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilgan bo'lsa-da, ular hajmi va bezaklariga ko'ra bir-biridan faqr qilgan<sup>1</sup>.

**Rasadxona** – observatoriya, astronomik, geofizik, meteorologik va boshqa tadqiqotlar uchun maxsus jihozlangan inshoot bo'lib, dastlab, osmon jismlarini ob'ektlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan joy sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik ilmiy muassasaga aylangan. O'rta asrlarda Sharqda ko'plab rasadxonalarning eng mashhuri Mirzo Ulug'bek rasadxonasi bo'lgan. Movarounnahrda aniq fanlar doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, bu borada erishilgan yutuqlar va yaratilgan betakror ilmiy asarlar aynan shu rasadxona faoliyati bilan bog'liq<sup>2</sup>.

**Xonaqoh** – O'rta Osiyo me'morchiligida madrasalari, masjidlari va yoki ushbu turdagi barcha inshootlarni o'z ichiga olgan me'moriy majmualarning tarkibiy qismi (ba'zida mehrobli xonasi) sifatida bunyod etilgan. Madarsalarda darsxona yoki ilm toliblar uchun yotoqxona,

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 110-115.

<sup>2</sup> О'sha muallif. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 202-205.

ahli hordiq chiqaradigan hamda turli xil muhim uchrashuvlarga mo'ljallangan saroylar: Samarqanddagi Bo'stonsaroy hamda Amir Temur va temuriy hukmdorlar tomonidan boshqa markaziy shaharlarda bunyod etilgan so'lim bog'larni keltirib o'tish mumkin. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ularning barchasi tarkibida yengil qurilmali saroylar bo'lgan. Shuningdek, tarixiy manbalarda shahar qal'alari va mudofa devorlarining turli burchaklarida burj va chortoqlar bunyod etilgani haqida ma'lumotlar mavjud. **Chortoq** – to'rt go'shalik imorat bo'lib, ko'pincha shahar darvozalari yonida, **burj** esa shahar devorlarining turli qismlarida bunyod etiladigan maxsus kuzatuv qurilmalaridir. Ular shahar atrofini kuzatib turish uchun harbiy maqsadda qurilgan<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo miniatyura maktabining yirik namoyandasi, buyuk musavvir Kamoliddin Behzod tomonidan Firdavsiyning "Shohnoma" va Nizomiyning "Xamsa"siga chizilgan miniatyuralarda hukmdorlar saroyi, bog'-rog'lar, mahalliy aholi turar joylari bilan birgalikda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan boshqa inshootlar ham tasvirlangan. Jumladan, ularda o'rta asr maktablari (madrasalar), diniy inshootlar (masjidlar), saroylar, shifo maskanlari (kasalxona va hammomlar) to'g'risida ham ko'pgina ma'lumotlar mavjud.

Ma'rifiy muassasalar sirasiga kiritilgan madrasalar – o'rta asr mamlakatlarida faoliyat yuritgan ta'lim maskanlari hisoblangan. Madrasalar o'z mavqeiga ko'ra, o'rta va oliy o'quv muassasalariga bo'lingan. Amir Temur va Temuriylar davri madrasalarida diniy ta'lim bilan birgalikda musulmon olamida mashhur bo'lgan olimlar tomonidan dunyoviy bilimlar ham chuqur o'qitilgan. Amir Temur davrida Samarqandda ikkita madrasa bunyod etilgan bo'lib, ularning ikkalasi ham sulolaviy dahmalar bilan bog'liq. Bular: Amir Temur (Go'ri Amir) majmuasida joylashgan Muhammad Sulton madrasasi va Bibixonim jome' masjidi muqobilidagi Saroymulkxonim madrasalaridir. Manbalarda keltirilishicha, ularning har ikkalasi ham XV asr boshlarida bunyod etilgan<sup>2</sup>.

XV asrda madrasa me'morchiligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'lgan: madrasalar asosan to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan

E'tiborli tomoni shundaki, tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo xalqlari me'moriy merosi, xususan, Amir Temur va Temuriylar davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, barpo etilgan mahobatli inshootlarning o'ziga xosligi, me'morchilikda ushbu davrda erishilgan yutuqlar, mamlakatning turli hududlarida rivoj topgan me'morchilik ilmiy maktablarining betakror an'analari katta qiziqish bilan o'rgani-  
lgan. Yuqorida sanab o'tilgan ilmiy ishlarning barchasida Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalari va ularning buyurtmachilari bo'lgan hukmdorlar tomonidan bunyodkorlik ishlariga bo'lgan e'tibor hamda usta-me'morlar mahoratiga yuqori baho berilgan. Shuningdek, Temuriylar davrida me'morchiligida erishilgan yutuqlarning O'rta Osiyo xalqlari me'morchiligi taraqqiyotida tutgan o'rni va keyingi davrlar me'morchiligiga o'tkazgan ta'siri masalasi xolis yoritib berilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi va tarixshunosligi masalasi alohida ilmiy muammo sifatida tarixchi olim M.S.Xamidova tomonidan tadqiq etilgan. Muallif tomonidan mazkur mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari batafsil yoritib berilgan. Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari tarixi va tarixshunosligi masalasi alohida ilmiy muammo sifatida tarixchi olim M.S.Xamidova tomonidan tadqiq etilgan. Muallif tomonidan chop ettirilgan ilmiy ishlarda mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari batafsil yoritib berilgan<sup>1</sup>.

---

at Gur-I Amir in Samarqand // Science and culture in the Temurid era. – Tashkent, 2017. – P. 19-20; Frederique Beauptuis-Bressand. The originality uniqueness of the ceramic decoration in the mausoleums of the Chakh-i Zinden necropolis // Science and culture in the Temurid era. – Tashkent, 2017. – P. 26-27.

<sup>1</sup> Batafsil qarang: Хамидова М.С. Совет даври тадқиқотларида Самарқанд меъморий ёдгорликлари тарихшунослиги // ЎзМУ хабарлари. Махсус сон. – Тошкент, 2014. – №1. – Б. 50-54; О'ша муаллиф. Шарқ миниатюралари – Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи бўйича муҳим манба // Имом Бухорий сабоклари. – Самарқанд, 2016. – №3. – Б. 69-70; О'ша муаллиф. XIX аср охири–XX аср бошларида Туркистон меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши (архив ҳужжатлари асосида) // Мерос. – Тошкент, 2018. – №1. – Б. 56-61; О'ша муаллиф. Study of Architectural Monuments of Uzbekistan (The Second Half of XIX–XX Centuries) // International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 8, Issue 11, November 2019. – Pp. 1353-1358; О'ша муаллиф. Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy ёдгорликларининг ўрганилиши. – Тошкент, 2021. – 320 б.; О'ша муаллиф. Архив ҳужжатларида Ўзбекистон меъморий ёдгорликларининг ўрганилиш тарихи. – Тошкент, 2021. – 48 б.; О'ша муаллиф. Temuriylar davri me'moriy ёдгорликларининг хорижий тарихшунослиги хусусида (XIX аср охири) // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – №1/5. – Б. 30-33; О'ша муаллиф. XIX аср охири–XXI аср бошларида Ўзбекистон меъморий ёдгорликлари

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy ёдгорликлари тарихи... – Б. 87-88.

<sup>2</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

### 1.3. Tarixiy yodgorliklarni o'rganish usullari

Dunyo xalqlari madaniy me'rosining e'tiborga molik qismi hisoblangan me'moriy obidalar asrlar davomida sohaga oid nazariy bilimlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning mohir me'morlar tajribasida sinalishi natijasida, mukammal qurilish usullari asosida bunyod etilgan. Ushbu me'moriy merosni o'rganish masalasini yoritishda tadqiqot usullari va nazariy-metodologik asoslarini aniqlash-tirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, eng qadimgi davrlardan hozirgacha me'morchilik namunalari barcha turlariga (oddiy uslubda qurilgan turar joylardan tortib, murakkab me'moriy loyihalash asosida qurilgan jamoatchilik binolarigacha) jamiyat a'zolarining doimiy ehtiyoji mavjud bo'lib, ular insoniyat hayotini qulaylashtiruvchi vositalardan biri hisobalandi. Shuningdek, tarixiy-me'moriy yodgorliklar dunyo xalqlari tarixiga oid bebaho moddiy manba sifatida ham qadrlanadi. Jumladan, Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan tarixiy inshootlar O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati tarixini yorituvchi moddiy-ma'naviy manba sifatida muhim o'rin tutadi. Ular mazkur mintaqada asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan mahalliy xalqlar madaniy merosining o'xshash hamda farqli tomonlarini ko'rgazmali tarzda yaqqol namoyish etuvchi betakror tarixiy asar sifatida ham e'tirof etiladi. Amir Temur bunyod etgan ulkan saltanat hududlarida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar sharqona me'morchilikning ajoyib namunalari hisoblanadi. Ular umumiy o'xshashliklar bilan birga bir-biridan o'ziga xos me'morchilik an'analari va qurilish uslublari bilan ajralib turadi.

Mutaxassis olimlarning fikriga ko'ra, "Tarixiy me'moriy yodgorliklar misolida ajoyibotlarga boy dunyoning inson qo'li bilan yaratilgan jarangdor tosh kitobini ko'rish mumkin. Me'morchilik ham dunyo solnomasi hisoblanadi. Tarixni so'zlovchi hikoya va qo'shiqlar tinganda, u tilga kiradi. Me'moriy obidalar ham gapiradi, ammo uni har kim va doim ham tushunolmaydi, ba'zan u rad etiladi<sup>1</sup>". Darha-

- ma'rifiy muassasalar (madarasa, rasadxona va xonaqohlar);
- diniy inshootlar (masjid, minora, maqbara, ziyoratgohlar);
- ijtimoiy sohaga oid inshootlar (markaziy va mahalliy bozorlar, savdo rastalari, dam olish (bog'lar, parklar, qo'riqxonalar, hovuzlar) hamda davo maskanlari (shifoxona va hammomlar);
- yo'l bo'yi inshootlari (karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, garmobalar, quduqlar va hk.);
- dam olish maskanlari (bog'-rog'lar va ularda bunyod etilgan ko'shklar, xiyobonlar, parklar va qo'riqxonalar).

Quyida ushbu tasnif bo'yicha Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrda bunyod etilgan tarixiy inshootlarga ta'rif berib o'tamiz<sup>1</sup>.

Mazkur davrda bunyod etilgan **ma'muriy boshqaruv** va **mudofaa inshootlari** sirasiga Samarqanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroyni kiritish mumkin. Amir Temur hukmronligi davrida saroylar siyosiy muzokaralar o'tkaziladigan, elchilar qabul qilinadigan asosiy maskan hisoblangan. Shu bois, hukmdor siyosiy mahorati va mamlakat kuch-qudratini ko'rsatib turgan ma'muriy boshqaruv inshootlari ko'rinishi mahobatli va bezaklari hashamatli bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Saroylarning me'moriy bezak-larida adolat va kuch-qudrat timsoli aks etgan Qur'on suralari va hadislarini aks ettirishga alohida e'tibor qaratilgan. Saroylar mudofaa devorlari bilan himoyalangan hisor (qal'a)larda qurilgan bo'lib, Amir Temur davri shaharlari hisori ichki (hisori darun) va tashqi qal'a (hisori birun) bo'lingan edi<sup>2</sup>.

Ma'lumki, ma'muriy boshqaruv inshootlari guruhiga kiritilgan saroylar jahon xalqlari hayotida nafaqat oliynasab zotlar yashaydigan joy, balki saltanatning harbiy-siyosiy mavqeini ko'rsatib turuvchi hashamatli qarorgoh ham hisoblangan. Sharq me'morchiligida saroylarning ikki ko'rinishi keng tarqalgan. Birinchisi – ma'muriy-siyosiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan saroylar. Ular, odatda, qal'a ichida qurilgan. Bunga misol tariqasida Temuriylarning rasmiy qarorgohi hisoblangan Samarqanddagi Ko'ksaroy va Shahrisabzdagi Oqsaroyni ko'rsatib o'tish mumkin. Ikkinchisi – shahar tashqarisidagi bog'-rog'lar bag'ri-da qurilgan qarorgohlar. Ularga hukmdor va saroy

ўрганishga бўлган муносабат тарихидан // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2021. – 4-жилд, №4. – Б. 81-92; О'sha muallif. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи. Тарих фанлари доктори (DSc) ил. дар. дисс. – Тошкент, 2022. – 320 б. ва boshqalar.

<sup>1</sup> Захидов П.Ш. Великий кёшк Дилкушо. – Ташкент: ТАСИ, 2007. – С. 4.

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 20-22.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 87-88.

- Kushonlar davri yodgorliklari;
- Eftalitlar davri yodgorliklari;
- Turk hokonligi davri yodgorliklari;
- Arab halifaligi davri yodgorliklari;
- Somoniylar davri yodgorliklari;
- Qoraxoniylar davri yodgorliklari;
- G'aznaviylar davri yodgorliklari;
- Xorazmshohlar davri yodgorliklari;
- Chig'atoy ulusi yodgorliklari;
- Amir Temur va Temuriylar davri yodgorliklari;
- Shayboniyxonlar davri yodgorliklari;
- Ashtarxoniylar davri yodgorliklari;
- Qo'qon xonligi yodgorliklari;
- Xiva xonligi yodgorliklari;
- Buxoro amirligi yodgorliklari;
- O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri arxitekturasi;

- Sovet davri arxitekturasi;
- Mustaqillik davri me'moriy inshootlari<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo xalqlari me'moriy yodgorliklarini joylashgan o'rniga qarab hududiy-geografik jihatdan quyidagicha tasniflangan:

- O'zbekiston Respublikasi me'moriy yodgorliklari;
- Qozog'iston Respublikasi me'moriy yodgorliklari;
- Qirg'iziston Respublikasi me'moriy yodgorliklari;
- Tojikiston Respublikasi me'moriy yodgorliklari;
- Turkmaniston Respublikasi me'moriy yodgorliklari;
- Afg'oniston Islom Respublikasi me'moriy yodgorliklari va boshqalar.

Shuningdek, ular yuqorida nomlari sanab o'tilgan respublikalarning ichki hududiy bo'linishlari bo'yicha alohida klassifikatsiya qilinishi mumkin.

O'rta Osiyo xalqlari me'morchiligi tarixini o'rganishda arxitektura tarixi va nazariyasiga oid tadqiqotlarda ularning turlariga qarab quyidagicha klassifikatsiya qilingan:

- ma'muriy boshqaruv va mudofaa inshootlari (saroy, qo'rg'on, ark, mudofaa devorlari va boshqalar);

qiqat, insoniyat tomonidan turli davrlarda bunyod etilgan me'morchilik namunalari yaratuvchilarining dunyoqarashi va milliy tafakkuri nechog'li teran ekanligini o'zida namoyon etadi. Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari ham xuddi shunday o'ziga xosliklarga ega bo'lib, mutaxassis olimlar tomonidan ularni o'rganish va baholashda bir qator tamoyillarga e'tibor qaratilgan.

O'rta Osiyo xalqlari me'moriy yodgorliklarini o'rganishga oid dastlabki uslubiy ko'rsatmalar XIX asr oxiri–XX asr boshlaridayoq ishlab chiqila boshlangan va hozirgi kungacha takomillashtirilib kelinmoqda. Keyinchalik sovet davri olimlari tomonidan ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Buning natijasida O'rta Osiyo xalqlari milliy me'morchilik maktablari namunalari o'rganishga oid uslubiy ko'rsatmalar majmui ishlab chiqilgan va mavzuga oid tadqiqotlarda mazkur ko'rsatmalarga amal qilingan. Bular: me'moriy yodgorliklarni ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, ularni qiyosiy o'rganish, mavzuga oid yozma va moddiy manbalarni qiyosiy tahlil etish, turli ilmiy soha tadqiqotlari natijalarini umumlashtirish va boshqalar. O'rta Osiyo xalqlari me'moriy merosi, shu jumladan, Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur masalaga oid nazariy-metodologik ko'rsatmalar bir-biridan keskin farq qiluvchi siyosiy tuzumlar hukmronligi davrida ishlab chiqilgan bo'lib, davriy farqlarga ega. Xususan, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi, sovet davri va O'rta Osiyo mintaqasi mamlakatlarining mustaqillik yillarida milliy me'moriy merosni o'rganishga bo'lgan munosatda sezilarli farqlarni kuzatish mumkin<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo xalqlari me'morchiligi tarixini chuqur tadqiq etgan mutaxassis olimlarning ilmiy ishlarida mazkur ko'rsatmalarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, V.L.Vyatkin, M.E.Masson, Ya.G.G'ulomov va boshqa mualliflar tomonidan nashr ettirilgan ilmiy ishlarda me'moriy yodgorliklarni arxeologik nuqtai-nazardan o'rganishga oid ko'rsatmalarni takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Bunda tarixiy inshootlarni o'rganishda ularning joylashgan o'rni, bunyod etilgan davri, qurilish usullari, tarhi, o'lchamlari,

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 68.

<sup>1</sup> Хамидова М. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 62-70.

xomashyosi, tabiiy ofatlar hamda tashqi ta'sirlarga chidamlilik darajasi va boshqalarga e'tibor qaratish zarurligi belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

B.N.Zasipkin, V.A.Nilsen, I.I.Notkin, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, K.S.Kryukov, M.S.Bulatov, P.Sh.Zohidov, L.Yu.Mankovskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida esa milliy me'moriy yodgorliklarni san'atshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, O'zbekiston me'morchiligida ilmiy maktablar, ularning o'ziga xos hududiy an'analari, yodgorliklarning ichki va tashqi me'moriy bezaklaridagi o'xshashlik hamda farqlar, me'morchilikda qo'llanilgan bezak turlari kompozitsiyasi masalalarini chuqur tadqiq etishda muhim metodik ko'rsatmalar sifatida e'tibor qaratilgan<sup>2</sup>.

Yuqorida keltirib o'tilgan mualliflar sharqona me'morchilik namunalari hisoblangan mahalliy xalqlar me'moriy yodgorliklari, xususan, amir Temur va Temuriylar davri inshootlari tarixini yoritishda to'plangan ma'lumotlarni tarixiy-genetik, tarixiy-tipologik, tarixiy-tizimlash, tarixiy-dinamika, yodgorliklarni tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil, yozma hamda moddiy manbalar qiyosiy tahlili kabi tadqiqot usullaridan unumli foydalanilgan. Buning natijasida ular o'rta asrlarga oid milliy me'moriy yodgorliklarni chuqur tadqiq etish, ta'mirlash hamda tiklash borasida ko'plab yangi ilmiy-metodologik asoslarni muomalaga kiritishga muvaffaq bo'lishgan.

I.I.Umnyakov, M.Saidjonov, A.Yu.Yakubovskiy, T.Qori-Niyoziy va boshqa mualliflarning asarlarida O'rta Osiyo xalqlari me'moriy

<sup>1</sup> Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета // Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1902. Вып. 7. – С. 1-63; O'sha muallif. Мирза Улугбек и его обсерватория в Самарканде / Мирза Улугбек. – Ташкент, 1925. – С. 6-8; O'sha muallif. Афрасиаб-городище бывшего Самарканда. – Самарканд, 1927. – 62 с.; O'sha muallif. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215–1217 (1800–1803) годов // ИСАОГРГО. Т. XVIII. – Москва, 1928. – 26 с.; O'sha muallif. Памятники древностей Самарканда. Изд. 3. – Самарканд, 1933. – 32 с.; Массон М.Е. Соборная мечеть Темура, известная под именем мечети Биби-ханум. 2-е изд. – Самарканд, 1929. – 16 с.; O'sha muallif. Регистан и его медресе. 2-е изд. – Самарканд, 1930. – 30 с.; O'sha muallif. Краткая историческая справка о Среднеазиатских минаретах. – Ташкент: СНК УзССР, 1933. – 20 с.; O'sha muallif. Проблема изучения цистерн-сардоба. Публикации Узкостариса – Ташкент: Изд-во Комитета наук при СНК УзССР, 1935. – 44 с.; O'sha muallif. Обсерватория Улугбека. – Ташкент, 1941. – 48 с.; O'sha muallif. Падающий минарет (северо-восточный минарет Самаркандского медресе Улугбека). – Ташкент: Узбекистан, 1968. – 44 с.; O'sha muallif. Из воспоминаний среднеазиатского археолога. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1976. – 176 с.

<sup>2</sup> Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии... – 368 с.

merosini tarixiy nuqtai-nazardan tadqiq etish usullarini takomillash-tirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu guruhga kiritilgan mualliflarning ilmiy ishlarida muhim metodologik asos sifatida ularni turkumlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan<sup>1</sup>. O'rta Osiyo xalqlari miiliy me'moriy merosini tasniflashda asosan bunyod etilgan davri, joylashgan o'rni, inshootlarning turlari, vazifalari, qurilish uslubi, xom ashyosi, buyurtmachilari, bunyodkorlari, usta-me'morlari hamda va ularning mudofaa ob'ekti sifatidagi ahamiyati hisobga olingan.

O'rta Osiyo me'moriy obidalari yaratilgan davriga qarab quyidagicha tasniflanadi:

– eng qadimgi davr yodgorliklari (eramizdan avvalgi I-ming yillik boshlarigacha);

– qadimgi davr yodgorliklari (eramizdan avvalgi I-ming yillikdan eramizning V asrigacha bo'lgan davr);

– ilk o'rta asrlar yodgorliklari (VI–VIII asrlar), yuqorida keltirib o'tilgan davr yodgorliklari asosan arxeologik yodgorliklardan iborat;

– rivojlangan o'rta asrlar yodgorliklari (IX–XV asrlar);

– so'nggi o'rta asrlar yodgorliklari (XVI–XIX asrlar);

– yangi davr yodgorliklari (XX asr oxirigacha bo'lgan davr);

– eng yangi davr me'morchiligi (XX asr oxiri–XXI asr boshlari) <sup>2</sup>.

Shuningdek, me'moriy yodgorliklar turli davrlarda hukmronlik qilgan sulola vakillari yoki siyosiy tuzum nomi bilan bog'langan holda ham tasniflanadi. Xususan,

– Qadimgi Xorazm yodgorliklari;

– Qadimgi Baqtriya yodgorliklari;

– Qadimgi Sug'd yodgorliklari;

– Parfiya davlati tarixiy yodgorliklari;

– Qang' davlati yodgorliklari;

<sup>1</sup> Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары // Сборник Туркестанского восточного института в честь А.А.Шмидта. – Ташкент, 1923. – С. 148-157; O'sha muallif. Охрана памятников старины и искусства в советском законодательстве Средней Азии // Известия Среднеазиатского музея. Вып. I. – Ташкент, 1926. – С. 48-50; O'sha muallif. Архитектурные памятники Средней Азии. Исследование, ремонт, реставрация 1920–1928 гг. – Ташкент: Правда Востока, 1929. – 40 с.; Саиджон М. Бухоро шахи ва эски бинолари. 1-кисм // Маориф ва ўқитғувчи. 1927. – №3-4. – Б. 30-35. ва 9-10-сон. – Б. 52-54; Якубовский А.Ю. Самарканд при Темуре и Темуридах. – Л., 1933. – 84 с.; Кары Ниязов Т.Н. Охрана и изучение памятников культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1971. – 39 с.

<sup>2</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 67.

vachchasi Qusam ibn Abbos dafn etilgan tabarruk qadamjo sifatida Amir Temur davrida qayta qurilgan. XIV asrning 80-yillarida qurilgan maqbaraning yog'och panjaralari ortida joylashgan Qusam ibn Abbos qabri ustidagi sopol qabrtosh uning asosiy bezagidir. Ushbu ustma-ust qo'yilgan uchta toshdan iborat qabrtosh Markaziy Osiyo kulollarining noyob durdonalaridan biri hisoblanadi. Sag'ananing uchinchi pog'onasida sirkor sopol bo'laklariga Qur'oni Karimning "Alloh yo'lida o'ldirilganlarni o'lik deb hisoblamang! Yo'q, ular tirikdirlar" ma'nosidagi oyatlari bitilgan. Bu oyat xalq orasida qabristonga berilgan "Tirik shoh, ya'ni Shohi Zinda" nomiga asos bo'ladi. Shohi Zinda majmuasining uchinchi gumbazi kunchiqarida joylashgan o'ymakor eshikda "Ustod Yusuf Sheroziy amali. Sakkiz yuz yettinchi yilda" deb yozilgan epigrafik bezaklar mavjud. Eshikdan koshinkor bezakli masjidga o'tiladi. Masjidning oltiqirrali naqshinkor toshxatli va koshinkor izorasi binoga o'ziga xos ko'rk berib turadi. Uning kunbotar tarafida qadama koshinkor bezakli mehrob joylashgan. Masjid eshigidan murabba' shaklida qurilgan gumbazli xonaqohga o'tiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ziyoratxona devorlarida turli davrlarga xos me'moriy bezaklar mavjud<sup>1</sup>. Maqbara ichki zarhal epigrafik bezaklari nafis va serjilo islamiy bezaklar bilan uyg'unlashib ketgan. Bunday koshinlar maqbaraning izora qismidan to gumbazigacha ishlangan.

Me'moriy majmuaning sharq tomonida **Tuman og'a majmuasi** joylashgan bo'lib, u Amir Temurning xotini Tuman og'aga atab bunyod etilgan maqbara, masjid va xonaqohni o'z ichiga olgan. Tuman og'a majmuasiga kirish peshtoqidagi yozuvga qaraganda, u 808/1405–1406 yillarda bunyod etilgan. Unda, shuningdek, Amir Temurning xotini, sarkarda Amir Muso qizi Tuman og'a nomi ham keltirib o'tilgan. Mazkur maqbara va unga tegishli boshqa inshootlar qurilishi Tuman og'a nomi bilan bog'lanadi. Mutaxassislar Registon maydoni yaqinidagi Samarqand-ning eng katta savdo rastasi – Toqi kulohfurushonning qurilishini ham uning nomi bilan bog'lashadi<sup>2</sup>.

Shohi Zinda majmuasidagi o'rta guruh inshootlari XIV asrning oxirgi choragida bunyod etilgan. Ular Amir Temurning yaqin qarindosh-urug'lari, lashkarboshilari va diniy a'yonlari xilxonasi hisobla-

turli xil haroratni saqlab turuvchi gumbazlardan iborat bo'lgan va ularning aksariyat qismiga yorug'lik gumbaz markazida qo'yilgan darchadan tushib turgan. Poliga tosh plitalar yotkazilgan va ularning ostidan issiq havo yo'llari o'tgan. Issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan bu inshootlarning oqava suvlari maxsus yopiq ariqlar (tozor – kanalizatsiya quvurlari) vositasida shahardan tashqariga maxsus obpartavrlarga chiqarilgan<sup>1</sup>.

Amir Temur hukmronligi davrida **yo'lbo'yi inshootlari**: karvon-saroy va sardobalardir. **Karvonsaroylar** asosan Sharq mamlakatlari keng tarqalgan qadimiy mehmonxonalar vazifasini bajargan. Markaziy shaharlar va karvon yo'llari bo'ylab qurilgan karvonsaroylar yo'lovchilar uchun vaqtinchalik turarjoy vazifasini o'tash bilan birgalikda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun ulgurji savdo markazlari sifatida ham xizmat qilgan<sup>2</sup>.

Karvon yo'llari bo'ylab joylashgan ijtimoiy inshootlardan yana biri sardobalardir. **Sardoba** – forscha "sard-sovuq" va "ob-suv" ya'ni sovuq suv manbai degan ma'nolarni bildiradi. Ular Sharq mamlakatlari keng tarqalgan qadimiy mehmonxonalar vazifasini bajargan. Markaziy shaharlar va karvon yo'llari bo'ylab qurilgan karvonsaroylar yo'lovchilar uchun vaqtinchalik turarjoy vazifasini o'tash bilan birgalikda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun ulgurji savdo markazlari sifatida ham xizmat qilgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ахмедов Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 42.

<sup>2</sup> Немцова Н.Б. По караванным дорогам Бухарской степи // Великий шелковый путь. Культура и традиции. Прошлое и настоящее: Материалы международной научно-теоретической конференции – Ташкент, 2006. – С. 253; Эргашев Ж.Ю. Бухоро хонлиги карвонсаройлари ҳақида айрим мулоҳазалар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хоразм, 2019, – №1. – Б. 64.

<sup>3</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 137-138.

<sup>1</sup> Зоҳидов П.Ш. Темур даврининг меъморий қасралари... – Б. 38.

<sup>2</sup> Засыпкин Б.Н. Вопросы изучения и реставрации... – С. 77.

ko'proq daryo bo'ylarida, sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlarga yaqin erlarda joylashgan<sup>1</sup>.

Movarounnahr hududlarida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar qurilish uslubi va xom ashyosi nuqtai-nazaridan quyidagi turlarga bo'lingan:

- g'ishtin-pishiq g'ishtdan bunyod etilgan va asrlar davomida o'z ko'rku-tarovatini saqlab qolgan mustahkam hamda muhtasham inshootlar.

- sangin-poydevorlari, hovli sahnalari va ba'zida butunlay toshdan qurilgan inshootlar.

- chubin yoki cho'pkori-yog'ochdan qurilgan inshootlar.

- xom g'ishtli, paxsa va guvalali inshootlar.

ganchkori-me'moriy bezagida asosan ganchdan foydalanilgan inshotlar.

Hozirgi kungacha saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklarni tadqiq etish natijasida yuqorida nomlari keltirib o'tilgan inshoot turlari, xom ashyo va me'moriy uslublarning barchasidan Amir Temur va Temuriylar davrida ham keng foydalanilgan. Yuqorida sanab o'tilgan aksariyat me'moriy uslub va an'analar Movarounnahr hududida, xususan, ushbu mintaqaning aksariyat qismini egallagan mustaqil davlatlar: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi qardosh mamlakatlar milliy me'morchiligida keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan. Ular hozirgi kunda mintaqada bunyod etilayotgan zamonaviy inshootlar qurilishida ham qo'llanilmoqda.

Shirinbeka og'o, Tug'li Tekin, Amirzoda, Sakkiz qirrali maqbara, Nomsiz maqbaralar, majmuaga kirish peshtoqi, chortoqli peshtoq va boshqalarning aksariyat qismi aynan Amir Temur va Temuriylar davrida qurilgan<sup>1</sup>. Ushbu davrda majmuada avval qurilgan inshootlar doimiy ravishda qayta ta'mirlanib, tiklangan. Majmua Amir Temur va Temuriylar davrida uzil-kesil shakllanib, shu sulola a'zolari tufayli hukmdor va uning avlodlariga yaqin qon-qarindoshlik rishtalariga ega shaxslar-ning xilxonalaridan biriga aylangan. Majmuaning alohida maydonlari hamda maqbara inshootlari oralig'idagi hududda, bosh yo'lakning so'l va o'ng tarafida bitiklari mavjud qabrtoshlar yig'ilgan va ularning soni 3 donadan 30 donagacha va ba'zi maydonlarda hatto undan ham ko'p... Nekropol<sup>2</sup>da 100 dan ziyod yodgorliklar hisobga olingan va ular o'zlarining o'rnashgan yeriga muvofiq ravishda bir necha guruhga bo'lingan. 1 guruhga 33 qabrtosh, 2 guruhga 11 ta, 3 guruhga 7 ta, 4 guruhga esa 12 ta shu kabi h.k. yodgorliklar kiradi<sup>3</sup>. Me'moriy majmuada ushbu davrda bunyod etilgan maqbaralar milliy me'mor-chilikning asosiy an'alarini davom ettirgan holda qurilgan bo'lib, ularda ushbu davrga xos yangi an'analar o'z aksini topgan. Shohi Zinda majmuasida joylashgan har bir me'moriy inshoot o'ziga xos ko'rinish va mahobat kasb etgan bo'lib, uning asosini Qusam ibn Abbos qabri ustida tiklangan yodgorlik tashkil qiladi. Me'moriy majmua yo'lagining ikki tarafida turli davrlarda bunyod etilgan maqbaralar me'moriy majmuaga betakror ko'rinish bahsh etadi. Shohi Zinda majmuasining ko'rinishi va o'ziga xos qurilish uslubi nafaqat Samarqand maktabi, balki Movarounnahrning deyarli barcha me'moriy maktablari an'ana-larini o'zida mujassam etgani bilan betakrordir. Mazkur me'moriy majmua inshootlarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin. Bular: pastki, o'rta va yuqori guruh binolaridir. Hozirda ushbu yodgorlikda mavjud inshootlarning asosiy guruhi XIV–XV asrlarga tegishli.

Me'moriy majmuaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan yodgorlikning eng qadimiysi **Qusam ibn Abbos maqbarasi** (XI–XV asrlar) go'rxona, ziyoratxona, masjid va chillaxonadan iborat. Mazkur maqbara majmuasi Payg'ambar Muhammad alayhissalomning amaki-

<sup>1</sup> Эргашев Ж.Ю. Савдо йўлларида сардобаларнинг аҳамияти хусусида // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси... – Б. 68-69.

<sup>1</sup> Вахитов М.М., Мирзаев Ш.П. Меъморчилик. 1-қисм. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 120-121.

<sup>2</sup> Некрополь-о'liklar shahri.

<sup>3</sup> Аминов Б. Марказий Мовароуннаҳр қабртош битиклар... – Б. 12-13.

uchun Amir Temur majmuasining g'arbiy tarafida maqbaralar bunyod etgani haqidagi ma'lumotlar aniqlangan<sup>1</sup>.

Temur sag'anasiga qo'yilgan ko'k nefrit qabrtoshini Ulug'bek Mo'g'ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada Temurni ulug'laydigan so'zlar, uning shajarasiga bitilgan marsiyalar o'yib yozilgan. Ziyoratxonaning sharqiy qismidagi ravoqdan zina orqali ostki qavatdagi haqiqiy go'rxonaga tushiladi. Undagi sag'analar yuqori qavatda qanday bo'lsa, pastki qavatdagilari ham shu tartibda joylashtirilgan. 1424 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan maqbaraning sharq tomonida gumbazli galereya qurilgan. Bu davrda maqbaraga kirish darvozasi ta'mirlangan, ya'ni nafis o'yima naqshli bezaklar bilan bezatilgan. Ilgari eshik tepasida: "Bu shavkatli Amir Temurning qabri..." deb yozilgan koshinli lavha bo'lgan (bu lavha hozirda Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda).

XIX oxirlarida Amir Temur maqbarasi epigrafik bezaklari S.Lapin, Ye.Bloshe, keyinchalik A.Semyonov I.Pletnev, B.Bobojonov, A.R.Buoriy, Ye.Pskaleva, B.Aminovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu maulliflar tomonidan mazkur yodgorliklarning ajralmas qismi bo'lgan tadqiq etilgan davrga oid qabrtoshlar va ularning bitiklari ham o'rganilib, toshlarda saqlangan muhim tarixiy dalillar ilmiy muomalaga kiritilgan<sup>2</sup>.

**Shohi Zinda me'moriy majmuasining** dastlabki inshootlari dastlab XI asr o'rtalarida Samarqandning qadimiy shahri Afrosiyob qal'asi devorlari yonida qurila boshlangan<sup>3</sup>. Unda mujassam bo'lgan maqbaralar: Qusam ibn Abbos, Tuman og'a, Shodimulk og'a,

<sup>1</sup> Плетнев И.Е. Ансамбль Мухаммед-Султана в Самарканде / Сборник научных трудов. Вып. VI. – Ташкент, 1964. – С. 81-95; О'sha muallif. Архитектурный комплекс у мавзолея Гур-Эмир... – С. 96-105.

<sup>2</sup> Лапин С. Перевод надписей на исторических памятниках города Самарканд. – Самарканд, 1896. – С. 51-72; Bloshe Edgar. Les inscriptions de Samarkand // Revue Archéologique, 1897, V.I. – P. 67-109; Семенов А. Надписи на надгробиях Темура и его потомков в Гур-Эмире // Эпиграфика Востока. Вып. II. Москва-Ленинград, 1948. – С. 49-62; Окончание. Вып. III. Москва-Ленинград, 1949. – С. 45-54; Шедевры архитектурной эпиграфики Узбекистана // Расшифровка, чтение, перевод и комментарии Б. Бабажанова, Абдулгафур Раззак Бухари и др. – Ташкент: Узбекистан, 2011. – С. 105; Paskaleva E. Notes on the epigraphic panel the main entrance to the Ulugh Beg gallery at Gur-I Amir in Samarqand // Science and culture in the Temurid ere. – Tashkent, 2017. – P. 19-20; Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 14-17

<sup>3</sup> Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 118.

## II BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA SHAHARSOZLIK VA ME'MORCHILIK (MOVAROUNNAHR MISOLIDA)

### II.1. Samarqand – poytaxt shahar tuzilishi va me'moriy yodgorliklari

"Sharq renessansining ikkinchi bosqichi" deya e'tirof etilgan Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor qaratilgan. Amir Temur tomonidan boshlangan ushbu jarayon uning avlodlari tomonidan davom ettirilgan. Mazkur davrda Movarounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida bunyod etilgan mahobatli me'moriy yodgorliklar fikrimizga dalil bo'ladi. Temuriylar davri shaharlari va me'morchiligi tarixini chuqur tadqiq etgan san'atshunos olim G.A.Pugachenkovaning ta'rifi ko'ra bu davrda: "Ark-qal'alar davlatning kuch-qudrati, saroylar hokimiyatning shukhi va savlati, ma'muriy-jamoatchilik binolari islom madaniyati mafkurasining g'alabasi, savdo inshootlari hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji, mahalliy aholining zich qurilgan uy-joylari joylashgan dahalar esa o'rta asr murakkab shaharlari joni va tani bo'lgan"<sup>1</sup>.

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida amalga oshirilgan me'morchilik ishlari beqiyos ko'lam kasb etgan. Bunda avvalambor shahar qurilishi, xususan, shahar devorlarini qayta qurish va mustahkamlash, ularda saltanat nufuzini o'zida aks ettirgan me'moriy majmualar: saroy, madrasa, masjid, xonaqoh, maqbaralar barpo etishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, markaziy shaharlar shoh ko'chalarini tartibga solish, ko'chalar bo'ylab savdo rastalari, ixtisoslashgan ustaxona va do'konlar qurish aniq reja asosida amalga oshirilgan. Shoh ko'chalarning har biri shahar markazida joylashgan savdo majmuasi – Chorsudan boshlanib, mudofaa devori darvozalariga olib boruvchi asosiy yo'nalishlar hisoblangan. Mazkur yo'nalishdagi bunyodkorlik ishlari Samarqand, Hirot va Keshda keng ko'lamda amalga oshirilgan. Amir Temurning bunyodkorlik va ilm-ma'rifat yo'lidagi keng ko'lamli faoliyati, Temuriylarning dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shishi uchun mustahkam zamin yaratgan. Shu jumladan, uning bunyodkorlik

<sup>1</sup> Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии... – С. 10.

borasidagi faol harakati nafaqat avlodlari davrida balki undan keyingi davrlarda ham ilm-fanning rivoji hamda betakror me'moriy yodgorliklarning bunyod etilishiga sabab bo'lgan. Milliy me'morchilik tarixida o'ziga xos an'analarga ega Samarqand va Hirot me'morchilik maktablarining yuksak darajaga ko'tarilishiga xizmat qilgan. Mutaxassislarning ta'kidlab o'tishicha, Amir Temur davrida ilk bor "qo'sh" uslubidagi me'moriy majmualar yaratilgan. Temuriylar davrida mazkur uslub yanada takomillashtirilib, "maydoncha" uslubidagi yangi me'moriy majmualar shakllantirilgan<sup>1</sup>. Birinchi holatda bu, Amir Temurning Samarqanddagi ulkan Jome' masjidi va uning muqobilida qurilgan (hozirda yo'q bo'lib ketgan) Bibixonim madrasasidir. Ikkinchi holatda esa Mirzo Ulug'bek tomonidan Registonda bunyod etilgan madrasasi, uning qarshisidagi xonaqoh hamda ularning orasidagi maydonning shimol tarafida joylashgan karvonsaroyning umumiy majmua sifatida qurilishi edi<sup>2</sup>. O'z davrida milliy me'morchilikda handasaviy qonuniyatlarning mohirona qo'llanilishi asosida yaratilgan ushbu yodgorliklar nafaqat O'rta Osiyo, balki Eron, Xuroson, Hindiston va boshqa davlatlar me'morchiligi uchun andoza sifatida xizmat qilgan. Aynan Amir Temur va Temuriylar davrida asrlar davomida milliy me'morchilik tarixida o'ziga xos o'rin tutib kelayotgan bir qator me'morchilik maktablari yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tarilgan. Xususan, Movarounnahrda nafaqat Samarqand balki Buxoro, Xorazm, Toshkent maktablari an'analari uyg'unligidagi me'moriy yodgorliklar yaratilgan. Ushbu davrda shaharlar o'ziga xos sharqona shaharsozlik an'analari asosida qayta qurilgan va yoki betakror me'moriy inshootlar bilan boyitilgan.

**Samarqand.** Amir Temur va Temuriy hukmdorlar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan poytaxt shahar Samarqand bunga qadar ham Movarounnaxrning mashhur o'rta asr shaharlaridan biri bo'lgan. X asr geografi Ibn Havqalning yozishicha, So'g'd poytaxti Samarqand So'g'd daryosidan janubdagi balandlikda joylashgan shahar bo'lib, qal'a, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Qal'ada hukmdor saroyi va zindon joylashgan... Shuningdek, Samarqandda bozorlar, katta shaharlarga xos bo'lgan qator mahallalar, hammomlar, karvonsaroylar, uylar borligi, qisman qo'rg'oshindan qilingan kanaldan tarqaluvchi

hovlidan iborat bo'lgan. Hovlining to'rttala tomoni bir maromda takrorlanadigan ravoqlar, ustunlar bilan bezatilgan. Uning burchaklari to'rtta xushbichim minorali devor bilan o'rab olingan. Ayniqsa, ziyoratxonaning ichki qismi o'ta hashamatli qilib bezatilgan va qabrtoshlar qimmatbaho (oniks) toshidan yasalgan. Maqbaraning qurilishida gumbazga katta ahamiyat berilgan (ostki qism aylanasi 15 m, balandligi 12,5 m), ya'ni u baland silindr barabani va qovurg'asimon gumbazi bilan ajralib turadi. Inshootga o'ziga xos jozibadorlik baxsh etgan 64 ta qabirg'asimon elementlarni jam etgan gumbazning vazni sharafo orqali mustahkam asosli aylanmaga tushirilgan<sup>1</sup>. Gumbazning ichki tomoni tilla suvi yugurtirilgan nafis, jimjimador islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Uning tepa qismi bezaklari sof tilladan ishlangan. Katta qubballi, kundal uslubidagi bo'rtma bezak, zamini esa lojuvard rangli gullar shaklidagi islimiy bezaklardan iborat. Izorasi yashil toshdan girih shaklida terilgan. Maqbara darchalarida yog'ochdan ishlangan nafis panjaralar, kirishida esa murakkab qo'sh zaminli o'ymakor ganch bezakdan ishlangan kesakiga ega. Unga sadaf va kumush qadalgan yog'och eshiklar o'rnatilgan. Ziyoratxona o'rtasidagi marmar panjara bilan o'ralgan murabba' xazira sahniga qator qabrtoshlar qo'yilgan. Yuqorisida Amir Temurning hurmatli piri Mir Sayyid Baraka sag'anasi, uning qabri oyoq tomoniga Sohibqiron vasiyat qilganidek, o'zi dafn qilingan. Undan keyin Amir Temurning o'g'illari Shohrux Mirzo, Mironshoh, nevaralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va boshqa temuriy shahzodalarning qabrtoshlari joylashtirilgan<sup>2</sup>. Maqbarada Temuriylar xonadoniga mansub ayollarning qabrlari ham mavjud. Xususan, Muhammad Sultonning qizi og'o Begumning (Mirzo Ulug'bekning yosh umr yo'ldoshi) vafot etishi munosabati bilan, shu yerda otasining yonidagi qabrga qo'yilgan<sup>3</sup>. Shuningdek, yozma manbalar tahlili va arxeologik tadqiqotlar natijasida Abu Sa'id Mirzo olamdan o'tgan o'zining qizlari

<sup>1</sup> Булатов М.С. Геометрическая гармонизация архитектуры Средней Азии... – С. 166-167.

<sup>2</sup> Bu haqida qarang: Бартольд В.В. О погребении Темура / Темерлан: Эпоха. Личность. Деяния. – Москва: Гураш, 1992. – С. 495; Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 14.

<sup>3</sup> Bu haqida qarang: Ахмадов Б. Улуғбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – Б. 19-20; Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 15.

<sup>1</sup> Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият... – Б. 31.

<sup>2</sup> O'sha asar. – Б. 31-32.

iqtisodiy inqiroz davrida Muhammad Sulton madrasasi xarobaga aylana boshlagan va, keyinchalik, buzilib ketgan. Shu sabab XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Samarqand yodgorliklarini o'rgangan tadqiqotchilar dastlab madrasa va xonaqoh o'rnini aniqlay olishmagan. XX asrning o'rtalariga kelib, B.N.Zasipkin, M.E.Masson, G.A.Pugachenkova va keyinchalik P.Sh.Zohidov, A.Ahmedovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ushbu madrasaning joylashgan o'rne, tuzilishi, o'ziga xos tomonlari va me'moriy bezaklari to'g'risida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan<sup>1</sup>. To'plangan materiallar asosida rejali restavratsiya ishlari boshlanib, Amir Temur maqbarasi va uning tarkibiga kirgan inshootlar, shu jumladan, Muhammad Sulton madrasasi ko'rinishi va tuzilishi to'g'risida tasavvur hosil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, Muhammad Sulton madrasasining saqlanib qolgan poydevori va me'moriy bezak parchalari tadqiq etilib, Amir Temur va Temuriylar davriga xos bo'lgan g'ishtin ustunlar bezagida “girihi”, madrasa devorlari, peshtoq hamda ravoqlarida to'q zangori islmiy va zarhal epigrafik bezaklar hamda hoshiya bezaklari lojuvard koshinli bo'lgani aniqlangan. Madrasa tokchalaridagi qubbalar mayda arkalar shaklida bir-biri bilan tutashgan ganch muqarnas (osilib turuvchi kosasimon yirik ganchkori) bezaklar bilan ishlangan. Muhammad Sulton madrasasi to'rtburchakli hovlisining atrofiga ikki qavatli xonaqoh hujralari tushgan bo'lib, ularning ortida gumbazli darsxonalari bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Amir Temur davri me'morchiligining nodir namunasi, Temuriylar xilxonasi hisoblangan **Amir Temur (Go'ri Amir) maqbarasi** qurilishi 1403 yilda Amir Temurning nabirasi Muhammad Sultonning vafot etishi munosabati bilan boshlangan. Samarqand arkining janubi-sharqiy qismida joylashgan mazkur maqbara (maydoni 79,5x51,7 m) qurilishi Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan. Dastlab Amir Temur farmoni bilan me'moriy majmuaning janubiy tomonida shahzoda Muhammad Sulton madrasasi yonida dafn etilgan shahzoda qabri ustida maqbara bunyod etilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning ta'rifiga ko'ra, ushbu maqbara “...osmon kabi baland gumbaz, devorlarining pastki qismi zarhal va lojuvard bilan bezatilgan marmar toshdan qilingan”<sup>2</sup>. U ikki qavatli madrasa, ziyoratxona, masjid, xonaqoh, darveshlar uchun hujralar va ularni birlashtiruvchi to'rt ayvonli

oqar suv shaharning barcha qismidan o'tgani, Jome' masjidi shahristondagi arkdan pastroqda joylashgani, ular o'rtasidan katta yo'l kesib o'tgani, Asfizar degan joyda Somoniylar tomonidan bunyod etilgan saroylar borligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan<sup>1</sup>. Tilga olingan bu kanal – mo'g'ullar bosqini paytida vayron qilingan va shahar ahli suvsiz qolgan Afrosiyob shahristonini tashlab chiqib ketishgan. Shu vaqtdan boshlab u o'rta asrlarning gullab-yashnagan shahristoni emas, balki xaroba shaharga aylangan. XIV–XV asrlarda Afrosiyob xarobalarining janubi-sharqiy yonbag'rida asta-sekinlik bilan Shohi Zinda me'moriy majmuasi Temuriylar davrining o'ziga xos an'anaga ega inshootlari bilan boyitala boshlangan. Amir Temur yangi shaharni Afrosiyobdan janubda, mo'g'ullar davridan oldingi ichki va tashqi shahar (shahri darun va shahri berun) o'rnida bunyod etgan. 773/1371 yili bu maydon qal'a devori va handaq bilan o'rab olingan. Shundan boshlab u “hisor” deb atala boshlangan va g'arbiy qismidagi tabiiy tepalik ustida qal'a barpo etilgan. Ushbu qal'a devorlari bizgacha yetib kelmagan, biroq sodda va sirli koshin qoplangan minoralari saqlanib qolgan. Hirotida hozirgacha saqlanib qolgan Ixtiyoriddin qal'asi ushbu davr qal'a devorlari to'g'risida bir qadar tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'sha davrda Samarqand qal'asining hatto qorovulxona binosi ham hashamdor qilib bezatilgan. Temuriylar davlati markaziy shaharlari hisori mo'g'ullar davrigacha bo'lgan “shahriston” tushunchasidan farq qilgan. Ya'ni, hisor me'moriy jihatdan o'zaro uyg'un asosiy ma'muriy va ijtimoiy sohaga oid inshootlarni o'z ichiga olgan. Bu davrda shaharlar mustahkamlangan himoya devoriga ega bo'lib, katta-yu kichik shaharlar hisori hududi va qurilish binolari shakli-shamoyili turlicha, ammo ularning ahamiyati va vazifasi bir xil bo'lgan<sup>2</sup>.

Amir Temur mamlakatning asosiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi hisoblangan Samarqandda muhtasham binolar qurishga alohida ahamiyat bergan. Shahar hisori ham shunga yarasha hashamatli tus olgan. XV asr boshlarida Amir Temur saltanati poytaxtiga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ta'rifiga ko'ra, bag'oyat xushmanzara, jannatmonand yerda joylashgan

<sup>1</sup> Ибн Хавқал. Китоб сурат ул-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси ДИН, 2011. – Б. 52-53.

<sup>2</sup> Темур ва Улуғбек даври... – Б. 165.

<sup>1</sup> Аҳмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 53.

<sup>2</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

Samarqandda betakror tabiati, go'zal daraxtzorlari, maftunkor inshootlari, so'lim kanallar bo'lgan. Bu beqiyos shahar – saltanatning noyob javohiri va boshqa shaharu qishloqlar havas qilgudek maskani, (Temur) davlatning boshqaruv markaziga aylantirilgan poytaxt shahri bo'lgan. Amir Temur shaharda qal'a va hisor qurishni, ulug'vor inshootlar va tillakori saroylar bunyod etishni buyurgan<sup>1</sup>.

Shunday muhtasham inshootlardan biri Samarqand arkida joylashgan to'rt qavatli muhtasham **Ko'ksaroy**dir. Uning bezaklarida ko'k-zangori rang ko'p ishlatilgani sababli u shunday nomlangan. Amir Temur va Temuriylar davrida saltanatning muhim tadbirlari o'tkaziladigan mazkur saroy markazida yaxlit marmartoshdan ishlangan va juda chiroyli qilib bezatilgan ko'ktoshdan iborat supa joylashgan. Uning ustida qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan hukmdor taxti o'rnatilgan. Ushbu tarixiy ko'ktosh hozirda Go'ri Amir maqbarasida saqlanmoqda. Ko'ksaroy haqida Mirzo Bobur ta'rifiga ko'ra: "Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibdurkim, to'rt oshyonlik Ko'ksaroy mavsum va mashhur va bisyor oliy imoratdur"<sup>2</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davri manbalarini chuqur tadqiq etgan tarixchi olim B.Ahmedovning ilmiy ishlarida ushbu davr ma'muriy boshqaruv inshootlari xususida ham ko'plab keltirib o'tigan. Xususan, hukmdor saroyida olib borilgan kengashlar, elchilar bilan uchrashuvlar jarayonlariga oid tarixiy faktlar bilan birgalikda ushbu inshootlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi. Muallifning ta'kidlab o'tishicha, **Ko'ksaroy** muhim uchrashuvlar bo'lib o'tadigan hukmdor saroyi bo'lib, unda qabulxonadan tashqari davlat xazinasi va qurxona ham joylashgan. Ko'ksaroy davlatning maxsus qamoqxonasi (zindoni) ham hisoblanardi. Ark ichida joylashgan va to'rt qavatli mustahkam hamda mahobatli inshoot bo'lgan Ko'ksaroyda asosan davlat jinoyatchisi, deb topilgan maxbuslar qamalgan va davlat boshlig'i hukmiga ko'ra qatl etilgan. Devorlari ko'k marmartosh bilan bezatilgan ushbu qasr Amir Temur davrida hamda uning vorislari davrida ham davlat ahamiyatiga ega bo'lgan joy sifatida xizmat qilgan. Ko'ksaroyning yana bir qanotida podshohning xos korxonalari joylashgan bo'lib, ularda qurol-yarog' (qilich, nayza, o'q, sovut, jiba, tura, zireh, hafton, tabarzin va barguston va boshqalar) yasalgan. Shuningdek, ushbu saroyda Amir Temurning xos

solg'an madrasakim, masjidi jome' aning muqobilida tutur"<sup>1</sup>. Saroymulkxonim madrasasi Samarqandning Ohanin (Temir) darvozasi yaqinida, onasining maqbarasi yonida qurdirilgan. Manbalarda madrasaga kiriladigan darvoza peshtoqining nihoyatda baland, keng va go'zalligi<sup>2</sup>, salobati va betakrorligi<sup>3</sup>, ayvonlarining qurilish uslubi va bezaklari<sup>4</sup> haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mazkur madrasa ham o'z davrining eng yirik ta'lim muassasalaridan bo'lgan. Unda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy imllar majmui ham o'qitilgan bo'lib, zamonasining yirik fan arboblari yetishib chiqishida o'ziga xos o'rin tutgan. Temuriylar davri ilm-ma'rifatidan nishona bo'lgan ushbu mahobatli madrasa XVI asrda Abdullaxon tomonidan buzdirib tashlangan.

Milliy me'morchilikda mavjud tasnifga ko'ra saroylar ma'muriy boshqaruv inshootlari sirasiga kiritilgan. Amir Temur davrida Samarqandda bunyod etilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy shunday inshootlardan hisoblanadi.

**Muhammad Sulton madrasasi** – Amir Temur majmuasining sharqiy tomonida joylashgan madrasa bo'lib, XV asr boshlarida bunyod etilgan. "Zafarnoma"da mazkur madrasa to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan: "Sohibqiron torix sakkiz yuz yettida (1404, iyul) shaharga kirib, shahzodai sa'id Mirzo Muhammad Sulton madrasasig'akim, ani yangi yasab erdilar va hazrat ani ko'rmaydur erdi, borib ziyorat qildi... Farmon bo'ldikim, "Madrasa yonida gumbazi oliy solsunlar!". Hukm bilan gumbaz soldular va sardoba qildilar. Anining yonida bir bog'cha behishtdek yasadilar"<sup>5</sup>. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqib, Amir Temur davri madrasalarida masjiddan tashqari yana so'lim bog' va sardoba ya'ni yil davomida ichimlik suvi saqlaydigan kichik suv omborlari ham barpo etilganini ko'rish mumkin<sup>6</sup>.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, mazkur madrasa XVII asrda ham ishlab turgan. Hozirda madrasa xonaqohi binosi hamda poydevorining bir qismigina saqlanib qolgan. XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy va

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 290.

<sup>3</sup> Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур... 1-китоб. – Б. 314-315.

<sup>4</sup> Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи... – С. 125.

<sup>5</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 221.

<sup>6</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 110-111.

<sup>1</sup> Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура... – С. 137.

<sup>2</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma... – Б. 79.

tariqasida Xo'ja Mirhamid, Malik Ajdar va Qo'rg'oncha masjidlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Voha jome' masjidlari esa qadimiy an'analar asosida qurilgan bo'lib, barchasida mehrobli namozxona mavjud. Shuningdek, Qarshi va Koson, G'uzordagi Namozgohlar tomlari yog'och bolorli tekis tom (gumbazsiz) yopmasiga ega bo'lib, xom g'ishtdan qurilgan. Mazkur tipdagi masjidning quyuk bezakli shiftlari Farg'ona maktabi ta'siridan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davrida me'moriy majmualarni kompleks tarzda bunyod etish an'anasi rivojlangan. Saltanatning bir qator markaziy shaharlarida asosan diniy inshootlarni (maqbara, masjid, xonaqoh, minora va boshqalar) o'zida jamlagan me'moriy majmualar bunyod etilgan. Ular Temuriylar davri me'morchiligiga xos umumiy o'xshashliklardan tashqari ushbu davrda rivoj topgan turli me'morchilik maktablariga tegishli farqlarga egadir. Shuningdek, o'rta asrlarda yakka me'moriy inshoot tarzida bunyod etilgan maqbaralar ham mavjud. Misol uchun, Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, Samarqanddagi Temuriylar davri yodgorligi bo'lgan Ruxobod maqbarasi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin<sup>2</sup>. Amir Temur va Temuriylar davrida avvaldan bunyod etilgan bir qancha me'moriy majmualarda yangi masjid va maqbaralar bunyod etilgan. Bundan tashqari, Temuriylar davrida bunyod etilib, keyinchalik boshqa me'moriy inshootlar bilan boyitilgan bir qator me'moriy majmualarga ta'rif berib o'tamiz.

**Saroy mulkxonim madrasasi** – “qo'sh” usulda, ya'ni Bibixonim jome' masjidi va uning qarshisida bunyod etilgan maqbara majmuasida qurilgan baland peshtoqli ulug'vor inshootlar sirasiga kirgan. Ushbu madrasa Bibixonim jome' masjidi qarshisida bunyod etilgan. Manbalarda keltirilishicha, Saroy mulkxonim madrasasi peshtoqi uning qarshisidagi Amir Temur jome' masjidinikidan ancha mahobatli va chiroyli bo'lgan. Navbatdagi harbiy yurishdan Samarqandga qaytgan Amir Temur bu holni ko'rib g'azablanganidan, masjid darvozasini buzib, qayta qurishni buyurgan. Ushbu masjid va madrasa to'g'risida “Zafarnoma”da quyidagilar keltirib o'tilgan: “Masjidi jum'akim hazrat o'zi solib erdi, borib tavarruj qilib ko'rdikim, eshikni kichik solibdurlar. Buyurdilarkim “Buzib, ulug'roq solsunlar!. Saroy mulkxonim

kutubxonasi ham bo'lgani, unda zamonasining nodir qo'lyozma asarlari saqlangani hamda ma'lumotlar mavjud<sup>1</sup>.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Samarqand arkida joylashgan Amir Temur saroylaridan yana biri **Bo'stonsaroy**da asosan saroy ahli, hukmdorning yaqin kishilari hamda ularning oila a'zolari istiqomat qilgan. Zangori rangli me'moriy bezaklarga boy ushbu muhtasham saroyda ham turli tadbirlar, shu jumladan, to'y-tomoshalar, tantanali uchrashuvlar, elchi va mehmonlar qabuli o'tkazilgan. Asrlar suroni ostida vayronaga aylangan ushbu saroylarning joylashgan o'rni, uning tuzilishi, me'moriy bezaklari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari XX asr birinchi choragi (1923 yil)da V.L. Vyatkin va M.E. Masson boshchiligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Amir Temurning asosiy qarorgohi hisoblangan Ko'ksaroy Samarqand arkining sharqiy qismida, Bo'stonsaroy esa arkning shimoli-sharqiy qismida joylashganligi aniqlangan<sup>2</sup>.

O'rta asr Sharqida bunyod etilgan me'moriy majmualar, ziyoratgohlarning deyarli barchasida masjidlar uchun alohida binolar ajratilgan. Temuriylar davrida bunyod etilgan eng yirik masjid Bibixonim jome' masjidi. **Bibixonim jome' masjidi** O'rta Osiyodagi eng katta va musulmon dunyosidagi eng yirik masjidlardan biri bo'lib, arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, uning o'lchamlari 100x140 metrdan iborat bo'lgan. Mutaxassislar uning mahobatli ko'rinishi va o'lchamlarini taqqoslash uchun Qohiradagi XIV asrda qurilgan Sulton Hasan masjidining o'lchamlarini (60x120 m.) keltirib o'tishgan<sup>3</sup>. Shuningdek, G'arbiy Yevropa me'moriy yodgorliklari, xususan, qurilishi taxminan bir xil vaqtga to'g'ri keladigan Milan sobori rejasiga ko'ra, Bibixonim masjidiga tenglashadi. Masjid 1399–1404 yillarda Amir Temur Hindistonga qilgan zafarli yurishlardan qaytgach, uning farmoni bilan jome' masjidi sifatida qurilgan. Tarixiy manbalarda Amir Temur ushbu masjid o'z hashamati va ulug'vorligi bilan ko'rganlarni lol qoldiradigan darajada bo'lishini istagan. Shu sabab masjid qurilishini shaxsan o'zi nazorat qilgan. Samarqanddagi jome' masjidi qurilishi uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, xususan, Fors, Ozarbayjon va Hindistondan usta-hunarmandlar keltirilgan. Manbalarda mazkur masjidni qurish uchun 200 ta usta-me'morlar jalb etilgan. Har bir ish boshida

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 100.

<sup>2</sup> О'sha ish. – Б. 101-102.

<sup>1</sup> Ахмедов Б. Улугбек... – Б. 20-25.

<sup>2</sup> Вяткин В.Л. Памятники древностей Самарканда... – 32 с.

<sup>3</sup> О'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1396-ish, 14 rasm va chizma.

bir shahzoda bilan bir bek mas'ul qilib qo'yilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Bu haqda "Zafarnoma"da quyidagilar keltirib o'tilgan: "Sohibqiron g'oyat ihtimomidinkim, masjid ishida ta'allul bo'lmag'ay, o'zi har kun kelib ishlag'onlar boshig'a turib, ihtimom qilur erdi. Masjid jum'ada to'rt yuz sakson ustun toshdin yasalib, har birining uzunlig'i yetti qari erdi. Va saqfini toshdin yasadilar va to'rt yonida to'rt minora yasadilar. Masjid tugagandin so'ng Dilkusho bog'ig'a borib to'ylar berdi. Ustakorlarga to'nlar kiydurub, otlar mindurdi"<sup>1</sup>.

Klavixo kundaligida ham ushbu masjid qurilishi xususida so'z borgan bo'lib, qurib bitkazilgan masjid old devori pastqam qilib qurilganidan norozi bo'lgan sohibqiron uni buzib, qayta qurishni buyurgani haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan<sup>2</sup>. Sharafuddin Ali Yazdiyda ham Klavixo ma'lumotlarini tasdiqlovchi satrlar mavjud. Xususan, mazkur inshoot old eshigi kichik solinganidan norozi bo'lgan Amir Temur qurilishga mas'ul bo'lgan me'morlar Xoja Muhammad Dovud va Muhammad Jalldarni qatl ettirgani aytib o'tilgan<sup>3</sup>. Bibixonim jome' masjidining bunyod etilishi xususida Fasih Havofiyning "Mujmali Fasihi"sida ham quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan: "Hindistondan olib kelingan mablag'lar hisobiga Samarqandda Amir sohibqiron avval o'ylab qo'ygan Jome' masjidining qurilishini boshladi. U mukarram ramazon oyining to'rtinchi kuni yakshanba (1399 y., 10 may)da boshlangan<sup>4</sup>. Amir sohibqiron muharram oyining o'ninchi kuni (1404 y., 19 iyul) Rum va Shomga qilgan yurishidan keyin Samarqandga qaytdi. Shu kunlarda ba'zi amirzodalarning nikohi munosabati bilan Konigilda katta bazm va tantanalar uyushtirdi. Amir sohibqiron Masjid jome'ni ko'zdan kechirdi va u xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jelddan ular qilgan sayoqlik va isrofgarchilikdan (bu to'g'rida unga ba'zi kishilar xabar bergan edilar) g'azablendi. Bundan tashqari Saroymulkxonim madrasasining ayvoni juda ham baland qurilgan bo'lib, Amir sohibqiron barpo etgan Jome' masjidining ayvoni unga nisbatan pastroq bo'lib qolgan. Vaholanki, ikkala ayvonni ham ular qurgan edilar. Ularni Konigilda qatl ettirdilar"<sup>5</sup>.

Ushbu mahobatli jome' masjidi asrlar suroni va tabiiy ofatlardan jiddiy ziyon ko'rgani sabab bizgacha butun ko'rinishi va mahobatini saqlagan holda yetib kelmagan. Uni har tomonlama chuqur tadqiq etgan XX asr olimlarining mashaqqatli mehnatlari natijasida ushbu masjidning dastlabki qiyofasi haqida tasavvurga ega bo'lish imkoniyati yaratildi. XX asr boshlarida masjidning markaziy peshtoqi va unga qarama-qarshi tomoni, atrofidagi katta-kichik masjid va minoralar qisman saqlanib qolgan edi. Masjidning marmar taxtalar bilan qoplangan keng ichki hovlisida namoz o'qish uchun mo'ljallangan usti berk ayvonlari bo'lganidan darak beradi. Hovliga chiqish joyi peshtoq balandligi 50 m asosli, tepaga qarab ingichkalashib boradigan ikkita minoralar ko'rinishida bezatilgan. Jome' masjidiga kiraverishdagi peshtoq ham serhasham va ulkan, uni hushbichim minoralar o'rab turgan. Butun bino devorlari tashqi tomondan turli rangdagi sirlangan g'ishtli sirtqi qoplama bezaklari girih hamda epigrafik yozuvlar bilan bezatilgan. Binoning ichki devorlari esa ganchdan ishlangan oq fonga ko'k bo'yoqlar bilan chizilgan va tilla suvi yuritilgan boy serhasham manzarali lavhalar bilan bezatilgan. Bibixonim jome' masjidi XX asrning birinchi yarmida V.L.Vyatkin, M.E.Masson, B.N.Zasipkin hamda G.A.Pugachenkovalar tomonidan chuqur tadqiq etilgan<sup>1</sup>. Buning natijasida 1950 yillarda uning yorilib ketgan katta gumbazi va boshqa qismlarini qisman tiklashga erishilgan. Mustaqillik yillarida, ya'ni 2003 yilda bosh me'mor muhandis Xodixon Akobirov boshchiligidagi ta'mirlash ishlari davom ettirilgan. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan mutaxassislarning ta'kidlab o'tishicha, keyingi asrlarda Samarqandda bunyod etilgan masjidlar asosan asimmetrik holatda qurilgan. Ular XV asr masjidlaridan farqli o'laroq, ixcham ko'rinishga ega bo'lgan. XVIII–XIX asr masjidlarida ham hovli, minora va darvozaxona bo'lgan. Ammo ular yuqoridagilardan hajm jihatidan sezilarli darajada kichikligi bilan farq qilgan. Jome' masjidlarining katta qishki zali uch tarafdan kiriladigan eshiklar va ayvonga ega bo'lgan. Masalan, Eski Juva, Zud Murod, Hazrati Xizr masjidlari bunga misol bo'ladi. Shahrisabz masjidlari ko'rinishi, shakli, tuzilishi va bezaklariga ko'ra turli-tuman. Ular simmetrik va asimmetrik holatda, ayvonli hamda ayvonsiz, gumbazli, boy me'moriy bezakli ko'rinishga ega. Bunga misol

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 221.

<sup>2</sup> Клавиho. Самаркандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги... – Б. 194.

<sup>3</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

<sup>4</sup> Фасих Ҳавофий. Мужмали Фасихий... – Б. 158.

<sup>5</sup> O'sha asar. – Б. 166.

<sup>1</sup> Batafsil qarang: Вяткин В.Л. Памятники древностей Самарканда... – 32 с.; Массон М.Е. Соборная мечеть Темура... – 32 с.; Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахриябз при Темуре и Улугбека... – С. 17-98.

Samarqandning shimolida, sharq tomonga moyilroq yerda mos bir joyni tayin qildi hamda shuhratli hakimlarning ixtiyori bo'yicha u ishni boshlashga muvofiq bir tole muqarrar qildi. Rasadning binosi davlat asosidek poydevor, poydevori esa saltanat qoidasidek ustivor qilib mustahkamlandi, imoratni tiklash va ustunlarini ko'tarish [Qu'ron oyatidagi] "albatta o'sha (qiyomat) kuni tog'lar sayr qiladi" <sup>1</sup> deyilgan kungacha barqaror turuvchi tog'lar singari yiqilishu nurashlardan omon tarzda bajarildi. [Oyatda kelgan] "etti mustahkam" qubbador qasrdan namuna bo'lgan<sup>2</sup> u oliy bunyod va ulug'sifat imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'atiyu to'qqiz osmon doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to oshiralargacha chizildi hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora yulduzlari, sobita yulduzlar ko'rinishi va yer kurrasi hay'atiyu iqlimlar suratlarini tog'lar, biyobonlari va yer kurrasiga nimaiki tegishli bo'lsa hammasi bilan birga dilpazir naqshlaru benazir raqamlar bilan chizishga buyurdi"<sup>3</sup>. Temuriylar davrida olib borilgan astronomiyaga oid tadqiqotlarning barchasi mazkur rasadxonada amalga oshirilgan bo'lib, u "Ziji qo'ragoniy" asarining yaratilishiga asos bo'lgan. Ushbu asarda Mirzo Ulug'bek ushbu rasadxonani qurishdan oldin falakiyot ilmi bilimdonlarini Samarqandda jamlagani va ular bilan rasadxonani qurish va unda olib borilishi zarur bo'lgan tadqiqotlar rejasini tuzgani haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shunga binoan, "U Aflotuni zamon Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy, "farzandim" deb atagani davron Batliymusi bo'lmish Mavlono Alouddin ali Qushchi, Koshondan Samarqandga keltirgani Mavlono G'iyosiddin Jamshid va hurmatli Muiniddinlar barcha ilmlar bo'yicha ma'qulu mafhum, xususan, riyoziy ham hikamiy tadqiqotlar bo'yicha asr mo'jizasi va davr nodirasi bo'lmish mashhur bilimdonlar... bilan birgalikda bir anjuman tuzdi... oftob va boshqa sayyoralarning taqvimini kuzatib borib, hikmat egasi bo'lmish janob Nasiruddin Tusiy tuzgan "Ziji jadidi Elxoniy"ga foydali tavsilotlarni orttirdi... va aniq tafovutlarni ko'rsatdi... Shahzoda u ziyjga tuzatishlar kiritilib tamomlanishiga muvaffaq bo'ldi va unga "Ziyji jadidi Ko'ragoniy" deb nom berdi"<sup>4</sup>. Rasadxona silindr shaklida uch qavatli, balandligi 30 m dan iborat ulkan bino bo'lgan. Unda

<sup>1</sup> Куръони карим. 52-сура, 10-оят.

<sup>2</sup> Куръони карим. 73-сура, 12-оят.

<sup>3</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн... – Б. 424.

<sup>4</sup> O'sha joyda.

nadi. Ushbu guruh yodgorliklariga Tug'li Tekin va Amirzoda maqbarasi ham kiradi.

**Tug'li Tekin maqbarasining** nomlanishi va qurilgan sanasi to'g'risida ham olimlar o'rtasida munozarali fikr-mulohazalar mavjud. Ya'ni bir guruh olimlar uni Tug'li Tekin deb nomlanishini ta'kidlab o'tishsa, boshqa guruh olimlar tomonidan u Amir Husayn nomi bilan bog'langan. Xususan, Abu Tohirxo'janing Samariyasida Shohi Zinda majmuasidagi **Amirzoda maqbarasi** qarshisida joylashgan peshtoqli imorat Amir Husayn maqbarasi ekanligi, bino peshayvonidagi yozuvlar uning qurilgan sanasi 777/1375–1376 yillarga tegishli ekanligini ko'rsatishi xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>1</sup>. Maqbaraning nomlanishi bilan bog'liq shu kabi ma'lumot S.A.Lapin tomonidan ham e'tirof etilgan. Uning Samarqand yodgorliklari epigrafik bezaklari tarjimasiga bag'ishlangan risolasida maqbara nomi Qora Qutlug'xon o'g'li Amir Husayn dahmasi, degan ma'lumot berib o'tilgan. Ammo bunda keltirib o'tilgan sana (777/1375–1376 yillar) maqbara qurilgan yil emas, balki Amir Husaynning vafot etgan yili sifatida e'tirof etilgan<sup>2</sup>.

Ikkingi guruh – A.L.Kun, V.L.Vyatkin va A.Yu.Yakubovskiy tomonidan nashr ettirilgan ilmiy maqolalarda esa ushbu maqbara Amir Temurning xotini Tug'li Tekin nomi bilan bog'langan. Yodgorlik peshtoqida keltirib o'tilgan sana esa uning vafot etgan yili sifatida ko'rsatilgan<sup>3</sup>. So'nggi tadqiqotlar natijasida ko'rsatilgan sana maqbaraning qurilgan yili ekanligi aniqlangan.

Chapda, me'moriy majmuaning g'arbiy tomonida 1371–1372 yillarda bunyod etilgan **Shodimulk og'a maqbarasi** joylashgan. Uning peshtoqida Zayniddin va Shamsiddin degan yozuv mavjud. Ular maqbaraning me'morlari nomidir. Uning qarshisida yana bir o'ziga xos me'moriy yechimli maqbara joylashgan. Ushbu maqbara Amir Temurning singlisi Shirinbeka oqa qabri ustida 1385–1386 yillarda qurilgan. Mazkur maqbaraning o'ziga xos tomonlaridan biri moviy rang asosli nafis va mukammal yaxlit yig'ma me'moriy bezakka ega ulug'vor peshtoqidir. Shuningdek, bunda oltiburchakli gumbazosti asos qo'lla-

<sup>1</sup> Абу Тахир Ходжа. Самария... – С. 177.

<sup>2</sup> Лапин С.А. Перевод надписей на исторических памятниках Самарканда... – С. 54.

<sup>3</sup> Кун А.Л. Туркестанский альбом, археологическая часть... – Л. 20; Вяткин В.Л. Памятники древности Самарканда... – С. 20; Якубовский А.Ю. Самарканд при Темуре и Темуридах... – С. 34.

nilgan. Ichki me'moriy bezaklari ham o'ziga xos. Unda daraxtlar, jilg'alar va qushlarning shartli suratlari miniatyura shaklida tasvirlangan<sup>1</sup>.

Shohi Zinda me'moriy majmuasining sharqiy tomonida XV asrning birinchi yarmida, ya'ni Mirzo Ulug'bek davrida bunyod etilgan o'ziga xos **Sakkiz qirrali maqbara** joylashgan. Ushbu yodgorlikning bunyod etilgan davri haqida manbalarda ma'lumot saqlanib qolmagan. Ammo uning o'ziga xos tomonlari, xususan, ixcham qurilish uslubi, me'moriy qurilmalari, bezaklari Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan inshootlarga o'xshashligini ilmiy isbotlab bergan<sup>2</sup>. U kulohiy shakldagi gumbazli go'rxonadan iborat maqbaradir. Mazkur maqbara ozarbayjonlik usta-me'morlar tomonidan qurilgani taxmin qilinadi. U sakkaz ravoqli, tomonlari ochiq qilib qurilgan. Maqbaraning nomi ham shundan kelib chiqqan holda tadqiqotchilar tomonidan "sakkiz qirrali maqbara" deb nomlangan<sup>3</sup>. Sakkiz qirrali maqbaraning ravoqlari o'lchami 1 m, devori kengligi 1,2 m, qarama-qarshilikdagi ravoqlar oraliqi 3, 86 mni tashkil etadi. Maqbara devorlari tashqi tomoni ko'k rangli koshinburjlar hamda pishiq g'ishtli bezaklar bilan bezatilgan. Shuningdek, devorning tashqi bezaklari ichida mos ravishda ishlangan islimiy bezaklar ustunlik qiladi. Ichki me'moriy bezaklarida esa girih naqshlar orasi muqaddas Qur'on suralari va hadislar bitilgan epigrafik nashqlar bilan to'ldirilgan<sup>4</sup>.

Maqbarada XX asrning 40-yillarida arxeolog I.A.Terenojkin va arxitektor B.N.Zasipkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yodgorlikni o'rganishga doir harakatlar boshlangan. Buning natijasida maqbaraning sharqiy tomonidan unga kirish joyi (80 sm) va zinalar (birinchisi 17 sm, ikkinchisi 50 sm) aniqlangan. Yodgorlikning shimoliy va janubi-sharqiy devorlarini tiklash ishlari boshlangan<sup>5</sup>. 1950-yillarda esa yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlar tomonidan maqbaraning yemirilib ketgan gumbazi qayta tiklangan<sup>6</sup>. Unda to'rtta qabr toshlari mavjud bo'lib, ularning boy me'moriy bezaklari hukmdor oilasi vakillariga tegishli ekanligidan darak beradi.

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 219-220.

<sup>2</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 241-ish, 17 varaq.

<sup>3</sup> Вяткин В.Л. Памятники древности Самарканда... – С. 16.

<sup>4</sup> Batafsil qarang: Виноградов А.Н. Мавзолей Восмигранник в ансамбле Шахи-Зинда в Самарканде // Материалы ИТАУ. Вып. V. – Ташкент, 1950. – С. 4-13.

<sup>5</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 240-ish, 6-7-varaqlar; O'sha joyda. 269-ish, 6-varaq.

<sup>6</sup> Архив ГлавОПУ. 3.4.2/и.-4.5.1. Мавзолей Чучук-бека. Восмигранник. – Л. 5.

etgan. Muallif tomonidan ushbu me'moriy yodgorlikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir nechta foto-albomlar tayyorlangan<sup>1</sup>.

Samarqandning Registon maydonidagi **Mirzo Ulug'bek xonaqohi va karvonsaroyi** o'z davrida qo'sh imoratlardan tashkil topgan me'moriy majmuaning asosiy binolaridan bo'lgan. Mazkur majmuadagi madrasa madaniy-ma'rifiy nufuzi, diniy va dunyoviy ta'limdagi yuqori mavqei sabab, asrlar davomida xalq e'tibori markazida bo'lib keldi va hozirgi kungacha saqlanib qoldi. Ammo Registon maydonida Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan xonaqoh, karvonsaroy, masjid va hammom binolari buzilib ketgan. Keyingi davrlarda ularning o'rnida boshqa ulug'vor inshootlar qad rostlagan. Ya'ni, XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan Mirzo Ulug'bek xonaqohi poydevori o'rnida Sherdor madrasasini, majmuani shimoliy tomondan o'rab turuvchi karvonsaroy o'rnida esa Tillakori masjid-madrasasini bunyod ettirgan. Karvonsaroyning eski peshtoqi o'rnida butun maydon enini egallovchi ikki qavatli qanotlardan iborat va maydonga qaragan ulug'vor peshtoq ravog'i qad rostlagan. Binoning g'arbiy qismida masjid qurilib, uning mehrob joylashgan markaziy qismi ustida moviy gumbaz bunyod etilgan. Mazkur inshootlarning qurilishi bilan ulug'vor Registon me'moriy majmuasi butunligi qayta tiklangan<sup>2</sup>.

Samarqandning shimolida Obirahmat arig'i bo'yidagi Ko'hak tepaligida joylashgan **Mirzo Ulug'bek rasadxonasi** 1424-1428 yillarda bunyod etilgan. Abdurazzoq Samaqandiyning yozishicha, "Ilmu fanlar bo'yicha yetarli nasiba va to'liq sarmoya egasi bo'lgan Mirzo Ulug'bek... o'z bilimi nurlarini butun jahonga oftob shu'lasi yanglig' zohir qilishni, idrok yorug'ligini tuproq chuqurligidan eng yuqori falak gumbaziga yetkazishni, yulduzlar rasadi sadosini gardun gumbazi bo'ylab taratishni va bu ulug' ish tantanasini yer yuzida yangratishni istadi... Shu yili ma'qul va manqul ilmlar navlari bo'yicha kamolotga erishgan hazrat sultonzoada bir rasad tuzishga jazm qildi va qo'lidan shunday ish keladigan kishilarni jam qilib, rasad tuzishga mashg'ul bo'ldi<sup>3</sup>. [Bu sohada] yetuk kamolot hosil qilgach va asboblarni shaylagach, [Ulug'bek] rasad va ziyj tuzishga mayl qildi va

<sup>1</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1393-ish, 23 cypat; 1387-1388-ishlar, 25 tadan suratlar.

<sup>2</sup> Массон М.Е. Регистан и его медресе... – 30 с.; Ўролов А. Хожихонов М. Улугбек яратган маънавият... – Б. 46-48.

<sup>3</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн... – Б. 423.

masalaga oid loyihalari dastlab 1916 yilda tuzilgan bo'lishiga qaramay, madrasani chuqur o'rganish, minoralarni tiklash va ta'mirlash ishlari sovet davrida amalga oshirilgan<sup>1</sup>.

Samarqand me'moriy yodgorliklari taqdiriga bee'tibor bo'lmagan V.L.Vyatkin boshchiligidagi mutaxassislar guruhi 1918 yilda Mirzo Ulug'bek madrasasining peshtoqdan 2 mcha og'ib qolgan shimoli-sharqiy minorasini tiklash maqsadida arxitektor M.F.Mauerni hamkorlikda ishlashga taklif etgan. Mutaxassislarning ko'pchiligi, xususan, arxitektor B.N.Kastalskiyning fikriga ko'ra, minorani butunligicha tiklab bo'lmashligi va uni qayta qurish zarurligi ta'kidlab o'tilgan. Ammo o'z ishining ustasi bo'lgan arxitektor M.F.Mauerning qat'iy so'ziga ko'ra, mazkur minorani tiklash g'oyasi amalga oshirilgan. M.F.Mauer va professor N.A.Kuznetsovlarning loyihalariga ko'ra, 1919 yilda Ulug'bek madrasasining shimoli-sharqiy minorasini tiklash ishlari boshlangan. Mutaxassis olimlar, xususan, arxeologlar M.E.Masson va V.L.Vyatkin, arxitektorlar B.N.Zasipkin, mahalliy usta-me'mor Abduqodir Boqiyev va muhandislar V.G.Shuxov va M.E.Knorrelar tomonidan minora bir necha yillar davomida chuqur o'rganilgan. Mazkur me'moriy yodgorlikka jiddiy talafot yetkazmaslik maqsadida mutaxassislar, tiklash ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishgan<sup>2</sup>. Ya'ni 1926 yilda uni tutib turish uchun vaqtincha o'rnatilgan eski langarlar o'rniga yangilari o'rnatilgan. 1927 yilda minoraning tozalangan poydevori atrofida temir-beton halqa o'rnatilgan va o'rta qismiga V.G.Shuxov taklifiga asosan vint konstruksiyasi joylashtirilgan. Minoraning yuqori va o'rta qismida o'rnatilgan sun'iy poydevorga qo'sh rel'slar joylashtirilgan. 1932 yil yanvar oyida minora tiklangan va uning sirtqi qismini ta'mirlash ishlari boshlangan. Ulug'bek madrasasining vertikal holatdan 1,78 m og'ib qolgan janubi-sharqiy minorasini tiklash ishlari esa uzoq muddatli tadqiqotlardan so'ng, 1965 yil yanvarda boshlangan va shu yilning mart oyida tugatilgan. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, B.N.Zasipkin Registon maydonida joylashgan Mirzo Ulug'bek hamda Tillakori madrasalarining ichki va sirtqi bezaklarini, madrasa peshtoqi va bundagi jome' masjidini ta'mirlash ishlarida ham faol ishtirok

Ulug'bekning kichik o'g'li Abdulaziz Mirzo nomidan 1434–1435 yillarda asosiy peshtoq ortida to'rtburchak tarhli **chortoq** bunyod etilgan. U asrlar davomida qurilgan Shohi Zinda me'moriy majmuasining shakllanish jarayonini nihoyasiga yetkazgan. Bu yerda to'rtta ravoq o'zaro kesishib, gumbazning yigirma qirrali asosini shakllantirgan<sup>3</sup>.

Me'moriy majmuadagi bir-biriga yuzlanib turgan maqbaralar yuqori guruh inshootlaridan biri yo'lakning eng to'rida, majmuaning shimol tomonida XV asrning 60-yillarida bunyod etilgan **Xo'ja Ahmad maqbarasidir**. Mazkur maqbara dahmali murabba' shaklida qurilgan va uch tomondan ravoqlarga ega. Uning ichkarisi XII asr me'morchiligi an'analari asosida bezatilgan, ganch suvoqli. Gumbaz va ustunlari vayron bo'lgan. Old o'rtasidagi toqlari mustahkam peshtoqdan iborat. Uch chorakli ustunlarga tayangan cho'qqili gumbaz bilan hoshiyalangan. Maqbara ustunlari o'ziga xos cholg'u asbobisimon me'moriy bezaklar bilan bezatilgan. Tashqi guldastasi ikki ravoqni qamrab olgan. Peshtoq bezaklari sirlangan naqshli moviy sopol parchinlar bilan bezatilgan. Maqbara me'moriy bezaklari orasida epigrafik yozuvlar ham mavjud. Ular asosan suls va kufiy yozuvlarida bajarilgan. Bezakli yaproqlarning birida maqbara me'mori nomi bitilgan: "Amali usto Faxr Ali". Unda to'rtta sag'ana bo'lgan. Shuningdek, Shohi Zinda majmuasida keyingi asrlarda bunyod etilgan Davlat Qushbegi madrasasi (1813 yil), yozgi masjid binosi (1909–1910 yillar) ham mavjud<sup>2</sup>. Shohi Zinda majmuasi V.L.Vyatkin, M.E.Masson, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, V.A.Djaxangirova, B.N.Zasipkin, V.A.Shishkin, N.B.Nemtseva, Yu.Shvab, P.Sh.Zohidovlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

Temuriylar davrida me'moriy majmualarda bunyod etilgan maqbaralardan tashqari yakka tartibda qurilgan maqbaralar qurilishi

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темура ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 213-220.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 220.

<sup>3</sup> Бу ҳақда батафсил қаранг: Вяткин В.Л. Памятники древностей Самарканда... – 32 с.; Немцева Н.Б. Шахи-Зинда. – Ташкент, 1975. – С. 120-170; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – Москва, 1965. – 688 с.; Шишкин В.А. Надписи в ансамбле Шахи-Зинда... – С. 7-71; Зоҳидов П.Ш. Темура даврининг меъморий қаҳқашони... – Тошкент, 1996. – С. 170-175 ва бoшқaлар.

<sup>1</sup> Бу ҳақда батафсил қаранг: О'зМА R-1591-фонд, 2-ро'йҳат, 19-ish, 106 varaq.

<sup>2</sup> Массон М.Е. Падающей минарет... – 44 с.

ko'p uchraydi. Masalan, Samarqanddagi Ruhobod, Go'ri Amir, Ishratxona va boshqa maqbaralar shular jumlasidandir.

**Ruhobod maqbarasi** 1380 yilda Amir Temurning farmoniga asosan, mashhur din arbobi Shayx Burhoniddin Sog'ariy va uning avlodlari xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Shayx Burhoniddin Sog'ariy Makkai Mukarrama shahrida imom-xatiblik qilgan. Sharqiy Turkiston yerlarida Islom dinini targ'ib etgan. Keyinchalik u Xitoy malikasiga uylangan va Xitoyda olamdan o'tgan. Shayxning vafotidan so'ng uning farzandlari otasining hokini Samarqandga ko'chirib kelishgan va shu yerda dafn etishgan. Keyinchalik maqbaraga uning xotini va farzandlari ham (10 nafar) dafn etilgan. Ruhobod maqbarasi o'rta asrlardagi Samarqandning hashamatli va mahobatli me'moriy obidalaridan o'zining ixchamligi hamda oddiy qurilish uslubi bilan ajralib turadi. Bu yerda dabdabali sirlangan koshinlar va serhasham naqshlar yo'q. Lekin shunga qaramay, mutaxassislar ta'kidlab o'tishicha, XIV asrda rangin qayroqtoshlar to'shalgan shohona inshootlar majmuiga olib boruvchi tantanavor xiyobon yoqasida Burhoniddin Sog'ariy qabri joylashgan. Amir Temur davrida uning ustida ulug'vor va ixcham maqbara tiklangan. Avliyoning maqbarasi soya-salqin, xushbo'y hid taratuvchi bog' og'ushida joylashgan. Ushbu maqbara xalq orasida Ruhobod nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Maqbara ixcham va to'liq g'ishtin imorat bo'lib, faqat uning oldi qismida rangin koshinli bezaklar mavjud. Imorat usti asosiy o'qlari bo'yicha sakkiz qirraliklar joylashtirilgan konussimon gumbaz bilan yopilgan. O'yma eshiklari XIX asr boshlarida o'rnatilgan<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo me'morchiligida bir xonali maqbaralarning ikki ko'rinishi mavjud bo'lib, birinchisi misolida O'rta Osiyo va Eron me'morchiligi uchun azaldan yakka tartibdagi inshootlar uchun dasturamal bo'lib kelgan chortoq ko'rinishidagi binolarni ko'rsatib o'tish joiz. Bu usul islom tarqalguncha otashparastlar ehromlari – otashkadalar qurilishida keng qo'llanilgan. IX–X asrlarda mana shunday kompozitsiya qo'llanilganligini Somoniylar maqbarasi barpo etilishida ham ko'rish mumkin<sup>2</sup>. Temuriylar davrida esa endi u chortoq sifatida emas, balki, asosiy xususiyatlarini saqlagan holda maqbara qurilishlarida qo'llanilgan. Jumladan, Ruhobod maqbara shu usulda quril-

ma'muriya (boshqaruvga oid fanlar) va ulumi harbiya (harbiy mahoratga oid bilimlar) fan sohalaridan ma'ruzalar o'qilgan<sup>1</sup>.

Mazkur inshootning me'moriy yechimi yuksak mahoratdan darak beradi. Loyiha muallifi Shohrux Mirzoning saroy me'mori Qavomiddin Sheroziydir. Madrasa o'z mahobati bilan (81x51 m, hovli 30x30 m) Sohibqiron Amir Temur davridagi inshootlardan qolishmaydi. U Registon maydoniga qaragan mahobatli peshtoq, tepasi keng toqli ravoq, ikki chetida baland guldasta va ularni birlashtirib turuvchi devor ichki tomonidan gumbaz tomli ikki darsxonadan iborat. Minoralar cho'qqisi muqarnas sharafalar, peshtoqning tashqi va ichki sirti turli hajmli girih naqshlar bilan bezatilgan. Xususan, moviy va yashil koshin hamda sopol g'ishtlardan ishlangan geometrik, epigrafik hamda samoviy jismlar shaklidagi bezaklar bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. Jumladan, madrasa peshtoqni bezatib turgan lojuvard koshinli, yulduz shaklidagi bezaklar hamda turli xil girih va islamiy naqshlar uyg'unligida ishlangan namoyon bunga misol bo'ladi. Shuningdek, kirish ravoqidagi muqarnas karniz uning ko'rkiga ko'rk qo'shib turadi. Madrasaning ichki qismida joylashgan darsxona kirish ayvoni ravoqlari, tashqi bezaklari va muqarnas karnizi asosiy peshtoq bezaklariga hamohang ishlangan<sup>2</sup>. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu davr madrasalari yagona reja asosida qurilgan bo'lsa-da, bir-biridan qurilish hajmi va bezaklari bilan farq qiladi. Misol uchun, Temuriylar davri me'morchilik san'atining ikki noyob durdonasi Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek va Hirotidagi Gavharshodbegim madrasalarining me'moriy bezaklaridagi farqlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ya'ni Hirot madrasasi me'moriy bezaklarida islamiy va epigrafik (gullar va kitobalar) bezaklar ustunlik qilsa, Samarqand madrasasida samoviy (yulduzsimon va quyosh nurlari ko'rinishidagi bezaklar) va girih naqshlar ko'proq qo'llanilgan. Bir qarashdayoq ko'zga tashlanadigan ushbu farqlar inshoot me'mori hamda uning buyurtmachisi xohish-istaklari, qiziqishlari va tafakkurini o'zida aks ettiradi. Mirzo Ulug'bek madrasasi XIX asr oxiri–XX asr boshlarida bo'lib o'tgan zilzilalar va boshqa tashqi ta'sirlar natijasida jiddiy zarar ko'rgan. Ya'ni, uning ikki minorasi (og'irligi 800 t, balandligi 36 m) yon tarafga sezilarli darajada og'ib qolgan. Ushbu minoralarni tiklash maqsadida boshlangan tadqiqotlar rahbari V.L. Vyatkinning mazkur

<sup>1</sup> Зоҳидов П.Ш. Темур даврининг меъморий қаҳқашони... – Б. 39.

<sup>2</sup> Аҳмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 35.

<sup>1</sup> Махмудов Т.И. Темурийлар даври таълим тизими тарихи... – Б. 17.

<sup>2</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 130-ish, 4-varaq.

**madrasasi** 1417–1420 yillarda bunyod etilgan. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" nomli asarida mazkur madrasa va uning muqobilida bunyod etilgan xonaqohga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Samarqand shaharining ichida, shaharning o'rtasida va [shahar] maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sarduatik deb ataladigan mavzeda [Ulug'bek] bir-biriga ro'baro' madrasa va xonaqoh bino qilib, bu ikki maqomni qurib tamomlash borasida bir necha yil davomida say-harakatlar ko'rsatdi. Ularning balanligi va bezaklari baland osmonning g'ashini va Chin suratxonasining rashkini keltirar, binolarning mustahkamligi va ustunlarining nozikligi bilan Haramon hay'ati va tav'aman suratini eslatar edi. Haqiqatdan ham u ikki imoratning latofatini yozuv qalami va bayon raqami bilan tasvirlash mumkin emas"<sup>1</sup>. Dastlab bu madrasada 50 ta hujra bo'lib, unda 100 dan ortiq talaba yashagan. Bu yerda diniy bilimlardan tashqari matematika, astronomiya, falsafa, tarix kabi dunyoviy fanlar ham chuqur o'qitilgan. Madrasalarning oliy ta'lim darajasiga ko'tarilishi Mirzo Ulug'bek davriga to'g'ri keladi. Mirzo ulug'bek tomonidan bunyod etilgan madrasalar, xususan, Samarqanddagi madrasa – madrasai oliya, ya'ni o'z davrining yetakchi ta'lim muassasasi, universitet hisoblangan. Madrasada Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi, Muhammad Havo-fiy, Mavlono Isomiddin, Mavlono Xoja Xurd va boshqalar mudarrislik qilishgan<sup>2</sup>. Manbalarda keltirilishicha, madrasada matematika va falakiyot fanlaridan Mirzo Ulug'bekning o'zi ma'ruza qilgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mashhur allomalar ham shu yerda tahsil olgan. Mirzo Ulug'bekning fan-ta'lim dasturi faqatgina Samarqand bilan chegaralanib qolmagan va unda butun Movarounnahr hududida ilmiy salohiyatni ko'tarishdek katta g'oya ko'zda tutilgan<sup>3</sup>. U ana shu maqsadda Samarqanddan tashqari Buxoro va G'ijduvonda ham madrasalar qurdirgan. Mirzo Ulug'bek madrasalarida diniy va dunyoviy bilimlardan tashqari, davlat ma'muriyatida xizmat qiluvchi, elchilik ishlari bilan shug'ullanuvchi va lashkarboshilar ham tayyorlangan. Shundan kelib chiqqan holda ba'zi madrasalarda ixtisosligiga ko'ra, ulumi aqliya (Qur'an, hadis, fikh, tasavvuf), ulumi

gan. Uning asosiy qismi kub shaklida bo'lib, ikki kompozitsion o'q chiziqlarining kesishgan joyi gumbaz markazini tashkil etadi. Xona-ning to'rt burchagida tiklangan toqlar sakkiz burchakli shaklni tashkil etsa, ularning burchaklariga yana toqlar qurilib, bino o'n olti va undan so'ng o'ttiz ikki burchak holiga keltirilgan va usti gumbaz bilan yopilgan<sup>1</sup>. Maqbara yonida yozgi masjid joylashgan. Uning me'moriy bezaklarida sharqiy Turkiston me'morchiligi an'alarini ko'rish mumkin. Mazkur tarixiy yodgorlik XX asr boshlaridayoq rus tad-qiqotchi olimlari tomonidan o'rganila boshlangan<sup>2</sup>.

Amir Temur davrida bunyod etilgan **Xo'ja Doniyor maqbarasi** yakka xonali ixcham xilxona, kichik ayvon va masjiddan iborat bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur Kichik Osiyoga yurishi davrida kuchli qo'shinga ega bo'lganiga qaramay, Mosul shahrini zabt eta olmagan. U buning sababini surishtirganda, shahar yaqinida Doniyor payg'ambar qabri mavjudligi va uning ruhi bu shaharni barcha ofatlardan saqlashi haqidagi afsonani so'zlab berishgan. Amir Temur Doniyor payg'ambar qabrini ziyorat qilib, qurbonliklar keltirgandan so'ng Mosul shahrini egallashga muvaffaq bo'lgan. Shundan so'ng, u Samarqandni barcha balo-qazolardan saqlasin, degan maqsadda Doniyor payg'ambar xokini bu yerga ko'chirib kelgan va Obi Rahmat yaqiniga dafn ettirgan. Doniyor payg'ambar qabri usti dastlab daryo toshlari bilan mustahkamlangan. Uning yonida kichik masjid va ayvon bunyod etilgan. Keyinchalik esa qabr ustida bir xonali, ixcham, cho'zinchoq tarhli, besh gumbazli maqbara qurilgan. Xilxona binosining eni – 5,77 m, uzunligi – 21 m, balandligi – 4,80 m dan iborat<sup>3</sup>. Dastlab ushbu maqbara atrofida avliyolar belgisi hisoblangan 6 ta tug' maxsus toshlarga o'rnatilgan<sup>4</sup>. Hozirda ulardan bittasi saqlangan. Me'moriy yodgorlik supasida 650 yoshli pista daraxti o'smoqda. Shuningdek, maqbara yaqinida shifobaxsh chashma mavjud. Uning usti gumbazli chortoq bilan yopilgan. Doniyor payg'ambar nomi bilan atalgan ushbu maqbara islom, xrestian va yahudiy dini vakillari tomonidan birdek qadrlanadi.

**Cho'ponota maqbarasi** mahalliy xalq orasidagi rivoyatlarga ko'ra, Samarqandning Ko'hak tepaligida joylashgan. Ushbu me'moriy

<sup>1</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн... – Б. 421.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Маҷолис ан-нафоис... – Б. 182.

<sup>3</sup> Махмудов Т.И. Темирийлар даври таълим тизими тарихи.: Тарих фанлари бўйича PhD автореферати. – Б. 14-15.

<sup>1</sup> Ахмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 55-56.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: O'zMA P-2406-fond, 1-ro'yhat, 64-ish. 28 varaq.

<sup>3</sup> Архив ГлавОПУ. 3.4.12-4.5.1. Мавзолей Ходжа Данияра. Паспорт 57.

<sup>4</sup> Хожа Дониёр мақбараси. – Самарқанд, 2018. – Б. 3-5.

yodgorlik nomi cho'ponlarning piri bo'lmish Cho'ponota bilan bog'liq. XIX asrning so'ngi choragida Samarqandga tashrif bo'yurgan Yu.Skayler mahalliy xalq orasidagi rivoyatlarga asoslangan holda, ushbu maqbara haqida quyidagicha ma'lumot bergan: "... Cho'ponota deb nomlanganyalang tepalik yuqorisida shu nomli avliyoning qabri bo'lib, u cho'ponlar, shuningdek, Samarqand shahrining homiysi sanaladi"<sup>1</sup>. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, bu yerdan topilgan moddiy topilmalar uning tuzilishi, qurilishi va bezaklari XV asrning 30–40-yillariga, ya'ni Ulug'bek davriga mansubligini isbotlaydi. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu yodgorlik to'g'risida ham bir qancha munozarali fikrlar bildirilgan. Xususan, bir guruh olimlar tomonidan "Ulug'bek singari ovga ishqiboz hukmdorlar ovdan qaytishda shahar manzaralarini tomosha qilib, dam olish uchun qurdirgan shiypon bo'lgan", degan fikr ilgari surilgan. Boshqa bir guruh olimlar esa ushbu inshoot maqbara bo'lganligini ta'kidlab o'tishgan. Cho'ponota tepaligida joylashgan Temuriylar davriga oid ushbu inshoot keyingi asrlar davomida diniy-me'moriy ahamiyat kasb etgan. Samarqand yodgorliklarining o'ziga xos tomonlarini o'zida aks ettiruvchi ushbu yodgorlikning shakli nafis, bezaklari sodda ko'rinishga ega<sup>2</sup>. Samarqand tashqarisidagi Cho'ponota maqbarasi Temuriylar davrida me'morchiligida keng qo'llanilgan bir xonali maqbaralar usulida barpo etilgan. Ammo uning konstruktiv jihatdan ko'rinishi nisbatan Amir Temur davri maqbaralaridan farqli bo'lib, kub shaklidagi asosiy bino hajmi xonaning ichki burchaklarida o'zaro kesishgan to'rt toq vositasida yopilgan. O'rtadagi chog'roq ochiq joyi yassi gumbaz bilan to'silgan. Uning ustiga esa baland baraban (aylana devor) ko'tarilgan bo'lib, usti avval qubbali gumbaz keyin koshinli gumbaz bilan qoplangan. Toshkentdagi Qaldirg'ochbiy obidasidagi va Shohi Zindadagi sakkiz burchakli maqbaralar tarhining tuzilishi ham chortoq kompozitsiyasining hosilasi deb qaralsa bo'ladi<sup>3</sup>.

**Ishratxona** Temuriylar davri yodgorliklaridan yana biri. Manbalarda Ashratxona nomi bilan ham keladi. Ashratxona arabcha "ashr" o'n so'zidan olingan bo'lib, o'nta xonali maqbara degan ma'noni bildiradi. Bir guruh tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Ishratxona nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu me'moriy yodgorlik Abu Said Mirzo

tarhiga ko'ra markazga kirish eshigi bo'lgan to'g'ri burchakli (21,3x12,5 m) shaklga ega, uning o'qi bo'ylab sajda ravoqi – mehrob ko'tarilgan. Tomi ark tayanchi ustida turgan baland bo'lmagan 16 qirrali qalqonsimon yelkanli asosga ega gumbazlar bilan yopilgan. Bir-birini kesib o'tuvchi arklarga tayanuvchi markaziy gumbaz boshqalariga nisbatan baland joylashgan<sup>1</sup>. Masjidning kompozitsion xususiyatlari milliy me'morchilikning mo'g'ullar istilosidan avvalgi an'alarini ham o'zida aks ettiradi, shuningdek, me'moriy yechimlari jihatidan Temuriylar davridan keyingi davr me'morchiligining namunalari ham o'xshashligi mavjud (Buxorodagi Namozgoh (XII asr) va Qarshidagi Namozgohlarga (XVI asr) o'xshashligi bor)<sup>2</sup>. B.Aminovning ta'kidlab o'tishicha, qabrtosh bitiklaridagi yozuvlarga ko'ra, bu yer ishqiya shayxlarining dafn qilinadigan joyi bo'lgan... Hozirgi vaqtda yodgorlikda, maqbara ichida va tashqarisida 20 ga yaqin qabrtoshlar mavjud. Ularning ayrimlari o'rganilgan va qolganlari ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda<sup>3</sup>.

Amir Temur davrida Samarqand **Registoni savdo majmuasi** hisoblangan. Bu yerda Toqi telpakfurushon nomli bosh kiyimlar sotiladigan savdo rastalari mavjud bo'lgan. Registon maydonida Mirzo Ulug'bek tomonidan o'rta asrlar Sharq me'morchiligida keng qo'llanilgan "qo'sh" uslubidagi dastlabki me'moriy majmua bunyod etilgan. Mazkur me'moriy majmua Mirzo Ulug'bek tomonidan madrasa va masjid, xonaqoh (hozirgi Sherdor madrasasi o'rnida), karvonsaroy (hozirgi Tillakori madrasasi o'rnida) va hammom qurilgan. Me'moriy majmua inshootlari mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, serhasham bezaklar bilan bezatilgan<sup>4</sup>.

Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan me'moriy inshootlar o'zining betakror ko'rinishi, bezaklari, mahobati va ularga ilm ahli tomonidan bildirilgan e'tibor bilan ajralib turgan. Registon maydonining g'arbiy qismida joylashgan **Mirzo Ulug'bek**

<sup>1</sup> Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 24.

<sup>2</sup> Пугаченкова Г.А. Неизвестные архитектурные памятники... – С. 72.

<sup>3</sup> Bu haqida batafsil qarang: Muhammad Boqir. Tazkirai Muhammad Boqir. O'zR FASHI qo'lyozmasi, №1846. 168b varaq; Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. T. 17. – Toshkent, 2001. – B. 424; Valixodjaev B. Xodja Ahror tarixi: Samarqand va samarqandliklar. – Toshkent, 1994. – B. 92; Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – Б. 23-25.

<sup>4</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 151.

<sup>1</sup> Скайлер Ю. Туркестан... – Б. 178.

<sup>2</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1381-ish, 14 rasm.

<sup>3</sup> Ахмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 56.

(1324/1906) borligi aytib o'tilgan<sup>1</sup>. Keyinchalik ushbu yodgorlikda tadqiqot olib borgan L.Yu.Man'kovskaya ma'lumotiga ko'ra esa, "Ostona ota masjidi va maqbarasi joylashgan qabriston maydoni nishabliklar hamda tepaliklardan iborat. Yodgorlikning o'rganilgan davrdagi saqlanganlik holati o'rtacha. Mazkur me'moriy inshootning asosiy binosi hisoblangan masjid devorlari ganchli qorishma asosida terilgan 26x5-6 sm hajdagi pishiq g'ishtdan qurilgan. Uzoq muddat e'tibordan chetda qolgan yodgorlik yon devorlarida yemirilish holatlari va yoriqlar mavjud, poydevori chuqur o'rganilmagan. Asosiy peshtoq pishiq g'ishtdan terilgan me'moriy bezakka ega. G'ishtin gumbazida tarnov yo'li rejalashtirilmagani sabab, yog'ingarchilik natijasida to'plangan suv oqimi natijasida qisman buzilgani va 1906 yilda gumbaz qismi va bosh bino devorlarida dastlabki bor ganchli qorishma asosida ta'mirlash ishlari olib borilgani yozib qoldirilgan"<sup>2</sup>.

XX asr oxirlarida ushbu me'moriy yodgorlikda tadqiqot olib borgan tadqiqotchi-olim B.Bobojonov tomonidan nashr ettirilgan ilmiy maqolada yodgorlikning epigrafik bezaklarining o'ziga xos tomonlari yoritib berilgan. Buning natijasida tasavvuf tariqatining nomi, bu yerda dafn etilgan shayxlar ismlari, vafot etgan sanalari aniqlangan<sup>3</sup>. XXI asr boshlarida esa mazkur yodgorlik va uning atrofida mavjud qabrtosh bitiklari B.Aminov tomonidan o'rganilgan. Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, qishloqqa kirish joyida avvalo ishqiya shayxlarinig maqbarasi ko'za tashlanadi. Hozirgi payta ham maqbaraning holati bir oz qoniqli, ammo devorlari va tomlarini ta'mirlash va konservatsiya qilish zarurligi seziladi. Ostona ota maqbarasi pishiq g'ishtdan inshoot etilgan, tarhiga ko'ra kvadrat shaklli (tashqi tomondan o'lchamlari 7,5x7,5 m) tomi esa uncha baland bo'lmagan ko'pqirrali gardish (baraban) ustida joylashgan sferokonik gumbaz bilan yopilgan<sup>4</sup>.

Yodgorlikdagi masjidning bezatilishi juda oddiy. Masjid Makka tarafga qaratilgan peshtoqli-gumbazli imorat. Masjidning binosi

(1451-1469) hukmronlik qilgan davrga taalluqli ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Xususan, arxeolog V.A.Vyatkin tomonidan 1896 yilda topilgan vaqf yorlig'ida bu inshootni Sulton Ahmad Mirzoning xotini Xabiba Sultonbegim o'z qaynisinglisi, o'sha paytdagi hukmdor Abu Saidning qizi, bevaqt hazon bo'lgan Xovand Sultonbegim xotirasiga qurdirgan, deb yozilgan. Ammo Ishratxona yodgorligida amalga oshirilgan uzoq yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida mazkur inshoot Amir Temurning Samarqand shahri atrofida bunyod etgan so'lim bog'laridan biri – Bog'i Dilkusho ekani aniqlangan<sup>1</sup>. Tarixiy manbalar hamda ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining qiyosiy tahlili asosida mazkur yodgorlik Amir Temur tomonidan Samarqand atrofida bunyod etilgan so'lim bog'lardan ba'zilar keyinchalik Temuriylar sulolasi vakillari, xususan, hukmdor oilasiga mansub ayollar va bevaqt vafot etgan bolalar dafn etilgan maqbaraga aylantirilgan. Shu jumladan, Bog'i Dilkushoda temuriy malikalar, jumladan, Abu Said Mirzoning qizi Xovand Sultonbegim va voyaga yetmasdan vafot etgan temuriy shahzodalar dafn etila boshlagandan so'ng, maqbara sifitida qo'llanila boshlangan, degan xulosaga kelish mumkin. 1940 yilda mazkur yodgorlikda profes-sor M.E.Masson tomonidan olib borilgan tekshiruv ishlari natijasida maqbaraning asosiy binosi ostida sakkiz qirrali sag'ana ochib o'rganilganda, ayollar va bolalar suyaklari borligi aniqlangan. Ushbu muallif ham maqbarada Temuriylarning avlodlaridan bo'lgan xotin-qizlar va bolalar dafn etilgan, degan fikrni tasdiqlaydi. Bir necha binoni o'z ichiga olgan ushbu maqbara majmuasi o'ziga xos qurilish uslubi, ko'rinish va me'moriy bezaklarga ega. Uning markazida sag'ana joylashgan bo'lib, g'arb tomondan baland ravoq bilan to'silgan. Binoning janubida gumbazli ravoqlar qatori mavjud. Mazkur yo'nalish orqali sag'anaga kirish uchun qo'shimcha yo'l qurilgan. Shimol tomonda masjid, bino burchaklarida xo'jalik xonalari va hujralar ham bo'lgan. Tashqi devorlarga silliq pishiq g'ishtdan o'ziga xos bezaklar berilgan. Devorlarning ba'zi joylari nafis moviy koshin va rangli sopol bo'laklar bilan bezatilgan. Asrlar davomida ko'rk to'kib turgan ushbu yodgorlik XIX asr oxiri–XX asr boshlarida bo'lib o'tgan zilzilalar sabab qattiq shikastlangan va vayronaga aylangan. Ya'ni maqbara gumbazi

<sup>1</sup> Пугаченкова Г.А. Неизвестные архитектурные памятники горных районов Узбекистана /Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1965. – С. 70.

<sup>2</sup> Архив Глав ОПУ. д. 3.4.–4.3. – Л. 6.

<sup>3</sup> Бабажанов Б. Эпиграфические памятники мусульманских мазаров как источник по истории суфизма (на примере мазаров Астана ата и Катта Лангар) // Из истории суфизма: источники и социальная практика. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 90.

<sup>4</sup> Хамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 148-151.

<sup>1</sup> Захидов П.Ш. Великий кёшк Дилкушо... – 143 с.

qulab tushgan, devorlari sirtidagi naqshinkor tillakori bezaklari to'kilib ketgan<sup>1</sup>.

Samarqanddagi **Oqsaroy maqbarasining** qurilishi XV asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Ammo oxiriga yetkazilmay qolgan. Ushbu maqbara vayronalari Go'ri Amir maqbarasi yaqinida joylashgan. Oqsaroyning qurilish rejasi Ishratxonanikiga juda yaqin, ayniqsa gumbazlar konstruksiyasi deyarli bir xil. Ichki va tashqi tomondan aylana asosga ega gumbazlar to'rtta kesishgan ravoq ustiga qo'yilgan. Maqbaraning janub tomonida ikki qavatli gumbazli ayvon taqab qurilgan. Mutaxassislarning ta'kidlab o'tishicha, to'rtta kesishgan ravoqli gumbazga ega inshootlar ustini yopish uning asosini mustahkamlovchi me'moriy qurilma-ikki qavatli taqab qurilgan qo'shimcha binolar qurilishini talab etgan. Xuddi shunday qurilish uslubi Ishratxona va Oqsaroy maqbaralari qurilishida ham qo'llanilgan. Har ikkala maqbaraning me'moriy bezatilish uslubi ham deyarli bir xil. Ammo bezaklar turida qisman farqlar mavjud. Bu ularning saqlanib qolgan qismidagi o'ziga xos bezaklarda yaqqol namoyon bo'ladi<sup>2</sup>. Mazkur maqbaralarning har ikkisida ham "kundal" me'moriy bezak turi keng qo'llanilgan. Ushbu bezak turi XV asrning ikkinchi yarmida o'ziga xos uslubda amalga oshirilgan. XIV asr oxiri-XV asr boshlaridagi ko'rinishidan ishlanish texnikasi bilan farq qiladi. Yodgorlikning ichki bezaklari hoshiya orqali ikki qism: gumbaz asosidan boshlangan yuqori va bino ichki devori bezagi asosini tashkil etgan pastki qismdan iborat. Ushbu ikki maqbara bezaklaridagi ayrim farqlarga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: Ishratxona ichki bezaklari moviy sopol taxtachalariga yorqin tilla rangda bitilgan islmiy bezaklardan iborat. Oqsaroy bezaklari handasaviy bezaklar orasida aks etgan guldondagi guldastalar ko'rinishidagi nafis bezaklarni o'zida aks ettirgan sopol parchinlardan tashkil topgandir. Oqsaroy maqbarasining hoshiya bezaklari keng belbog' ko'rinishida. Binoning panjara ko'rinishidagi oynavand keng derazalari bino bezaklariga ko'rk qo'shadi. Marmar pol va panjaralar yodgorlikning markaz qismida joylashgan xilxona qismini ajratib turadi. Ular maqbara ichki bezaklarining o'ziga xos qismini tashkil etadi. Maqbara ichki bezaklari mash-

hur Bibixonim va Go'ri Amir maqbaralari bezaklaridan qolishmaydi<sup>1</sup>. Oqsaroy maqbarasi qurilishi tugallanmagan va shu sabab uning tashqi bezaklari ham to'liq emas. Mazkur maqbara XX asrning birinchi yarmida B.N. Zasiptkin tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Maqbara tarixiga oid qiziqarli faktik ma'lumotlar muallif tomonidan nashr ettirilgan ilmiy ishlarda o'z aksini topgan<sup>2</sup>.

**Ostona ota masjidi va maqbarasi** Samarqand viloyatining Nurobod tumanida joylashgan Ostona ota qishlog'idagi qabristonda joylashgan. Qishloqqa Zirabuloq tog'lari markazi sanalgan Ingichka shaharchasidan o'tgan yo'l orqali boriladi. Ostona ota masjidi va maqbarasi O'zSSR MV huzuridagi Bosh boshqarma (hozirgi O'zR TMMV huzuridagi Madaniy meros agentligi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida XX asr boshida aniqlanib, shu asrning 60-yillarida O'zSSR moddiy madaniyat yodgorliklarining muhofaza etiladigan me'moriy yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan<sup>3</sup>. Ostona ota masjid va maqbarasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida, xususan, me'moriy qurilmaning arxeologik ma'lumotlari, yodgorlikning umumiy qurilish uslubi Temuriylar davri me'morchiligiga xosligi aniqlangan.

Ostona ota me'moriy yodgorligini ilk bor chuqur tadqiq etgan olim G.A.Pugachenkovadir. U 1988 yili O'zR MV huzuridagi O'zbek ilmiy-tadqiqot va loyihalash institutining arxeologik-me'moriy yodgorliklarini kompleks o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarida ishtirok etib, mazkur yodgorlik haqidagi qiziqarli ma'lumotni ilmiy muomalaga kiritgan. Xususan, imoratlarni qurishda asosan 24,25x24,25 sm, qalinligi 5,5-6 sm bo'lgan pishiq g'ishtdan foydalanilgani, uning tashqi bezagida ham shu g'isht ishlatilgani, binoning yuza qismi yuqoriga ko'tarilib boruvchi mehrobsimon arkali peshtoq bo'lib, janub tomonga qaratib qurilgani haqida ma'lumot berib o'tgan. Ostona ota masjid va maqbarasining epigrafik naqshlaridagi yozuvlarda yodgorlikni nomlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar aniqlangan. Shuningdek, olim tomonidan mazkur masalaga bag'ishlab chop ettirilgan maqolada bosh binoning ganch bilan suvalgan qismidagi yozuvlarda yodgorlikda XX asr boshlarida olib borilgan revtavratsiya ishlari haqidagi ma'lumotlar saqlanganligi haqida ma'lumotlar

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 230-232.

<sup>2</sup> Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии... – С. 106-107.

<sup>1</sup> Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии... – Б. 109.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 110.

<sup>3</sup> Архив Глав ОПУ. д. 3.4.– 4.3. – Л. 1-6.

inshootlaridan bo'lib, ularni qurishda nafaqat mahalliy me'morlar balki u zabt etgan barcha hududlardan ko'chirib olib kelingan usta hunarmandlar mahorati aks etgani shubhasizdir. Ushbu saroylar bizgacha to'liq shaklu ko'rinishini saqlagan holda yetib kelmagan. Ammo ulardan qolgan vayronalar va qoldiqlarni tadqiq etish natijasida topilgan moddiy manbalar ushbu saroylar to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ma'lumki, mazkur davr me'moriy obidalarida nafaqat ulkan hajmi, balki boy me'moriy bezaklari bilan ham mashhurdir. Shubhasiz, Amir Temur saroylari ham ushbu me'moriy merosning ajralmas qismi bo'lib, bu kabi nodir namunalar Amir Temur va Temuriylar davridan oldin ham yoki keyin ham uchramaydi.

**Dor ut-tilovat me'moriy majmuasi** XIV asr oxiri–XV asr boshlarida bunyod etilgan<sup>1</sup>. U Ko'k gumbaz masjidi, Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon mozori masjidini o'z ichiga olgan. Dor ut-tilovatning umumiy maydoni 500X500 m bo'lib, kvadrat shaklidadir. Shahrisabz shahrining janubi-sharqiy qismida joylashgan mazkur me'moriy majmuaning dastlabki shakllanish bosqichi XI–XII asrlarga borib taqaladi<sup>2</sup>. Amir Temur davrida avval vayron etilgan obidalar o'rnida Ko'k Gumbaz masjidi va Shayx Shamsiddin Kulol mozori ustida maqbara bunyod etgan.

Sohibqiron Amir Temurning ona shahri Kesh va unda bunyod etilgan mahobatli inshootlar xususida uning ulug'vorligiga guvoh bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixo quyidagilarni keltirib o'tgan: "Kesh hamma yog'idan sug'orish inshootlari kesib o'tgan, daraxtlar bilan qoplangan yashil tekislikda joylashgan... Shahar tuproq devor bilan o'ralgan va chuqur handaq (qurshagan), darvozalari oldida esa osma ko'priklar bor edi... Bu yerda uylar va masjidlar ko'p. Ayniqsa, bittasining qurilishiga Temurbek buyruq bergan edi, ammo uning qurilishi bitmagan. Unda katta dahma bo'lib, bu yerda uning otasi ko'milgan edi"<sup>3</sup>. Klavixo "Katta qabriston" deb atagan ushbu me'moriy majmua keyinchalik xalq orasida Dor ut-tilovat degan nom bilan mashhur bo'lgan. Mirzo Ulug'bek davrida Ko'k Gumbaz masjidining bitmay qolgan qismlarida qurilish ishlari davom ettirilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida Dor ut-Tilovat me'moriy majmuasi ham bir qator inshootlar bilan to'ldirilgan. Xususan, Amir Temur davrida

radiusi 41 mli gigant kvadrant (astronomik qurilma) bo'lgan. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida joylashgan bo'lib, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 m baland bo'lgan. Keyinchalik rasadxona vayronaga aylangan.

1908 yilda V.L.Vyatkin va Abu Sa'id Mahzumlar tomonidan "Boburnoma" va "Samariya" kabi tarixiy asarlar hamda vaqf hujjatlarini o'rganilishi asosida rasadxonaning joylashgan o'рни topilgan. Rasadxonada 1908–1909 yillarda arxeologik qazish ishlari olib borib, tadqiqotlar natijasida, yer ostida marmardan yasalgan ikkita parallel yoy, meridian radiusi 41 m ga teng bo'lgan kvadrantning bir bo'lari topilgan<sup>1</sup>.

Mazkur tarixiy yodgorlik 1946–1948 yillarda O'zSSR FA Tarix va arxeologiya instituti xodimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Sovet davrida ushbu yodgorlikni o'rgangan olimlar sirasiga V.V.Bartol'd, M.E.Masson, T.N.Qori-Niyoziy, G.D.Djalalov, V.A.Shishkin, Ya.G'.G'ulomov, Yu.F.Buryakov, G.A.Pugachenkova, Yu.I.Alekserov, M.S.Bulatovlarni kiritib o'tish mumkin<sup>2</sup>. Xususan, 1943–1944 yillarda akademik T.N.Qori-Niyoziy iltimosi bilan Mirzo Ulug'bek rasadxonasini tiklash masalasi yuzasidan arxitektori B.N.Zasipkin tomonidan loyiha ishlab chiqilgan. U 1943 yilda Amir Temur maqbarasi va unda dafn etilgan tarixiy shaxslar haqidagi qadimiy ma'lumotlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan arxeologik qazishmalarga ham rahbarlik qilgan. Mazkur masala yuzasidan tuzilgan Davlat komissiyasi a'zolari orasida arxeolog V.A.Shishkin, antropolog M.M.Gerasimov, sharqshunos va yozuvchi S.Ayniy, arxeolog Ya.G'.G'ulomov, folklorist Hodi Zariflar hamkor edi. Sovet davrida Mirzo Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan

<sup>1</sup> Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирза Улугбека в 1908 и 1909 годах. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1912, – 17 с.; О'sha muallif. Мирзо Улугбек и его обсерватория... – С. 6-8.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: Бартольд В.В. Улугбек и его время... – 188 с.; Массон М.Е. Обсерватория Улугбека... – 48 с.; Кари Ниёзий Т.Н., Джалалов Г.Д. "Обсерватория Улугбека в свете новых данных"... – С.127-136; Шишкин В.А. Самаркандская обсерватория Улугбека // Из истории эпохи Улугбека. – С. 200-226; Гулямов Я.Г., Буряков Ю.Ф. К планировке обсерватории Улугбека // Общественные науки в Узбекистане, 1968. – №2. – С. 69-71; Пугаченкова Г.А. Архитектура обсерватории Улугбека // Искусства зодчих Узбекистана. – С. 107-131; Булатов М.С. Обсерватория Улугбека в Самарканде... – С. 199-216.

<sup>1</sup> Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 104.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 105.

<sup>3</sup> Клавиho. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура... – С. 102.

ilmiy tadqiqotlar yuzasidan jamlangan hujjatlar O'zbekiston Milliy arxivida saqlanmoqda<sup>1</sup>.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek merosini o'rganish va e'tirof etish yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1994 yilda O'zbekistonda va Parijdagi YuNESKO qarorgohida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi katta tantanalar bilan nishonlandi. 2009 yilning BMT tomonidan "Astronomiya yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Mirzo Ulug'bek tavalludining 615 yilligi Samarqandda va Parijda keng nishonlandi. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Shu jumladan, mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar arxitektura sohasi mutaxassislari M.Q.Ahmedov, A.S.O'rolov, M.Xojixonov va T.Mamatmusayevlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan<sup>2</sup>. Shuningdek, rasadxona to'g'risida D.Yu.Yusupova, A.A.Ahmedov va boshqalarning ilmiy ishlarida qimmatli tarixiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>3</sup>.

**Poytaxt shahar markazi** – Registon maydonidan darvozalarga asosiy ko'chalar qurilgan. 1404 yili Samarqandga qaytgan Amir Temur shaharning asosiy ko'chalarini qayta qurib, tuzatish va kengaytirishga farmon bergan. Bunga uning Sharqiy Yevropa bo'ylab yurishlarida ko'rgan ko'cha qurilishiga oid manzaralar asos bo'lgan bo'lsa ajab emas. Klavix shahar ko'chalari qurilishini shunday tasvirlaydi: "... Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa joylardan olib kelinuvchi va shu (Samarqand) zaminning o'zida tayyorlanuvchi ko'p (va xilma-xil) tovarlar sotiladi. Biroq shaharda savdo qilishga qulay bo'lgan maxsus maydon yo'qligi sababli senyor shahar bo'ylab ikki tomonda savdo qilish uchun do'kon va chodirlari

yerda asosiy bozor – **Chorsu** joylashgan. Hozirgacha saqlanib qolgan Chorsu bozori esa ancha keyinroq qurilgan va markazdan chetroqda joylashgan. Hisorning janubi-sharqida Oqsaroy bunyod etilgan. Uning qarshisida esa aslzodalar va din peshvolari istiqomat qilgan mahallalar, shaharning janubi-g'arbiy qismida esa hunarmandchilik guzarlari joylashgan. Hisor atrofidagi rabotlarda kanallar bo'ylab bog'rog'lar uzumzorlarga tutashib ketgan<sup>1</sup>. Bu voha me'morchiligiga ham o'zining ta'sirini o'tkazgan, ya'ni Shahrisabzda bunyod etilgan mahobatli inshootlar tuzilishi va me'moriy bezaklarida o'ziga xoslik sifatida aks etgan.

**Oqsaroy** Qashqadaryo vohasining Shahrisabz shahrida joylashgan. Mazkur inshoot Amir Temur farmoniga ko'ra 1380–1403 yillarda bunyod etilgan. Manbalarda ushbu saroy haqida quyidagicha keltirilgan: "Torix yetti yuz seksan birda (1380, mart) ul shaharda (Keshda) qal'a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo'ldikim, gardun Muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va ko'shk ko'rmagan tutur"<sup>2</sup>. Ushbu saroydan hozirda bosh ravoq ustunlarigina saqlanib qolgan. Inshootning qurilishida mahalliy ustalar bilan birga Amir Temurning Urganch va Ozarbayjonga qilgan yurishlari paytida asir olingan ustalar ham qatnashganlar. Binoning tashqi bezaklari, xususan, bosh ravoq ustunlari, burchak minoralari rang-barang sirli g'isht, o'yma naqshli koshinlar, islimiy bezakli sopol taxtachalar bilan bezatilgan.

Rui Gonsales de Klavixo Shahrisabzdagi Oqsaroyga "...oltin, lojuvard va boshqa rangdor bezaklar bilan bezatilgan betakror inshoot", deb ta'rif bergan<sup>3</sup>. Mazkur muallif Oqsaroyning rejaviy tuzilishiga oid qiziqarli ma'lumotlar ham keltirib o'tgan, xususan, saroy uch qismdan, ya'ni ma'muriy boshqaruv qismi, turar joy xonalari bo'lgan saroy hamda bog' xiyoboni qismlaridan iborat bo'lganligi yozib qoldirilgan<sup>4</sup>. Yodgorlikni chuqur tadqiq etgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, saroy an'anaviy tarzda to'g'ri to'rtburchakli ayvonlar bilan o'ralgan hovlida qad ko'targan. Hovlisining eni 120-125 m, uzunligi esa 240-245 mni tashkil etgan<sup>5</sup>. Amir Temur saroylari o'z davrining eng muhtasham

<sup>1</sup> O'zMA R-1591-fond, 2-ro'yhat, 10-ish, 19 varaq; O'sha joyda. 13-ish, 31 varaq; 13a-ish, 32 varaq; O'sha joyda. R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1389-ish, 23 ta chizma; O'sha joyda. R-2773-fond, 1-ro'yhat, 7-ish, 139 varaq; O'sha joyda. 165-ish, 3 varaq; O'sha joyda. R-2286-fond, 1-ro'yhat, 189-ish, 13 varaq;

<sup>2</sup> Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 51; Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият... – 85 б.; Маматмусаев Т. Улуғбек даври архитектураси... – 161 б.

<sup>3</sup> Юсупова Д.Ю. Письмо Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан... – С. 37-64; О'ша muallif. Основные исторические источники об Улугбеке... – С. 163-164, 238; Ахмедов А.А. Улуғбек Мухаммад Тарағай. – 40 б.; Шамукарамова Ф. Жизнь и творчество Мирзо Улугбека в историографии XX века... – С. 15-26.

<sup>1</sup> Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 90-91.

<sup>2</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 88.

<sup>3</sup> Клавиho. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги... – Б. 146-147.

<sup>4</sup> О'ша joyda.

<sup>5</sup> Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 92.

o'tkazish uchun maxsus maydon bo'lgani haqida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan<sup>1</sup>. Umuman olganda, Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda bunyod etilgan bog'lar Amir Temur bog'lari me'morchilik uslubini saqlab qolgan holda, o'ziga xos yangiliklarni mujassam etgan. Ularning vazifasi ko'pqirrali bo'lib, ularda muhitga tarovat berib turuvchi turli-tuman mevali va manzarali daraxtlar, yil fasllarida ketma-ket ochilib turuvchi rang barang gullar ekilgani, rasmiy uchrashuvlar uchun ko'rkam saroylar, dam olish uchun ko'shklar atrofida hovuz va favvoralar, supa va xiyobonlar bunyod etilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida bog'-saroylarni qurish uchun asosan tekis maydon tanlangan. Tog' yonbag'irlari, qirlarda bunyod etilgan bog'lar uchun pog'onasimon shakldagi kichik maydonchalardan foydalanilgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Bog'i Maydon va Bog'chani bunyod etishda me'morlar aynan shu, sun'iy pog'onasimon maydonlardan foydalanishgan bo'lib, pog'onalar bir-biri bilan tirgak devorlar va zinapoyalar yordamida bog'langan<sup>2</sup>.

## **II.2. Movarounnahrning boshqa markaziy shaharlaridagi Temuriylar davri me'moriy obidalari**

**Shahrisabz.** Amir Temurning ona shahri Shahrisabz asrlar davomida bir necha bor yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirgan. O'rta asrlarda u Kesh nomi bilan mashhur bo'lgan. Amir Temurga otameros mulk bo'lgan Kesh shahri XIV asr oxirida mudofaa devori bilan o'rab olingan. Manbalarda keltirilishicha, Kesh hisori devorining qurilishi 780/1378 yili boshlangan va bir yilda tugatilgan<sup>3</sup>. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi devorning to'rt tomonida darvozasi bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temur Hirotni zabt etganida uning temir qoplangan darvozalarini Shahrisabzga keltirib, shahar devoriga o'rnatishni buyurgan. O'rta asr shaharlarida an'anaga aylangan shoh ko'chalarga bo'lgan e'tibor bu yerda ham kuzatiladi. Boshqa markaziy shaharlarda bo'lgani kabi mudofaa devorlari darvozalaridan boshlangan asosiy yo'llar markazda kesishgan. Yo'l yoqasida joylashgan do'konlar markazga tomon ko'payib borgan va u

bo'lgan ko'cha o'tkazishni buyurdi. Bu ko'cha shaharning bir chekkasidan ikkinchisiga qadar kesib o'tdi. Senyor bu ishni o'zining ikki mirassasiga (mirzasiga) topshirdi va agar kecha-kunduz harakat qilib ishlamasalar, boshlari ketishini aytdi. Bu mirassalar esa senorning buyrug'iga ko'ra ko'cha o'tishi lozim bo'lgan yerlardan uy-joylarni egalari kimligiga qaramay buzishga kirishdilar. Uylari buzilayotganini (ko'rgan odamlar esa) bor-yo'qlarini olib, ko'cha boshladi. Uy-joylarni buzuvchilar o'z ishini tugatishi bilanoq boshqalar kelib ishni davom ettirishardi. Shu tariqa ko'cha nihoyatda kengaytirildi, ikki tomonga esa chodirlar qurildi. Har bir chodir oldiga oppoq toshtaxtalar qoplagan baland o'rindiqlar o'rnatildi. Barcha chodirlar juft-juft qilib birlashtirildi. Tepadan esa butun ko'cha boshdan-oyoq yopilib, yorug'lik tushib turishi uchun darchalar qoldirildi. Chodirlardagi ishlar tugashi bilanoq ularga savdogarlar yuborildi va ular xilma-xil mollarini sotishga kirishdilar. Ko'chaning ayrim joylariga favvoralar qurildi. Bu yerda ishlovchilar shahardan haq olishardi, shu bois ham shu ish mutassadilari qancha odam so'rashsa, shuncha odam keldi. Kunduzi ishlaganlar ketishi bilan tunda ishlovchilar kelishardi. Ulardan ba'zilari uy-joylarni buzar, boshqalari yer tekislar, yana bir xillari qurar va hammalari kecha-kunduz shunday shovqin-suron ko'tarishardi... Yigirma kunga ham bormay, shuncha ko'p ish bajarildiki, hayratlanmay iloj yo'q edi"<sup>1</sup>.

XV asrda ishlangan ayrim miniatyuralarda ham shahar istehkomlari tasvirining ulug'vor talqinini ko'rish mumkin. Chunonchi, qal'aga hujum qilish sahnasi aks ettirilgan miniatyuralar bunga misol bo'ladi. "Shohnoma" asari uchun 1444 yili ishlangan va "Afrosiyobni o'ldirishi" deb nomlangan miniatyurada ham Klavixo ta'riflaganidek, atrofi xandaq bilan o'ralgan, aylanasiimon shakldagi burchak minorasi aks ettirilgan<sup>2</sup>. U g'ishtdan qurilib, sirtiga sirli koshin qoplangan, minora-ning yuqori qismida bitiklar va uning tepasida esa kunguralari bo'lgan. Miniatyurada shahar atrofi devor bilan o'rab olingan, devor bo'ylab to'rtqirrali minoralar rangli koshinlar bilan bezatilgan holda tasvirlangan. Devor ichidagi shahar tasvirida esa xilma-xil shakldagi yassi toshli, gumbazli, ayvonli uylar ko'rinib turadi<sup>3</sup>. Bularning barchasi

<sup>1</sup> Булатов М.С. Сади Темур и темуридов // Маскан. 1993, – №1. – С. 23.

<sup>2</sup> Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. – Ташкент, 1987. – С. 178.

<sup>3</sup> Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 96.

<sup>1</sup> Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура... – Б. 139.

<sup>2</sup> "Афросиёбнинг ўлдирилиши", деб номланган миниатюра "Шохнома" қўлёзмасидан нусха. Балтемор, Уолтерс бадий академияси.

<sup>3</sup> Темур ва Улуғбек даври... – Б. 169.

Temuriylar davrida Samarqand me'morchilik maktabining taraqqiyot darajasini ko'rsatib turuvchi manzaralardir. Ya'ni, Amir Temurning Samarqanddagi qal'asi shunchaki istehkom emas, balki milliy me'morchilikda erishilgan yutuqlar asosida bunyod etilgan mustahkamlangan ma'muriy markaz bo'lgan. Uning devori tashqarisida hukumatning asosiy qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy, g'azna, qurol-yarog' ustaxonalari va omborlari, devonxona joylashgan. Shahar mudofaa devori maydoni 500 gektarli hisorni o'rab olgan. Unda oltita darvoza – shimolda Shayhzoda va Ohanin, sharqda Feruza, janubda So'zangaron va Korizgoh, g'arbda Chorsu darvozalari joylashgan. Mustahkamlangan minoralari bo'lgan hisor devorini suvga to'la chuqur handaq o'rab turgan. Shaharning Ohanin (ya'ni, temir) deb nomlangan darvozasi tabaqalari temirdan yasalgan bo'lgani bois shunday nomlangan. Xandaq ustidagi ko'tarma ko'priq orqali darvozadan shaharning asosiy ko'chalaridan biriga kirilgan<sup>1</sup>.

**Dam olish maskanlari.** Temuriy hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan bog'lar asosan dam olish maskanlari vazifasini bajargan. Shuningdek, ularda uzoq yaqindan kelgan mehmonlar hamda elchilar qabul qilingan. Mazkur bog'larda me'moriy tartib berilgan hashamatli saroylar bunyod etilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand shahri atrofida hashamatli ko'shk-saroylarga ega o'nlab bog'lar mavjud bo'lgan<sup>2</sup>. Klavixo kundaliklarida yevropalik sinchkov elchining Sharq musulmon dunyosiga bergan tavsifi, mahalliy xalq urf-odat hamda an'analari, xususan, shaharsozlik va me'moriy obidalariga nisbatan chuqur qiziqishi namoyon etilgan. Muallifning ta'kidlab o'tishicha, "Samarqand shahri tekislikda joylashgan va atrofi tuproq ko'tarma hamda juda chuqur handaq bilan o'rab olingan. Uning (devor bilan o'rab olingan shahar) ichki qismi (Ispaniyadagi) Seviliya shahridan bir oz katta, shahar atrofida esa har tomondan yondashib keluvchi turar joy binolari ko'p. Butun shahar bog'-rog'lar va uzumzorlar bilan o'rab olingan... Shahar bog'lar qo'ynida joylashgan. Bu bog'lar o'rtasidan ko'chalar o'tkazilgan, maydonlar bor. ...Ya'ni, ko'tarma orti (shaharning o'ziga) nisbatan gavjumroq. Shahar tashqarisidagi bu bog'larda ulkan va

O'rtasida darz bo'lubdur. Ushbu bog'chada yana bir chordara solubdur, izorasi tamom chiniy. Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubdur"<sup>1</sup>. "Boburnoma"da keltirilgan ushbu ma'lumotlar Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan ikki bog': Bog'i Maydon hamda Bog'cha, deb nomlangan bog'-saroylardir. Fikrimizcha Bog'cha, deb nomlangan bog'ning nomi avvalgisiga nisbatan kichikroq maydonda joylashgani va unda bunyod etilgan ko'shkning hajmi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Mutaxassislar tomonidan mazkur bog'larning joylashgan o'rni masalasida turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, tarixchi olim O'.Alimovning fikriga ko'ra, Bog'i Maydon Samarqanddagi Afrosiyob xarobalari shimolida, shu tepalik bilan Cho'ponota qirlarining o'rtasidagi yalanglikda, hozirgi kunda ham Bog'i Maydon, deb ataladigan keng hududda joylashgan bo'lgan. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi qurib bitkazilgandan keyin, Bog'i Maydonni qurishga e'tibor qaratgan. Uni rasadxona joylashgan tepalik bilan qo'shib yuborib, o'ziga xos me'moriy yaxlitlikni, betakror manzaraga ega bog'ni bunyod etgan. Bog' o'rtasida bunyod etilgan Chilustun saroy, uning ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan. Bog'cha esa Chilustundan shimoli-g'arbda, 400-500 m narida Cho'ponota qirlari yonbag'rida bo'lgan<sup>2</sup>.

Arxitektura tarixi mutaxassisi A.O'rolov va M.Xojixonovlar: "Bog'cha Chilustunning shimoli-g'arbida emas, undan shimoli-sharqda Cho'ponota qirlari yonbag'rida joylashgan. Ya'ni Bog'cha rasadxonadan keyin qurilgan bo'lib, Bog'i Maydon va rasadxona bilan yonmayon joylashgan... Bu yerda Bog'i Maydon va Bog'cha, rasadxona hamda uning qo'shimcha imoratlari (oshxona, omborxona va boshqalar) qo'shib, go'zal bir me'moriy uyg'unlikka ega manzarani tashkil etgan, bo'lsa ajabmas", deya ta'rif berishgan<sup>3</sup>. Bog'cha Bog'i Maydonga nisbatan kichik bo'lib, Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Bog'i Naqshi Jahonga chegaradosh bo'lgan... Mirzo Ulug'bek ushbu bog'lardagi saroylarda turli xil rasmiy uchrashuvlar, olimu ulamolar bilan bahs-munozaralar, elchilarni kutib olish va mehmondorchilik tadbirlari o'tkazib turgan<sup>4</sup>. Bu taxmin "Boburnoma"da keltirib o'tilgan ma'lumotlarga ham to'g'ri keladi. Ushbu bog'da chovg'on o'yini

<sup>1</sup> Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 241-249.

<sup>2</sup> Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси... – Б. 165.

<sup>1</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 45.

<sup>2</sup> Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннахрда боғчилик ҳўжалиги тарихи... – Б. 20.

<sup>3</sup> Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият... – Б. 52.

<sup>4</sup> O'sha asar. – Б. 53.

sharqda, Zarafshon daryosining bo'ylaridadir. Bog' 1394 yilda shahzoda Shohruxning Kavkaz ortida olib borgan urushlaridan qaytishi sharafiga bunyod etilgan<sup>1</sup>.

**Bog'i Zog'on**, ya'ni "Zog' (qarg'a)lar bog'i" to'g'risida ham manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Tadqiqotlar natijasida mualliflar uni Samarqandning sharq tarafida joylashganini ta'kidlab o'tishgan. Samarqand – Panjikent yo'lida shu nom bilan ataluvchi qishloqning mavjudligi bunga ishora qiladi. Bog'ning nomi qarg'alar, ya'ni "zog'on" so'zidan kelib chiqqan. Hozirgi kunda ham bu joyda qarg'alar ko'p yashaydi va ular qishu yozda bu yerdan ketmasligi haqida mahalliy aholi ma'lumotlar berib o'tgan<sup>2</sup>. Shuningdek, Qur'oni Karim da qarg'a xususidagi rivoyatning keltirilishini e'tiborga olgan holda, o'sha davrda ushbu qush nomi bilan barpo etilgan bog'lar bejizga emasligini e'tirof etish joiz. Zero, Temuriylar saltanatining ikkinchi poytaxti Hirotida ham shu nom bilan bog' barpo etilgani tasodif emas. Ushbu bog'larning hech biri bizgacha saqlanib qolmagan va ular to'g'risidagi ma'lumotlar mukammal emas. Faqatgina o'sha davrda yashab o'tgan tarixchi olimlar tomonidan yozib qoldirilgan manbalarda ular haqida qisqacha ma'lumotlar mavjud. Mazkur manbalarni ilmiy tahlil etish Temuriylar davri bog'lari va ko'shk-saroylari to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Samarqanddagi **Bog'i Maydon** va **Bog'cha** esa Mirzo Ulug'bek davrida bunyod etilgan. Ular haqida "Boburnoma"da quyidagilar yozib qoldirilgan: "Po'shtai Ko'hakning domanasida<sup>3</sup> g'arb sari bog'e solibtur, Bog'i Maydong'a mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur. Chilustun derlar, duoshyona, ustunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt minoradek burjlar qo'porib-turlarkim, yuqoriga chiqar yo'llar bu to'rt burjdandur. O'ziga tamom yerlarda toshdin sutunlardir. Ba'zini morpech xiyora qilibturlar. Yuqorig'i oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imoratdin Po'shtai Ko'hak sari yana bir bog' solibturlar, anda bir ulug' ayvon imorat qilibdur, ayvonning ichinda bir ulug' tosh taxt quyubdur, tuli taxminan o'n to'rt-o'n besh qari bo'lg'ay, arzi yetti-sakkiz, umqi bir qaridur. Mundoq ulug' toshni xeyli yiroq yo'ldan kelturubdurlar.

<sup>1</sup> Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннахрда боғчилик... – Б. 20.

<sup>2</sup> O'sha asar... – B. 22

<sup>3</sup> Cho'ponota qirlari etagida.

mashhur binolar ko'p, sen'or (Temur)ning o'ziga qarashli saroylar va asosiy yerto'la-omborlar ham bor. Undan tashqari, bu bog'larda nufuzli shaharliklarning uylari va turli binolar bor. Shahar tevaragidagi bu bog'-rog'lar, uzumzorlar shu qadar ko'pki, go'yo daraxtlari baland-baland o'rmonga yaqinlashib kelayotgandek bo'lasan. Shahar esa uning o'rtasida joylashgan. Shahar orqali bu bog'larga ko'plab sug'orish kanallari o'tkazilgan... Shahar tashqarisidagi bepoyon tekislikda yirik qishloqlar ko'p, ularga podshoh o'zi bosib olgan yerlardan olib kelingan aholi joylashtirilgan"<sup>1</sup>.

Tarixiy manbalarda Amir Temur tomonidan Samarqandda bunyod etilgan bog'larning shakli, tuzilishi hamda ularda barpo etilgan saroylarning ko'rinishi va bezaklari xususida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Amir Temur bog'lari tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'lingan: to'rtburchak shaklga ega chorbog'lar va ma'lum bir geometrik shaklga ega bo'lmagan keng maydonli bog'lar<sup>2</sup>.

**Chorbog'lar** – me'moriy tartib berilgan, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan, uni teng to'rt qismga ajratib turuvchi ariqlar o'tkazilgan, markazida muhtasham saroyga ega bog'lardir. Ularning atrofi baland paxsa devorlar bilan o'ralgan, devor burchaklarida kichik minoralari bo'lgan bog'larning darvozalari shahar tarafga qarab qurilgan. Chorbog'larga manbalarda quyidagicha ta'rif berilgan: "Qoida shuki, chorbog'larni girdini devor tagidan uch ziro' tashlab, bir ziro'<sup>3</sup> keladigan ariq qaziladi Ariqning devor tomondagi qirg'og'iga bir-biriga yaqinlashtirib safdori Samarqandiy (oq terak) ekiladi... Bog' tarafiga savsan... va zardolu ekiladi, ularning orasiga esa guli so'rx va shaftolu munosibdur... Shundan keyin oraliqdan imorat oldidagi hovuzga boradigan shoh ariq o'tkazilib, uning atrofiga turli xil mevali daraxtlar va rango-rang gullar o'tkaziladi... Imorat kursisi atrofiga chinor va tut ekadilar... Imorat suvasi atrofida esa gilos, olbolu va olma ekiladi..."<sup>4</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, chorbog'larda mevali va

<sup>1</sup> Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 138.

<sup>2</sup> Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннахрда боғчилик санъати тарихи... – Б. 49-55; Пугаченкова Г.А. Темурининг меъморий мероси... – Б. 14-20.

<sup>3</sup> 1 ziroa' – 70 см.

<sup>4</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 187; Абдураимов М.А. Два Среднеазиатских сочинения по истории агротехники / Известия АН УзССР, 1956, № 9, – С. 103-108; Норкулов Н., Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1970. – Б. 53-55.

manzarali daraxtlar va yilbo'yi ochilib turadigan gullar maxsus joylarga tanlab ekilgan.

Keng maydonli bog'lar (qo'riqxonalar shaklidagi) tuzilishi ma'lum bir geometrik shaklga ega bo'lmagan, ular tabiiy daraxtzor, chakalakzorlar bag'rida barpo etilgan. Bunday bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi boy bo'lib, hukmdor ov qilishi uchun mo'ljallangan. Yuqoridagidan farqli ravishda ularning asosiy qismi tabiiy holda saqlanishiga e'tibor qaratilgan va ma'lum bir qismidagina dam olish uchun saroy, ko'shk va yoki chodirlar qurilib, hovuzlar qazilgan, favvoralar o'rnatilgan<sup>1</sup>.

Temuriylar davri yozma manbalarida ta'rifi keltirilgan Samarqand bog'lari quyidagilar:

**Bog'i Shamol**, ya'ni "Shimoldagi bog" 1397 yilda (1396 yil 5 oktyabr–1397 yil 23 sentyabr<sup>2</sup>) barpo etilgan. "Zafarnoma"da ushbu bog' qurilishi to'g'risida quyidagilar keltirib o'tilgan: "... oftobi olamtob Hamal burjida ustakorlar yaxshi soatda Bog'i Shamol tarhini soldilar. Ul shaharning shimoli sorida erdi. Shu jihatdin ani Bog'i Shamol ot qo'ydilar. Aning ichida bir ko'shk soldurdi, bag'oyat takallufluq va zebo va har yerdakim, ustakorlarni sohibqiron viloyatlaridin – Iroq va Fors va Bag'dod va Sherozdin yibarib erdi, barcha munda jam' bo'lub, ishga mashg'ul bo'ldilar. Jumadul al-oxir oyida, torix yetti yuz to'qson to'qqizda, ut (sigir) yilida (1397, mart) farxunda soatda imorat ishig'a mashg'ul bo'ldilar... Andoq imorati oliy soldurdilarkim, biyiklik jihatidan ko'k bila hamroz bo'lub erdi". Shuningdek, bunda keltirishicha, mazkur ko'shkning har bir burjida Tabrizdan keltirilgan marmartoshdan yasalgan ustunlar o'rnatilgan, uning butun sahniga ham marmartosh yotqizilgan. Tomlari oltin va lojuvard bilan bezatilgan. Bog' va unda bunyod etilgan ko'shkning qurilishini shaxsan sohibqironning o'zi va u tomonidan qo'yilgan beklar nazorat qilgan. Bog' qurilishi yakunlangach, unda qurilish yakuniga bag'ishlab bir necha kunlik ziyofatlar uyushtirilgan<sup>3</sup>. Manbalarda Bog'i Shamol

**Bog'i Bo'ldi**, ya'ni "Olisdagi bog" Samarqand shahrining sharqiy qismida XIV asr oxirlarida barpo etilgan. Ushbu bog' haqida manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Bu haqda "Boburnoma"da quyidagicha ma'lumotlar mavjud: "Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqdur Bog'i Bo'ldidur. Andin Feruza darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubdur"<sup>4</sup>.

**Bog'i Baland** haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Abu Tohir Xo'janing yozishicha, u Samarqandning shimolida joylashgan<sup>2</sup>. Keyingi tadqiqotlarda uning Zarafshon daryosi yoqasida bo'lgani, bog'ning bir tarafi daryoga tutash bo'lgani aniqlanib, bog' 1665 yillarda ham saqlanib qolgani, uni o'rab olgan devor qoldiqlarini XX asr boshlarida ham ko'rish mumkin bo'lganligi yozilgan<sup>3</sup>. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda Bog'i Baland deb aeroportdan sharq tomondagi yerlar atalar ekan. Bu yerlarni yangi qurilishlar egallab olganligi sabab, bog' to'g'risida ma'lumot beruvchi birorta alomat qolmagan. Amir Temurning Samarqand atrofida bunyod etgan bog'-saroylari tarixini tadqiq etgan tarixchi olim O'Alimovning taxminiga ko'ra, bog' aynan aeroport o'rnida bo'lgan. Chunki Zarafshon bo'ylarida bundanda xushhavo va xushmanzara joylar bo'lmagan. Tabiiyki, bunday joylar o'sha davr hukmdorlari e'tiborini tortgan. Bog'i Baland nomiga kelsak, u qurilgan joy baland emas, pastlik. Bu nom unda qurilgan inshootlarning boshqa bog'lardagiga nisbatan baland bo'lgani bilan bog'liq bo'lsa kerak<sup>4</sup>.

**Bog'i Amirzoda Shohrux** to'g'risida manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Samarqand-ning g'arb tomonidagi darvozasiga yaqin joyda bog' bo'lganini eslatib o'tgan<sup>5</sup>. A.I.Suxarev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Samarqanddagi Bobojon tepaligi ustidan topilgan tarixiy yodgorlik izlari, Bog'i Amirzoda Shohruxning bog'-saroyi bo'lganligiga ishora qilingan. To'rtburchak shaklidagi bu tepalik sharqdan-g'arbga qarab cho'zilgan bo'lib, uzunligi 76x44 m, balandligi 4 m, eni 6 m xandaq bilan o'ralgan. Bu yer Samarqanddan 9-10 km

<sup>1</sup>Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик санъати тарихи... – Б. 20-21; Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока... – С. 178; Булатов М.С. Сади Темур и Темуридов / Маскан, 1993, № 1. – С. 23; Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият... – Б. 51-60.

<sup>2</sup> Низомиддий Шомий. Зафарнома... – Б. 220.

<sup>3</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 187.

<sup>1</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 80.

<sup>2</sup> О'sha asar. – Б. 81.

<sup>3</sup> Вяткин В.Л. Материалы к исторической топографии Самаркандского вилайета... – С. 34.

<sup>4</sup> Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик... – Б. 18.

<sup>5</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... (1972) – С. 484.

qurilgan, ya'ni kvadrat shaklida har tomoni 750 metr dan iborat bo'lgan. Uning markazida ko'rkam qasr bunyod etilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy ushbu qasr xususida quyidagilarni yozib qoldirgan: "...farmon bo'ldikim, Bog'i Shamolning janubi sorisida bir bog' yasasunlarkim, har tomining uzunlig'i ming besh yuz qari bo'lg'ay va o'rtasida qasre solg'aylar! Bu mahalda ul bog'ni tugatdilar. Hazrat sohibqiron yaxshi soatda anda borib, to'y tartibig'i mashg'ul bo'ldilar"<sup>1</sup>. Klavixo kundaligida ham ushbu bog' to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud: "Bog' to'rt tomondan baland devor bilan o'ralgan. Devorning har bir burchagida tikka dumaloq minoralar bor. Bog'ning baland devorlariga ham minoralarga ham sayqal berilgan. Bog' o'rtasida but shaklida katta bino qad ko'targan. Oldida katta hovuz. Bu bino shu paytgacha biz ko'rgan binolardan ancha salobatli bo'lib, unga oltin va lojuvard bo'yoqlar bilan sayqal berilgan. Bu bog' va saroy shahardan tashqarida bo'lib, Bog'ino deb ataladi". Klavixo "but shaklidagi bino", deya ta'rif bergan saroy Bog'i Nav ko'shkiga to'g'ri keladi. "Boburnoma"da keltirilishicha, ushbu saroy xitoylik ustalar tomonidan bunyod etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur unga quyidagicha ta'rif bergan: "Ushbu bog'chada yana bir chordara soldirubdir, izorasi tomom chiniy. Chiniyxona derlar. Chiniydan kishi yibarib keltiribdur"<sup>2</sup>. Tadqiqotlar natijasida Bog'i Nav hozirgi Samarqanddagi xiyobon o'rnida bo'lgani aniqlangan<sup>3</sup>.

**Bog'i Davlatobod** shahar janubida, Samarqand – Termiz yo'lining chap tarafida, shahardan taxminan 13 km masofada 1399 yilda bunyod etilgan. Ushbu bog' Amir Temurning Hindistondan qaytishi sharafiga qurilgan. Klavixo ushbu bog' xususida so'z yuritib, uni "Dilikiya" deb atagan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Bog'i Navdan unchalik uzoq bo'lmagan Bog'i Davlatobod va unda bunyod etilgan saroy bag'oyat go'zal bo'lgan. Sohibqiron yurishlardan Samarqandga qaytganida mazkur maydonda o'zi va oila a'zolari uchun chodir tikishni buyurgan. Bunda bazm va sayl uyushtirgan. Mazkur sayilda podshoh qo'shini va ularning oila a'zolarining ham ishtirok etishiga ruxsat berilgan<sup>4</sup>.

amirzoda Mironshoh Bahodirning qizi Begi Sultonga atab qurilgani haqida ham ma'lumotlar mavjud<sup>1</sup>.

**Bog'i Dilkusho** 1397 yilning kuzida shaharning sharqiy qismida Konigilda bunyod etilgan<sup>2</sup>. Ushbu bog' "Yaqindagi bog'" deb ham nomlangan. "Zafarnoma"da bog' xususida quyidagilar keltirib o'tilgan: "Etti yuz to'qson to'qqizda (1397, sentyabr) sohibqiron farmonladikim, "Konigilning bir yonida bog'i tarh solsunar!"... Murabba' tarhi soldularkim, har yoni ming besh yuz qari erdi (ya'ni har bir tomoni 750 m bo'lgan kvadrat shakldagi bog' loyihasi tuzilgan) va har bir tomida bir darvoza qo'yidilar va oliy toqilar bog'ladilar va koshin bilan zebu ziynat berdilar... G'oyat takallufidan ani Dilkushoyi ot qo'yidilar". Bunda, shuningdek, bog'ning har burjida kabutarhona koshinkorlik bilan bunyod etilgan. Unda turli-tuman manzarali va mevali daraxtlar ekilgan. Ularda sayroqi qushlar oshyon qurgan. Bog'i Dilkusho sohibqironning kichik xotini Xizr Xojaning qizi Tukul xonimga atab qurilgani haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>3</sup>. "Boburnoma"da keltirilishicha, Bog'i Dilkusho ko'shki devorida Hindiston jangi tasviri tushirilgan lavhalar aks etgan<sup>4</sup>.

**Gulbog'** Amir Temur farmoni bilan Samarqanddan Shahrisabzga ketish yo'lida Taxta Qoracha dovonida qurilgan. "Zafarnoma"da ushbu bog'ning bunyod etilishi borasida quyidagilar keltirib o'tilgan: "... ul tog'din Samarqandg'acha yetti yag'och yo'l turur va ul tog'ning og'zida og'ar suv chiqib borur erdi. Sohibqiron ul tog'qa chiqib ko'rdikim, imoratqa loyiq yer turur. Munda yetkonda hukm qildikim, "Bog'i solsunarlar", bu suv anda borg'ay, va ul bog'ning ichida qasri solsunar!". Bas hukmi bila anda bog' solub, tugagandin so'ng ani Taxta Qoracha ot qo'yidilar". "Zafarnoma"da mazkur bog' 1398 yil martida bunyod etilgani to'g'risida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>5</sup>. Mazkur bog' 1403–1406 yillarda Amir Temur saltanatida va saroyida bo'lgan ispan elchisi Klavixo kundaligida "Kalbet", ya'ni Gulbog' deb keltirilgan. O'z ko'rgan-kechirganlari va yo'l xotiralarini batafsil yozib borgan ispan elchisi ushbu bog' va undagi saroy manzarasi to'g'risida

<sup>1</sup> Низомиддий Шомий. Зафарнома... – Б. 221.

<sup>2</sup> Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси... – Б. 170.

<sup>3</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 190.

<sup>4</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 80.

<sup>5</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 191.

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 290.

<sup>2</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 82.

<sup>3</sup> Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 93.

<sup>4</sup> Клавиho. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги... – Б. 164.

quyidagilarni keltirib o'tgan: "Bog'ning atrofi loy devor bilan o'ralgan bo'lib, to'la bir liga kelar edi. Bog'da sitrus va limondan boshqa turli xil mevali daraxtlar bor. Unda oltita hovuz bo'lib, bog' o'rtasidan anhor oqib turardi. Hovuzlar baland, soyali daraxtlar qatoridan hosil bo'lgan yo'laklar orqali bir-biriga tutashtirilgan. Ushbu yashil yo'laklar balandlikka ko'tarilgan, xuddi shunday sersoya yo'laklar butun bog' bo'ylab o'tgan. Bog'da tuproq uyub yasalgan, yog'och panjaralar bilan o'ralgan usti tekis baland tepalik bor. Unda qad ko'targan ajoyib koshonaga tillo, lojuvard va rangli koshinlar bilan tekis va mukammal sayqal berilgan. Koshona joylashgan mazkur tepalik atrofi suvga limmo-lim chuqur handaq bilan o'ralgan. Tepalik ustidagi koshonaning ikki tomonidagi xandaqlar osha unga olib keluvchi ikkita ko'priq qurilgan. Har bir ko'prikning narigi tomonidan eshiklar bor. Eshiklardan kirilgach, zinapoya orqali yuqoriga ko'tariladi. Xullas mazkur bino mustahkam qo'rg'on edi"<sup>1</sup>. Klavixoning ma'lumotlariga ko'ra, mazkur bog'da hukmdorning topshirig'i bilan kiyik va tus-tovuqlar boqilgan. Bog'dan yana uning o'ziday yirik tokzorga o'tilgan. Keng tokzorga eshik orqali chiqilgan, uning atrofi ham loy devor bilan o'rab olingan edi<sup>2</sup>. Keyinchalik Amir Temur davri me'moriy yodgorliklarini tadqiq etgan olim Samarqanddan Shahrisabzga ketish yo'lida joylashgan bog'ni Bog'i Jahonnamo deb, adashib nomlaganini ta'kidlab o'tgan<sup>3</sup>.

**Bog'i Naqshijahon** XIV asrning 70-yillarida Cho'ponota tepaligi etagida barpo etilgan. Amir Temur tomonidan bunyod etilgan ushbu bog' ham murabba' usulida qurilgan. Ya'ni u kvadrat shaklida bo'lib, har bir tomoni "ming besh yuz qari" – 750 m dan iborat bo'lgan. "Zafarnoma"da bog'da turli-tuman manzarali va mevali daraxtlar o'stirilgan chorbog' markazida ko'rkam qasr-ko'shk bunyod etilganligi, uning ustun va burjlari hamda butun sathi oq marmardan yasalgani haqida ma'lumotlar mavjud<sup>4</sup>. "Boburnoma"da XVI asr boshlarida ushbu bog' vayrona holda bo'lgani to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan: "Ko'hakning domanasida Konigilning qora suvi ustida, bu suvni

Obirahmat derlar bir bog' solibtur. Naqshi Jahonga mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzilib erdi"<sup>1</sup>.

**Bog'i Bihisht**, ya'ni "Jannat bog'i" Amir Temur tomonidan rafiqasi Tuman og'aga atab shahar g'arbida qurdirilgan. Ushbu bog' to'g'risida Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan 1404 yilda sohibqironning Samarqandga qaytishi tafsilotlarini keltirish jarayonida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Ya'ni Tuman og'a Amir Temurni Bog'i Behishtda kutib olgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud<sup>2</sup>. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda mazkur bog' ham XIV asr oxirlarida bunyod etilgan degan xulosaga kelish mumkin.

**Bog'i Chinorning** qurilgan o'rne va vaqti aniqlanmagan. Lekin "Zafarnoma"da keltirilishicha, 1404 yilda Amir Temur "etti yillik" urushdan Samarqandga qaytishi tafsilotlarida sohibqironning Saroyulkxonim bilan Bog'i Chinordagi uchrashuvi haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlar Bog'i Chinorni bungacha bo'lgan davrda bunyod etilganidan dalolat beradi<sup>3</sup>. Mazkur bog' xususida ispan elchisi Klavixo xotiralarida quyidagilar keltirib o'tilgan: "Bayginar (Bog'i Chinor) yangi qurilgan, hashamatli katta saroy joylashgan bog' edi... Bog' juda katta, unda shig'il mevaga kirgan va quyuq soya tashlab turgan daraxtlar ko'p. Devor bilan o'rab olingan bog' qo'ynida sayrgoh yo'laklar bor. Bog'da guldor gilamlardan va boshqa turli xil serjilo ipak matolardan tikilgan o'tovlar va soyabonlar yayrab turibdi. Bog' o'rtasida xochsimon va turfa rangli darpardalar bilan bezatilgan muhtasham bino ko'rinadi"<sup>4</sup>. Shuningdek, bunda mazkur bino devor va eshiklari, taxmonlarining naqshinkor va nodir toshlardan iborat bezaklari to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin<sup>5</sup>. Keltirib o'tilgan manbalarda Amir Temur tomonidan Bog'i Chinorda shahzodalarning tantanali to'y marosimlarini va elchilar qabul qilishga bag'ishlab o'tkazgan ziyofatlari jarayoni batafsil tasvirlab berilgan.

**Bog'i Nav**, ya'ni "Yangi bog'" Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida keltirilishicha, 1404 yilda sohibqiron farmoniga ko'ra Bog'i Shamolning janubida bunyod etilgan. U ham murabba' usulida

<sup>1</sup> Клавиho. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги... – Б. 153.

<sup>2</sup> O'sha asar... – Б. 154.

<sup>3</sup> Пугаченкова Г. А. Темурнинг меъморий мероси... – Б. 14-15.

<sup>4</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 353.

<sup>1</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 80.

<sup>2</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

<sup>3</sup> O'sha asar... – Б. 289.

<sup>4</sup> Клавиho. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Б. 160.

<sup>5</sup> O'sha asar... – Б. 161.

sirli parchinlarga rang berishda qizil va tilla ranglardan keng foydalanilgan<sup>1</sup>.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazm vohasining Urganch shahri Buyuk Ipak yo'lining Urganch-Ustyurt-Saroychik-Saroy shahobchasi bo'ylab amalga oshirilgan savdo va madaniy aloqalar qizg'in amalga oshirilgan shaharlardan bo'lgan. Bu haqda Iogann Shelytbergerning sayohatnomasida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu yo'l bo'ylab keyingi davrlarda ham savdo va madaniy aloqalar amalga oshirilgan. Xususan, 1558 yilda Antonio Djenkinson sayohati davomida shu yo'ldan foydalangani to'g'risida aytib o'tgan<sup>2</sup>.

**Turkiston** ham Amir Temur va Temuriylar saltanatining e'tiborga molik madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Mazkur shaharda bunyod etilgan **Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasi** ham Temuriylar davriga oid betakror yodgorliklardandir. Ushbu yodgorlik Turkiston shahrida joylashgan. Me'moriy majmuada qurilgan tarixiy bino Islom dunyosida mashhur bo'lgan tasavvuf ilmi namoyandasi Xo'ja Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'langan. Undagi dastlabki inshoot XII asrning ikkinchi yarmiga mansub. Keyinchalik 1396 yilda Amir Temur tomonidan hozirda saqlanib qolgan mahobatli me'moriy majmuani bunyod etish ishlari boshlangan va Mirzo Ulug'bek tomonidan yakunlangan. Mazkur me'moriy majmua Ahmad Yassaviy maqbarasidan tashqari yana bir qator inshootlarni: o'rta asr hammomi, xilvat, go'rxona, katta va kichik masjidlar, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegim maqbarasidan iborat<sup>3</sup>. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida ushbu yodgorlik haqida quyidagilar keltirib o'tilgan: "Sohibqiron Yassig'a borib, Shayx Ahmad Yassaviy mozorig'a borib tavof qildilar... Buyurdikim, ul mozori ustig'a imorati oliy soldirur. Va bir ulug' toq bog'ladilarkim, ko'k bila so'zlashur erdi. Va bir gunbandi murabba', bir yoni o'ttiz qari bog'ladilar, va o'zga hujralar soldilar. Va

uning hayotida muhim o'rin tutgan murabbiylaridan biri Shamsiddin kulol qabri ustida marmar toshtaxta qoplangan mo'jazgina maqbara bunyod etilgan. Mirzo Ulug'bek davrida esa ushbu maqbara ustida gumbazli inshoot barpo etilgan. Mazkur maqbara ro'parasida avval madrasa bo'lgan. 1434–1435 yillarda Shoxruh Mirzo buyrug'iga asosan Mirzo Ulug'bek tomonidan uning o'rnida Ko'k gumbaz masjidi bunyod etilgan. U me'moriy majmuadagi eng katta inshoot bo'lib, jome' masjidi hisoblangan. Masjid peshtoqi ravog'ida Shoxruh Mirzo hamda Mirzo Ulug'bekning nomlari, ularning sharafiga bitilgan maqtovlar hamda masjidning qurib bitkazilgan yillari haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Ko'k gumbaz masjidining nomi uning tashqi me'moriy bezaklarida ishlatilgan moviy va ko'k rangli koshinlar bilan bog'liq. Peshtoq bezaklari ichida geometrik naqshlar ustunlik qiladi. Masjid peshtoqining o'ng va chap tomondagi ustunlari hamda boloxonasi buzilib ketgan<sup>1</sup>. Ularda va asosiy ravoqda islmiy bezaklar ham ishlatilgan. Masjid honaqohi 12,7×12,7 mni tashkil etgan bo'lib, gumbaz poygumbazining tashqi tarafiga ishlov berilgan sirkor me'moriy bezaklarida moviy, ko'k va oq rangli epigrafik bezaklar mavjud. Ularda Qur'on oyatlari bitilgan. Ichki qismidagi 8 ta mayda ravoqchalar romb shaklidagi qalqonsimon bag'allar bilan o'zaro birlashtirilgan bo'lib, ravoq shaklidagi 16 tayanchiqqa o'rnatilgan. Xonaqohning g'ishtin devorlari burchagida to'rtta aylana zina orqali ayvon tomiga chiqilgan<sup>2</sup>. 1437–1438 yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan Shamsiddin kulol maqbarasining janubiy devori ortida Temuriylar xonadoni a'zolari uchun yangi maqbara bunyod etilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlab o'tishicha, ushbu maqbaradagi XV–XVII asrlarga oid qabrtoshlar orasida Termiz shayxlarining nomlari ham uchraydi. Maqbaraning nomi shundan kelib chiqqan holda Gumbazi Sayyidon deb nomlangan<sup>3</sup>.

Me'moriy majmua yodgorliklari, xususan, Ko'k gumbaz masjidi 1970 yillarda hamda mustaqillik yillarida 1995–1996 yillarda Amir Temur hamda Mirzo Ulug'bekning yubileyleri munosabati bilan qayta ta'mirlangan. Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan yodgorliklar to'g'risida tarixiy manbalarda keltirib o'tilgan

<sup>1</sup> Якубовский А. Ю. Самарканд при Темуре и Темуридах... – С. 26, 37; Кдырнязов М. Ш. Самарканд и Хорезм (О связях столицы Амира Темура с Хорезмом) // Самарканд шахрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тугган ўрни. – Тошкент–Самарканд, 2007. – Б. 134.

<sup>2</sup> Шельтбергер И. Путешествия Иоганна Шельтбергера по Европе, Азии, Африке... – С. 7, 60, 162; Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – Ленинград, 1939. – С. 178.

<sup>3</sup> Скайлер Южин. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари.... – Б. 44–45.

<sup>1</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 284-ish, 8 varaq.

<sup>2</sup> Маньковская Л.Ю. Қашқадарёнинг архитектура ёдгорликлари... – Б. 38–40.

<sup>3</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1526-ish, 20-varaq; Маньковская Л.Ю. Қашқадарёнинг архитектура ёдгорликлари... – Б. 36.

ma'lumotlarni ochiqlashga doir bir qator ilmiy maqolalar chop ettirilgan<sup>1</sup>. Hukumat qaroriga asosan Ko'k gumbaz masjidida 2016 yilda ham tiklash-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan<sup>2</sup>.

**Dor us-saodat me'moriy majmuasi** 1389–1400 yillarda barpo etilgan Hazrati Imom va Amir Temurning katta o'g'li hamda valiahdi (1386 yilda vafot etgan) Jahongir Mirzo maqbaralaridan tarkib topgan. Klavixo Kesh shahri inshootlari haqida so'z yuritganda bu haqda ham ma'lumotlar berib o'tgan. Ya'ni "... Boshqa bir dahmani Temurbek o'ziga atab qurishga buyruq bergan va u ham hali bitkazilmagan edi. Aytishlaricha, u bir oy ilgari bu yerga kelgan, dahmadan ko'ngli to'lmagan, (unga) kirish o'rni pastligini aytgan va buzib qayta qurishga buyruq bergan... Bu masjidda, Temurbekning Yangir (Jahongir) ismli to'ng'ich o'g'li ham dafn etilgan. Mazkur masjid va dahma nihoyatda hashamatli va oltin, lojuvard va rangin koshinlar bilan bezatilgan..."<sup>3</sup>. Me'moriy majmua tarkibiga, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ikkita maqbara, xonaqoh va bir nechta xizmat xonalari, hujralar kiradi. Majmuaning old tomonida chuqur ravoqli baland peshtoq mavjud. Majmuaning shimoliy tarafida joylashgan Jahongir Mirzo maqbarasining o'ziga xos o'n olti qobirg'ali kulohiy gumbazi konus shakliga ega. Bu Xorazm me'morchilik maktabiga xos an'analardan bo'lib, uning qurilishida xorazmlik me'morlar ishtirok etganidan dalolat beradi. Maqbara va undan deyarli 40 m narida joylashgan yer osti sag'anasi o'z davrida hashamatli hamda ulkan Dor us-saodat majmuasining tarkibiy qismlari bo'lgan. 1392 yilda qurib bitkazilgan Jahongir Mirzo maqbarasining aksariyat qismi serjilo naqshlar bilan bezatilgan. Murakkab kompozitsiyaga ega Dor us-saodat me'moriy majmuasi 70x50 m o'lchamli yirik inshoot bo'lib, asosiy g'arbiy fasadining peshtoqi 20 metr. U orqali to'rtburchak shakldagi (tarhi 20x20 m)

<sup>1</sup> Юсупова Д.Ю. Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира // Материалы международной научной конференции «Расцвет науки, культуры и образования в эпоху Темуридов». – Ташкент – Париж, 1996. – С. 28-36; O'sha muallif. The international Scientific conference on Honor the 600<sup>th</sup> birthday of Mirzo Ulugh beg / Tashkent – Samarkand, Uzbekistan. 12-16 October 1994. Booklet (ingliz, ўzbek va rus tillarida). 3 p.l.; O'sha muallif. Education under Amir Temur and the Temurids // Materials of the international scientific conference «Amir Temur in world history». – Tashkent: Uzbekistan. 1996. – P. 100-101.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қашқадарё вилоятининг Шахрисабз шаҳридаги объектларни қуриш ва реконструкция қилишга доир комплекс чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги 31-сонли Қарори. 2014 йил 20 февраль.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

manbalar, xususan, Temuriylar davriga oid inshootlar qoldiqlari va sopol parchalari bu yerda tadqiq etilayotgan davrda keng ko'lamli qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilganidan darak beradi<sup>1</sup>.

XIV–XV asrlarda Xorazmning shimoli-g'arbiy hududida joylashgan shaharlar Yangi shahar, Vazir, Shemaxa qal'a, Oq qal'a kabi madaniy markazlari ham rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar ushbu shaharlarda Temuriylar davri Samarqand kulolchilik mahsuloti – rangli va bezakli koshin hamda parchin inshootlar qurilishi va ta'mirida ko'p ishlatilgani haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi<sup>2</sup>. Temuriylar davrida Xorazm me'morchiligida, shuningdek, Xorazm vohasi kulollari tomonidan ishlab chiqarilgan va Samarqand koshinlaridan kam farqlangan sirli va rangli, bezakli sopol koshin va parchinlar ham qo'llanilgan<sup>3</sup>. Bu topilmalar Xorazm vohasi shaharlari va Amir Temur saltanatining Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kabi markaziy shaharlari bilan o'zaro aloqalarini mustahkam bo'lganidan darak beradi. Bizgacha saqlanib qolgan Amir Temur va Temuriylar davri yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm me'morchilik maktabi an'analarning yuqorida nomlari keltirilgan markaziy shaharlar, xususan, poytaxt shahar Samarqand me'morchiligiga bo'lgan ta'siri ham sezilarli bo'lganidan darak beradi. Xususan, Amir Temur me'moriy majmua-sidagi Sulton Muhammad madrasasi, Shohi Zinda me'moriy majmua-sidagi Tuman og'a, Shirinbeka og'o, Nomsiz I, Amir Burundug maqbaralari va Saroyulkxonim madrasasida Xorazm kulolchiligi mahsuloti bo'lgan yorqin ko'k rangli bezakli sopol koshinlarning ishlatilganini ko'rish mumkin. Shuningdek, Shohi Zindadagi Qusam ibn Abbos maqbarasi bezaklari orasida rang-barang sopol bo'lakchalardan iborat Xorazm kulolchiligiga xos parchin ishlatilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Samarqand va Xorazm me'morchiligiga xos

<sup>1</sup> Маньцлов Ю.П. К изучению городища Кят // Вестник каракалпакского отделения АН РУ. 1966, № 2. – С. 56; Кдырнязов М.Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник каракалпакского отделения АН РУ. 2005, № 1-2. – С. 119-121.

<sup>2</sup> Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на городище Шемаха кала // Труды ХАЭЭ. Т. I. – Москва, 1952. – С. 190-191; Вайнберг Б.И. Новые материалы к истории западных районов Хорезма в XIV–XV вв. // Этническая история традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус, 1989. – С. 122-138.

<sup>3</sup> Абдураззаков А.А. Amir Temur davrida shishasozlik va koshinkorlik sohasidagi yangiliklar // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1996, № 4-5. – Б. 59-62.

afsonaviy qush, uni uyini buzishga, bolalarini nobud qilish qo'limdan kelmadi", deya javob beradi. Shundan so'ng yov To'labiyni avliyo deb bilib, unga tegmaydi. Shundan so'ng maqbara Qaldirg'ochbiy deya atala boshlagan. Inshoot me'moriy jihatdan betakror hisoblanadi. Uning gumbazi ham o'zgacha uslubda. Piramidasimon, kulohiy gumbaz moviy koshinlar bilan bezatilgan<sup>1</sup>. Maqbara ichkarisida To'labiyning qabr toshi joylashgan. Maqbaraning kiraverish pesh-toqida esa sulc xatida "Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy-lari (do'stlari)ga xavf yo'q va ular tashvish ham chekmaslar. Ular iymon keltirgan va taqvoli bo'lganlar (hisoblanadi)"<sup>2</sup>, degan bitik yozilgan. Maqbara pishiq g'ishtdan (25×25×5sm) chortoq tarhli (9,48×9,48 m), bir xonali (tarhi 6×6 m), qo'sh qavat gumbazli qilib qurilgan. O'n ikki qirrali tashqi kulohsimon cho'qqi gumbazi pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Unga janub tomondagi eshik orqali kiriladi. Xonadan tepaga chiqiladigan aylana zinalar qalin devor ichiga joylashgan. Maqbara bezaklaridan XV asrga mansub sharafalarning qoldiqlarigina saqlangan<sup>3</sup>. Sovet davri (1970 yil)da tashqi gumbazi ta'mirlangan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati qaroriga asosan 2008 yilda qayta ta'mirlangan<sup>4</sup>.

**Xorazm.** Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Xorazm vohasi shaharlarini obodonlashtirishga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida 1391 yilda Sohib-qiron tomonidan ko'p yillik jangu jadallar natijasida vayronaga aylangan Urganch shahrini tiklashga farmon berilgani haqida ma'lumotlar mavjud<sup>5</sup>. Buning natijasida janubiy va shimoli-g'arbiy Xorazm hududidagi shaharlar obodonlashtirilgan. 1984–1990 yillarda Xivada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Temuriylar davriga oid madaniy qatlam va inshootlar vayronalaridan topilgan moddiy manbalar bunga misol bo'ladi. Shuningdek, Xorazmning Kat hamda Mazdakxon shaharchasida 1985 yillarda olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va moddiy

markaziy zal – xonaqohga kiriladi. Uning burchaklarida yo'laklar mavjud bo'lib, yon xonalarga olib boradi. G'arbiy va shimoliy fasad burchagida aylana shaklidagi minora (diametri 2,7 m) mavjud. Uning to'rtidan uch qismi devordan tashqariga chiqib turadi. Jahongir Mirzo maqbarasiga Amir Temur tomonidan Hazrati Imom hoki ko'chirib kelingan. Shu sabab Dor us-saodat majmuasi Hazrati Imom nomi bilan ham ataladi<sup>1</sup>. Me'moriy majmua inshootlari ajoyib g'ishtin koshinlar bilan girih uslubida bezatilgan. Girih uslubidagi bezaklar orasida Qur'on oyatlaridan iborat yozuvlar ham mavjud. Bu yodgorlik gumbazi asosan zangori va moviy sopol parchalari bilan bezatilgan. Yodgorlikning ichki bezaklari o'ymakor marmar va ganch muqarnaslardan iborat bo'lgan. Mazkur me'moriy majmuada Jahongir maqbarasidan tashqari masjid ham bo'lgan. Yodgorlik majmuida Amir Temur naslidan bo'lgan amaldorlar hamda zamonasining ulug' zotlari dafn etilgan<sup>2</sup>.

**Qarshi.** Amir Temur hukmronligi davrida Qarshi (Nasaf) shahri ham mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Qarshi (Qadimgi Naxshab, Nasaf) shahrida Amir Temur va Temuriylar davrida ham mudofaa devoriga ega shahar qo'rg'oni, xususan, Qarshi vohasi hokimining saroyi, masjid, maqbara, xonqohlar bunyod etilgan. Bu davrda Qarshi hududida avvalgi davrlarda bunyod etilgan ko'hna inshootlar qayta tiklanib, ta'mirlangan. Yozma manbalarda keltirilishicha, Naxshabda IV–V asrlarda bunyod etilgan yirik va mustahkam qal'a VII–VIII asrlardayoq vohaning poytaxt shahriga aylangan<sup>3</sup>. IX–X asrlardan boshlab Nasaf gullab-yashnagan o'rta asr shaharlaridan biri sifatida yodga olingan. Ushbu davrda ham Qarshi shahri Buxoro – Balx karvon yo'lida joylashgan. Shaharda qal'a va rabot mavjud bo'lib, shahar to'rtta darvozaga ega mudofaa devori bilan o'rab olingan<sup>4</sup>. XIII asrda esa shaharni mo'g'ul bosqinchisi Chingizxon bosib olgach, unga o't qo'yib, butunlay vayron etgan. Keyinchalik XIV asrda qadimgi Nasafdan 5 km shimolda hozirgi Qarshi shahri o'rnida chig'atoy urug'idan bo'lmish Kepekxon tomonidan saroy bunyod etilgan va yangi shaharga asos solingan. Shara-

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 168-169.

<sup>2</sup> Куръони карим. Юнус сураси. 62-63 оятлар.

<sup>3</sup> O'zMA R-2773-fond, 1-ro'yhat, 135-ish, 17-varaq.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тошкент шаҳрининг 2200 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида"ги Қарори. 2008 йил 2 апрель.

<sup>5</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 221.

<sup>1</sup> Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар... – Б. 105.

<sup>2</sup> Маньковская Л.Ю. Доруссаодат ансамбли... – 32 б.

<sup>3</sup> Ибн Хавқал. Китоб сурат ул-ард... – Б. 67.

<sup>4</sup> Бергтер Е. К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля // Труды САГУ. – Ташкент, 1957. – Вып. CXI. – С. 20.

fiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida keltirilishicha, shaharning Qarshi deb shuhrat topganligining sababi, Kepekkon Nasaf va Narshaxdan ikki farsax masofada bino etgan qo’rg’oni nomi bilan bog’liq. Mo’g’illar qo’rg’onni “qarshi” deydilar<sup>1</sup>. Hofizi Abru ham o’zining “Geografiya” asarida Kepekkon tomonidan yangi bunyod etilgan shaharda ko’shk qurdirgani haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan<sup>2</sup>. Amir Temur va Temuriylar davri manbalardan yana biri Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai baxrayn”ida Qarshi shahri Temuriy hukmdorlar e’tibori markazida bo’lgan muhim strategik markaz sifatida tilga olingan. Xususan, unda Amir Temur vafotidan so’ng temuriyzodalar Pirmuhammad ibn Jahongir va Xalil Sulton ibn Mironshoh o’rtasidagi toj-taxt uchun kurash Qarshida bo’lgani haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan<sup>3</sup>. Bu jangda Pirmuhammad mag’lub bo’lib, Balxga qaytishga majbur bo’lgan. Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur” asarida esa Qarshining Pirmuhammad tomonidan egallanishi masalasini yorituvchi ma’lumotlar mavjud<sup>4</sup>. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur davrida yangi shahar atrofida mudofaa devori bunyod etilgan. Tadqiq etilayotgan davrda Qarshi shahri tuzilishi jihatidan O’rta Osiyo shaharlariga xos tarzda uch qismdan iborat bo’lgan. Ya’ni u noto’g’ri to’rtburchak ko’rinishidagi mudofaa devori, bitta saqlov darvozasi va ichki qo’rg’onga ega bo’lgan mustahkam shahar bo’lgan. Temuriylar davrida Buyuk ipak yo’li chorrahalarida joylashgan Qarshi shahrida masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar, hammomlar, bozorlar va boshqa ko’plab yo’lbo’yi inshootlari bunyod etilgan<sup>5</sup>. Xususan, Qashqadaryo ustidan qurilgan dastlabki ko’prik ham Amir Temur davrida barpo etilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Shayboniylar davrida Qarshi yanada gullab yashnagan, bu davrda shaharda Abdullaxon (1583-1598) tomonidan yangi binolar – madrasa, masjid, karvonsaroylar, sardoba,

shaxsiy mablag’i va Xoja Ahrorning vaqf yerlaridan tushgan mablag’ hisobiga ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan<sup>1</sup>.

Masjidding gumbazi Toshkentda yuz bergan 1866 yildagi zilzilada ham qulab tushgan va qayta tiklangan. 1954 yilda Ko’kaldosh madrasasidan 40 m shimoli-sharqda bo’lgan Xoja Ahror jome’ masjidi binosi yaroqsiz holga tushib qolgani sababli buzib tashlangan. Masjid O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 26 yanvaridagi farmoyishiga asosan qayta tiklangan va 1998 yil 16 iyulda ro’yxatdan o’tkazilib, foydalanishga topshirilgan. 2003 yilda masjid zamoniy qurilish va bezash uslublari yordamida qayta qurilgan<sup>2</sup>.

Toshkentdagi **Yunusxon maqbarasi xonaqohi** ham Temuriylar davri yodgorligidir. Bu maqbara Toshkent hokimi Chig’atoy nasliga mansub Yunusxon (1415/17–1487) qabri ustida o’g’illari tomonidan bunyod etilgan. Ushbu maqbara mahalliy me’morchilikda kam uchraydigan **T-tarhli** qurilish uslubida qurilgan. Bu kabi inshootlar Eronda ko’p uchrashini e’tiborga olgan holda, maqbara qurilishida mahalliy ustalar bilan birgalikda eronlik me’morlar bilim va tajribalaridan keng foydalanilganligini ko’rsatib turadi. Inshootning markaziy xonasi sakkiz qirrali ayvonga ega markaziy xonaqoh hisoblanadi, shuningdek, uning burchaklarida hujralari mavjud. Yodgorlikning tosh ustunlari, peshtoqidagi ko’k va moviy rangli koshinlari unga o’ziga xos ko’rk berib turuvchi bezaklaridir. Ular asosan epigrafik va girix naqshlardan iborat. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, mazkur xonaqoh eshiklari tabaqalari orasiga qadimiy musiqa asbobi – chang o’rnatilgan bo’lib, ular ochilganda musiqa ovozi eshitiladi<sup>3</sup>.

Toshkent shahridagi Shayx Xovandi Tohur majmuasi tarkibida joylashgan **Qaldirg’ochbiy maqbarasi** Temuriylar davrida bunyod etilgan betakror me’moriy yodgorliklardan biridir. Maqbara XV asrning birinchi yarmida barpo etilgan. Uning nomi Dashti Qipchoqlik Qaldirg’ochbiy ya’ni, To’labiy Alibiyqul nomi bilan bog’liq. Ammo u maqbara qurilganidan bir necha yuz yillardan so’ng yashagan. Rivoyatlarga qaraganda urush xavfi tug’ilganda ko’pchilik o’z yerlarini tark etadi. Ammo To’labiy o’z o’tovini yig’maydi. Bosqinchilar o’tovga yaqinlib, lashkarboshi To’labiydan nega ketmaganligini so’raydi. Shunda To’labiy “Bu yil o’tov boshiga qaldirg’och in qurdi. Qaldirg’och

<sup>1</sup> Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома... – 114<sup>a</sup>-vagaq; Махмуд ибн Вали. Бахр ал-асрар фи манакиб ул-ахёр... – С. 27.

<sup>2</sup> Хофиз Абри. География. Бодлея (Оксфорд) кутубхонаси қўлёзмаси. Форс тилидан таржима О.Бўриевники. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Тошкент, 1997. – 170<sup>6</sup> vagaq.

<sup>3</sup> Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи бахрайн”... – 60, 551-vagaqlar.

<sup>4</sup> Бўриев О. Нахшаб – Қарши Темурийлар дари манбаларида // Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. – Тошкент, 2006. – Б. 210-214.

<sup>5</sup> Ахмедов Б. А. Историко-географическая литература ... – С. 259.

<sup>1</sup> Султонов Ў. Тошкент масжидлари... – Б. 17, 39-41.

<sup>2</sup> <https://masjid.uz/toshkent-v/toshkent-sh/shayhontohur-tumani/237-xoja-ahror-v.html>

<sup>3</sup> Ўзбекистон. Шаҳарлар ва афсоналар... – Б. 22.

(1404–1490) o'zining yoshlik yillarini Toshkentda o'tkazgan. Keyinroq Samarqandda madrasada tahsil olgan. Toshkentga qaytib, ziroatchilik va savdo bilan ham mashg'ul bo'lgan Xoja Ahror temuriy Sulton Abu Sa'id (1451–1469) davrida Samarqandga taklif qilinib, o'z hayotining ko'p qismini shu shaharda o'tkazgan. Ushbu tarixiy shaxs Samarqand va Toshkent madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan bo'lib, uning rahnamoligida Toshkentda bunyod etilgan me'moriy inshootlar Temuriylar davri yodgorliklari orasida Toshkent me'morchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xoja Ahror valiy maqbara va masjidi devorlarini pishiq g'ishtdan barpo qilib, xonaqoh, ayvon va maqbara boshida yana bir ayvon ham bino qildilar. Masjidning binosi ayvon bilan bir tarhdir. Mazkur jome' masjidi Chorsu bozori boshida, Boboi Obrez qabrining g'arbida joylashgan va u Ko'kaldosh hamda Xoja Ahror madrasalari, bozor do'konlari bilan tutash bo'lgan. Uning yonidan shahar ichidan oqib o'tuvchi uchta ariqdan biri – Shayxontohur arig'i oqib o'tgan. Xoja Ahror jome' masjidi binosining shimoliy va janubiy tarafida 22 ta ravoq va 22 ta gumbaz, janubi-sharqida esa, 14 ta ravoq va 14 ta gumbaz hamda g'arb tarafi o'rtasida bir peshtoq, katta gumbaz va g'ishtli, burji naqshlangan mehrob, janubiy va janubi-sharqiy tomonida esa darvozalari bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Shayxontohur ko'chasidan o'tuvchi Katta ko'chadagi imoratlar va bozorda, unga yaqin ko'chadagi do'konlar hamda Shayx Shibli arig'idan sharqdagi yerlar Xoja Ahror jome' masjidi va madrasasining vaqfi bo'lgan. Xoja Ahror jome' masjidi 1885–1888 yillarda o'lka ma'muriyati tomonidan 13208 rubl mablag' sarflanib ta'mirlangan<sup>1</sup>.

Tadqiqotchi O'Sultonovning "Toshkent masjidlari tarixi" kitobida keltirilishicha, Toshkentdagi Xoja Ahror jome' masjidi (tarhi 91x35,6 m, balandligi 20 m) kattaligi jihatidan Samarqanddagi Bibixonim (tarhi 167/109 m) va Buxorodagi Kalon masjididan (tarhi 126,5x81,4 m) keyin O'zbekistondagi eng katta jome' masjidlarining uchinchisi bo'lgan. Turli davrlardagi tabiiy ofatlar, ayniqsa zilzilalardan zarar ko'rgan ushbu jome' masjid bir necha bor ta'mirlangan. Xususan, Qo'qon xoni Sheralixon (1842–1845) davrida Solihbek dodxohning

hammomlar va gumbazli savdo inshooti – chorsu, bozorlar qurilgan. Shuningdek, Qashqadaryo ustidan barpo etilgan eski ko'priklar buzib tashlanib, o'rnida yanada mustahkamroq qurilmaga ega yangi ko'priklar bunyod etilgan<sup>1</sup>.

**Buxoro.** Movarounnahrning eng qadimiy tarixiy shaharlaridan biri bo'lgan Buxoro dastlab bunyod etilgan joyida asrlar davomida muntazam ravishda kengaytirilib, rivojlantirilgan shahar hisoblanadi. Milloddan avvalgi V asrda bunyod etilgan ushbu shahar ayniqsa Somoniylar davrida musulmon dunyosining yirik madaniy va diniy markaziga aylangan. Buxoro tarixi haqada yozilgan tarixiy manbalar hamda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida nashr ettirilgan ilmiy ishlarda ushbu shaharning bunyod etilish tarixi hamda moddiy-madaniy yodgorliklarining tarixiy ahamiyati xususida qiziqarli ma'lumotlar jamlangan<sup>2</sup>. Sharq me'morchiligi qadimiy an'analari asosida bunyod etilgan Buxoro shahri Amir Temur va Temuriylar davrida ham hukmdorlar nazaridan chetda qolmay, shahar me'morchiligi qadimiy an'analarni davom ettirgan holda yangi uslub va bezaklar bilan boyitilgan. Bu yerda mavjud me'moriy majmualar yangilari bilan to'ldirilgan. Mashhur islom allomalari qabrlari ustida yangi masjid va maqbaralar bunyod etilgan. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mazkur qadimiy shahar atroflarida karvonsaroy va sardobalar qurilishi davom ettirilgan. Temuriylar davrida Buxoroda bunyod etilgan tarixiy obidalar sirasiga Namozgoh masjidi, Chashmai Ayub maqbarasi, Mirzo Ulug'bek madrasalarini kiritish mumkin. Ular avvalgi davr me'moriy yodgorliklaridan o'ziga xos uslub hamda bezaklari bilan ajralib turadi. Mazkur yodgorliklar Buxoro me'mor-

<sup>1</sup> Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. (Шарафномаи шоҳий) / Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси. Ўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 107-109; Аҳмедов Б. А. Историко-географическая литература ... – С. 259; Муҳаммаджонов А.Р. Шайбонийхоннинг сув айиргич кўприги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 2.

<sup>2</sup> Наршахий. Бухоро тарихи / Масъул муҳаррир А. Ёринбаев. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 82-174; Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. (Шарафномаи шоҳий) / Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси. Ўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 416 б.; Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 363 с.; Юсупова М. Бухарская школа зодчества XV–XVII вв.: Особенности и динамика развития: Дисс... д-ра архитектуры. – Ташкент, 2000. – 327 с.; Абдуматгор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 592 б. va boshqalar.

<sup>1</sup> Муҳаммад Солиххўжа. Тарихи жадидаи Тошканд... – 209<sup>б</sup> варак.

chiligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda muhim tarixiy-moddiy manba sifatida xizmat qiladi.

**Chashmai Ayub maqbarasi** – dastlab XII asr boshlarida bu yerda mavjud quduq yonida qurilgan<sup>1</sup>. Bunda dastlab quduqxona bunyod etilgan bo'lib, u Arslonxon tomonidan Minorai Kalon va Nomozgoh masjidi bilan bir davrda qurilgani haqida rivoyat saqlangan<sup>2</sup>. 1379–1380 yillarda Amir Temur Xorazmni markaziy hukumatga bo'ysundir-gandan so'ng, hukmdor farmoniga asosan xorazmlik ustalar ishtiro-kida ushbu inshootni qayta qurdirgan. Maqbaraning eng qadimgi qismi kvadrat tarhdagi (4,5x4,5 m.) go'rxona bo'lib, ziyoratchilar uchun ikki yonida ikki eshigi ham bo'lgan. Kvadrat shaklidagi mazkur go'rxona devrlaridagi yozuv fikrimizga dalil bo'ladi. Maqbara ustiga kulohsimon shaklda bunyod etilgan gumbaz XIV asr Xorazm me'morchiligi uslubidan darak beradi<sup>3</sup>. Maqbaraning tarhi murakkab bo'lib XIV–XIX asrlarda ham ta'mirlab, tiklangan. Xususan, XV–XVI asrlarda go'rxonaga taqab gumbazli zal va burchaklarida minorali dahlizlar bunyod etilgan. Natijada go'rxona bir-biriga o'xshamagan turli o'lchamdagi gumbazlar bilan yopilgan uzunchoq shakldagi inshoot o'rtasida qolib ketgan. Buloq joylashgan xonaning doira tarhli gardishiga o'rnatilgan kulohsimon qo'sh gumbaz o'tkir uchli, o'ziga xos shakl ega. Maqbaraning gumbazlari mo'jaz qorong'i xonalarga alohida sirli tus berib turadi. Hozirda bu binoda Suv muzeyi va gilamlar ko'rgazmasi joylashgan.

Buxoro shahridagi **Mirzo Ulug'bek madrasasi** 1417 yilda bunyod etilgan bo'lib, bu haqdagi ma'lumot madarasaga kirish eshigidagi epigrafik bezakda yozilgan. Hozirda u Buxoro shahridagi Azizon guzarida joylashgan, 50 ta hujrasi mavjud. Vaqf hujjatlarida keltirilishicha, mazkur madrasa keyingi davrlarda ham oliy toifaga mansub madrasa hisoblangan va yillik vaqf mablag'i 60 ming tangaga teng bo'lgan<sup>4</sup>. Ushbu madrasa Temuriylar davri ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan eng mashhur madrasalardan biri bo'lgan. Madrasa me'morlari Najmiddin Buxoriy va Ismoil Isfahoniydir. Bu haqida madrasa pesh-

ziyoratxona va go'rxonaning usti doira shaklida qo'shqavatli gumbaz bilan yopilgan. Maqbarada nafis islimiy va epigrafik naqshlar bilan bezatilgan oq marmar qabrtosh joylashgan. Maqbara dastlab pesh-toqsiz va bezaksiz ikki xonali ziyoratgohdan iborat bo'lgan. Keyinchalik uning oldiga peshtoq qurilib, koshinlar bilan bezatilgan. Temuriylar davrida Toshkentda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar tuzilishi va bezaklarida mahalliy me'morchilik maktabi an'analari ustunlik qiladi<sup>1</sup>.

Toshkentdagi **Shayx Xovandi Tohur me'moriy majmuasi** maqbaralari XIV–XV asrda bunyod etilgan. XIII asr oxiri–XIV asr o'rtalarida yashab o'tgan Shayx Xovandi Tohur Yassaviya tariqatining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan. 1355 yilda vafot etgan shayx qabri ustida keyinchalik Amir Temur farmoyishiga binoan maqbara qurilgan. Maqbara go'rxona va ziyoratgohdan iborat. Maqbara go'rxonasi ikki qismdan iborat: birinchisi, Shayx Xovandi Tohur qabri joylashgan xona bo'lib, o'n ikki qirrali gumbaz bilan yopilgan; ikkinchisi, sakkiz qirrali gumbaz bilan yopilgan xonada uning rafiqasi va o'g'lini qabri joylashgan. Maqbara ziyoratxonasi qubbali. G'ishtin imorat bo'lgan ushbu maqbara peshtoqi va yon ravoqlarida rangli me'moriy bezaklar mavjud. Mazkur me'moriy majmuada joylashgan Yunusxon va Qaldirg'ochbiy maqbalari XV asrda Temuriy hukmdorlari davrida milliy me'morchilik an'alarini davom ettirgan holda bunyod etilgan<sup>2</sup>.

Shahar markazidagi Xoja Ahror me'moriy majmuasida joylashgan jome' masjidi 1451 yilda, madrasa esa 1454 yilda bunyod etilgan<sup>3</sup>. Ushbu masjid va madrasaga Xoja Ahror Valiy tomonidan Toshkent viloyatida Kuzak, Nayman, Qorasuf yeri, Qorasufi kalon, Bulug'suf, Oqqo'rg'on, Xatnaylik, Hoji dorug'a, Qo'ng'iro't, Qoraxitoy kabi yigirmaga yaqin qishloqlardagi mulklar vaqf qilingan edi. Ma'lumki, ona tomondan Shayx Xovand Tahurning avlodi bo'lgan Xoja Ahror

<sup>1</sup> Хамидова М. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 223-224.

<sup>2</sup> Bu haqda batafsil qarang: O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 855-ish, 61 varaq; O'sha joyda. R-2773-fond, 1-ro'yhat, 127-ish, 44 varaq; O'sha joyda. 135-ish, 61 varaq; Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 165-169; O'sha muallif. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 223-224.

<sup>3</sup> Ўринбаев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида (XIX asr). – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 30.

<sup>1</sup> Ayub payg'ambar nomi bilan bog'liq.

<sup>2</sup> Қосимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухоро. – Бухоро, 1996. – Б. 66-72.

<sup>3</sup> Вахитов М.М., Мирзаев Ш.Р. Меъморчилик... – Б. 174; Қосимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухоро... – Б. 67.

<sup>4</sup> Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарқ юлдузи. – 1991. – №8. – Б. 15.

Shohruxiya O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyati an'analari asosida qurilgan shahar arki, shahriston va rabotdan iborat bo'lgan. Shohruxiya ushbu shahar vayronalari o'rnida 1392 yilda qurilgan va Amir Temurning kichik o'g'li Shoxruh Mirzo sharafiga Shohruxiya deb nomlangan. Ushbu shahar 400 ga hududga cho'zilgan bo'lib, ark, shahriston va rabotdan iborat bo'lgan. Uni g'arbiy tomondan Sirdaryo, shimoliy tarafdin Shaxriyasoy o'rab turgan. Shuningdek, Amir Temur davrida shaharning suv bilan himoyalangan qismida mudofaa devori qurilgan. Devor shaharning shimoli-sharqida 600 m, shimoli-g'arbida 450 m, janubi-g'arbida 800 m uzunlikka cho'zilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida unda mavjud ma'muriy boshqaruv hamda ijtimoiy sohaga oid binolar: shaharning katta-kichik savdo inshootlari, hunarmandchilik ustaxonalari, mahalliy aholi turar joylari ochib o'rganilgan. Shuningdek, bu yerda shahar mudofaa inshootlarining bir qismi hisoblangan yerosti yo'laklari ham topib o'rganilgan. Mazkur me'moriy inshootlar haqida mahalliy xalq orasida ko'plab rivoyatlar saqlanib qolgan bo'lib, ular tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslab berilgan<sup>1</sup>.

**Zangiota me'moriy majmuasi** Toshkent shahridan 16 chaqirim g'arbda, Samarqandga o'tadigan qadimiy karvon yo'lida qad rostlagan. Ushbu ziyoratgohning dastlabki inshootlari Markaziy Osiyo mintaqasida Zangiota nomi bilan mashhur Shayx Oyxoja ibn Tojxojaning vafotidan so'ng uning mozori ustiga qurilgan kamtarona yodgorlik sifatida paydo bo'lgan. Bu muhtasham yodgorlik majmuining qurilishi XIV asrning 80-yillarida Amir Temur tomonidan boshlanib, 1420 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan tugatilgan. Zangiota maqbarasi dastlab ikki xonali sodda imorat – ziyoratxona va go'rxonadan iborat bo'lgan. Dastlab unda naqshinkor bezakli peshtoq bo'lmagan. Xonalarning devori to'rt asosli ravoqli gumbazlar bilan bog'langan. Go'rxonadagi oq marmardan ishlangan qabrtoshga nafis o'yma epigrafik naqshlar bitilgan. Keyinchalik maqbara oldiga peshtoq va ikkita ko'ndalang xona qurilib, bezak berilgan. Peshtoq va xonalar tashqi devori, ziyoratxona hamda maqbara poygumbazi g'ishtin va o'ymakor rangdor koshinlar bilan bezatilgan. Zangiota majmuasiga kiradigan yana bir inshoot Anbar ona maqbarasidir. U Zangiota maqbarasining janubi-g'arbida joylashgan peshtoqli ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Ushbu

toqida bitilgan epigrafik bezakda yozilgan. Madrasa ikki qavatli, unga kiraverishda ikki tomonga ketgan yo'lakning biri darsxonaga, ikkinchisi masjidga olib borgan. Uning ikkinchi qavatida esa kutubxona joylashgan. Madrasaning bosh tarzida mahobatli peshtoq, ikkala qanotida ikki qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar mavjud<sup>1</sup>. Devorlari va ravog'iga sipo bezak berilgan. Madrasa naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p, bunga shubhasiz Ulug'bekning astronom sifatida ta'siri katta bo'lgan. Buxoro shahridagi Ulug'bek madrasasi boshqalariga nisbatan avvalroq qurilgan bo'lib, bino peshtoqidagi yozuv "820 hijriy yil" bunga dalil bo'ladi. Manbalarda keltirilishicha, Mirzo Ulug'bek o'z oliy hikmati me'mori tomonidan bunyod etilgan madrasaga kelib, ilmu toliblaru va muhtojlarga in'omlar ulashgan davrda (1419 yil) madrasada o'quv jarayoni boshlangan edi<sup>2</sup>. Keyinchalik Markaziy Osiyodagi boshqa madrasalar ham bu madrasadan namuna olib qurila boshlangan. Temuriylar davri madrasalarida diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida faoliyat yuritgan madrasalarda aniq fanlarni chuqur o'rgatishga katta e'tibor qaratilgan. Madrasalarda Mirzo Ulug'bekning o'zi ham dars o'tgani va boshqa bir qator tadbirlarda ishtirok etgani haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida bu haqda quyidagilar keltirib o'tilgan: "Shahzoda (Mirzo Ulug'bek nazarda tutilmoqda) o'ninchi zulqa'dada (1419 yil 28 noyabr) Buxoro shahridagi uning oliy himmati me'mori tomonidan qurilgan madrasaga kirdi va ilmu toliblaru muhtojlarga in'omlar ulashib e'tibor ko'rsatdi"<sup>3</sup>. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mazkur madrasa vaqf mulklariga oid uchta hujjat saqlanib qolgan<sup>4</sup>. Ularning birida keltirilishicha, Harqanrud tumanidagi Armijon mavzesida 406 tanob yer madrasaga vaqf qilingan. Madrasa masjidida har yili ramazon oyida Qur'on xatmi marosimi bajarilgan<sup>5</sup>. Ikkinchi vaqf hujjatida keltirilishicha, madrasa uchun 11 ta do'kon, Nahri Amirobod mavzesidagi yer vaqf qilingan. Mirzo Ulug'bek madrasasi kutubxonasiga esa Buxoro shahridagi Rud

<sup>1</sup> Косимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухоро... – Б. 72.

<sup>2</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн... 1-жилд – Б. 261.

<sup>3</sup> O'sha asar. 2-jild. – B. 354.

<sup>4</sup> Жуманазар Абдусаттор. Бухоро таълим тизими тарихи... – Б. 354.

<sup>5</sup> O'zMA I-323-fond, 1-ro'yhat, 1195-1-ish. Mirzo Ulug'bek madrasasi vaqf hujjati.

<sup>1</sup> Буряков Ф.Ю. По древным караванным путям Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 11-12.

tumanida 36 tanob yer kutubxona uchun vaqf qilingani ta'kidlab o'tilgan. Tarixiy hujjatlarda keltirilishicha, madrasa masjidida har yili ramazon oyida "xatmona" marosimi o'tkazilib turilgan. Tadbirga tegishli barcha xarajatlar madrasa vaqf mulki hisobidan amalga oshirilgan<sup>1</sup>.

Mazkur madrasa sovet davri mutaxassis olimlaridan biri L.Yu.Mankovskaya tomonidan chuqur o'rganilgan. Olimaning tadqiqotlari asosida nashr ettirilgan "Qo'sh madrasa" nomli risolada madrasaga oid bir qator faktik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Xususan, madrasa peshtoqi va asosiy darvoza eshiklariga bitilgan epigrafik yozuvlar sharhlangan. Madrasa eshigi tabaqalari epigrafik bezaklari orasida arab yozuvidagi "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir", "Ilmu fan ahli Alloh marhamatidan har lahza bahramand bo'lsin", degan yozuvlar o'qib, o'rganilgan. Shuningdek, mazkur yozuvlar orasida madrasa qurib bitkazilgan sana "hijriy 820 yil rajab oyi", ya'ni 1417 yil 14 avgust-12 sentyabr oylari oralig'idagi vaqt hamda madrasa me'mori to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgani aniqlangan<sup>2</sup>.

**G'ijduvondagi Mirzo Ulug'bek madrasasi** 1414–1433 yillarda bunyod etilgan. Madrasa qurilishida pishiq g'isht va "qir" qorishmasidan keng foydalanilgan. O'rtada qad ko'targan Miyonsaroy peshtoqi chuqur ravoqli, uning yonida bir qavatli murabba' tarhli masjid (33x30 m), darsxona (8x4,6 m) va xonaqoh mavjud bo'lib, burchaklarida guldastalar joylashgan. Miyonsaroy to'ridagi eshikdan hovliga chiqiladi. Hovlining (15x13 m) ikki yonida 5 ta hujra bo'lib, uning to'rttasi murabba' shaklida qurilgan va tomi qubballi bo'lgan. Bizgacha G'ijduvondagi Ulug'bek madrasasi peshtoqi (XV asr) va unga tutashgan ayvon hamda minora saqlanib qolgan. Uning peshtoqida Mirzo Ulug'bek nomi va madrasaning qurilgan sanasi yozilgan. Madrasaning g'arbiy tomonida Abduholiq G'ijduvoni qabri joylashgan. Madrasa qo'sh minorali Sharq an'analarini o'zida aks ettirgan chor uslubida qurilgan, gumbazli, arkli bo'lgan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> O'zMA I-323-fond, 1-ro'yhat, 1195-2-ish. Mirzo Ulug'bek madrasasi vaqf hujjati; Каталог Среднеазиатских жалованных грамот из фонда Института Востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан / Составители А.Урунбаев, Г.Джураева, С.Гулямов. – Germany: OWZ Halle (Saale), 2007. – С. 114-122; А. Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи... – Б. 354-355.

<sup>2</sup> Маньковская Л.Ю. Қўш мадраса... – Б. 2-8.

<sup>3</sup> Қосимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухоро... – Б. 75-76.

1933 yilda madrasada V.A.Shishkin va V.A.Nil'senlar tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. B.N.Zasipkin tomonidan olib boilgan tadqiqotlar asosida madrasa qurilishi, o'lchamlari, me'moriy bezaklariga oid ma'lumotlar aniqlangan. O'zMAning me'morchilik tarixini yorituvchi arxiv hujjatlari orasida yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlar tomonidan mazkur madrasada dastlabki tiklash-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgani haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan<sup>1</sup>.

1993 yilda Abduholiq G'ijduvoni tavalludining 890 yilligi munosabati bilan madrasa ta'mirlangan va serhasham naqshinkor bezaklari tiklangan. Madrasa bosh tarzi peshtoqi yonida ustunli va tekis tomlari ayvon qurilib, ichi koshin bilan bezatilgan. Peshtoq yonidagi hujralarga bosh tarzdan kiriladigan eshik va tobadonlarga ganchkori panjaralar o'rnatilgan. 2003 yili Abduholiq G'ijduvoni daxmasi ustiga ustunli, tomi yog'och o'ymakori gumbaz bilan yopilgan ayvon qurilgan. Daxma bezaklari qayta tiklangan. Madrasa hududi zamonaviy talablarga mos ravishda obodonlashtirilgan<sup>2</sup>.

**Toshkent.** Choch viloyatining qadimiy Banokat shahri o'rnida qayta bunyod etilgan Amir Temur davri shahri Shohruxiyadir. Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi karvon yo'li yoqasida joylashgan mazkur qadimiy shahar hududi XII–XIII asrlarda 140 ga ni tashkil etgan. Tadqiqotchilar mo'g'ullar vayron etgunga qadar, Shohruxiya o'rnida bo'lgan Banokat shahrining Sharqiya deb ham nomlangani ta'kidlab o'tishgan<sup>3</sup>. Tarixiy manbalarda Shohruxiyaga mamlakatning muhim strategik markazi sifatida hukmdorlar tomonidan alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlab o'tilgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Шишкин В. А. Медресе Улугбека в Гиждуване // Материалы Узкомстариса. Вып. II-III. – Ташкент, 1933. – С. 11-18; Нильсен В.А. Монументальная архитектура Бухары XI-XII веков (К вопросу о возникновении средневековой архитектуры в Средней Азии).: Дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1948. – 227 с.; O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1290-ish, 15 varaq, 31 ta surat; O'sha joyda. 1291-ish, 8 varaq; O'sha joyda. 1292-ish, 30 varaq.

<sup>2</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 164.

<sup>3</sup> Ибн Хавқал. Китоб сурат ул-ард... – Б. 73-74; Буяков Ф.Ю. По древним караванным путям Ташкентского оайса. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 11.

<sup>4</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 5-11.

### III.2. Temuriylar davri me'moriy an'alarining O'zbekiston milliy me'morchiligi taraqqiyotida tutgan o'rni

Temriylar davri usta-me'morlari uchun ajdodlar tajribasidan foydalangan holda sohaga oid tarixiy an'analarni takomillashtirish va yangi madaniy aloqalar asosida shakllantirilgan yangiliklarni ishlab chiqish davr talabi hisoblangan. Bu jarayon binolarni qurish hamda bezak mavzularini boyitishda yangicha uslub va g'oyalarni qo'llashni talab etgan. Shu o'rinda ushbu davrda keng qo'llanilgan me'moriy bezak usullarini sanab o'tamiz. Tashqi bezaklarida:

- binoning old tomonida g'ishtli devorni silliqqlab rangli va sirli koshinlardan qadama naqsh solish;
- yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi;
- hoshiyalarni bezagan ko'p rangli parchinlar;
- naqshlarning ayrim qismlari va butun boshli pannolar;
- alohida sayqallangan koshinlardan ishlanuvchi yorqin me'moriy bezak turlari va boshqalar.

Ichki bezaklarida esa:

- koshinlar chegarasidan boshlab to gumbaz markazigacha ishlangan devoriy surat;
- rangin va oltin suvi yuritilgan yorqin naqshlar;
- yoki yuqoridagiga qarama-qarshi ravishda sipo bezaklar, ya'ni oq fondagi zangori naqshlar ustunlik qilgan. Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davrida ichki me'moriy bezak sifatida marmar toshdan keng qo'llanilgan, xususan, aksariyat inshootlarning poli va me'moriy majmualar hovlisi supalari toshdan ishlangan<sup>1</sup>. Yuqori darajada ishlangan aynan shu xilma-xil me'moriy bezaklar Samarqand me'morchilik maktabining Temuriylar davridagi taraqqiyot bosqichini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Movarounnahr me'morchiligida, xususan, Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida ganchkorlik va **yog'och o'ymakorligi** namunalaridan ham keng qo'llanilgan. **Ganchkorlik** dunyo xalqlari, xususan, Movarounnahr hududlarida istiqomat qiluvchi mahalliy xalqlar amaliy san'atining yorqin namunasi hamda me'morchiligining ajralmas qismidir. Ushbu me'moriy bezak turi Movarounnahr hudud-

farmon bo'ldikim, tomlarini rangin koshin bila muzayyan qilsunlar. Va Xojani qabrini oq tosh bilan yasadilar”<sup>1</sup>.

Ahmad Yassaviy maqbarasi o'zining hashamati va hajmi bilan Samarqanddagi Bibixonim masjidiga tenglashtiriladi. Ushbu to'g'ri burchakli, baland peshtoqli hamda gumbazli inshootning o'lchamlari 46,5x65,5 mni tashkil etadi. Maqbara peshtoqlari balandligi 37,5 m, asosiy gumbaz balandligi 44 m, aylana o'lchami esa 22 metr dan iborat. Tashqi devorlar qalinligi 2 m ga yaqin, markaziy devorlar qalinligi esa 3 m dan iborat. Mahobatli markaziy peshtoq va ko'plab gumbazlarga ega maqbaraning markaziy zali atrofida 35 ta xona joylashgan. Xilxona darvozalari nafis o'yma islmiy va geometrik naqshlar bilan beza-tilgan<sup>2</sup>.

Me'moriy majmuada Xo'ja Ahmad Yassaviy qabridan tashqari qirqdan ortiq (jami 43 ta) qabr toshlari saqlangan bo'lib, ularning eng qadimiysi XII asrga va eng oxirgisi XX asr boshlariga tegishli. Mazkur me'moriy yodgorlik XIX asr oxiri–XX asr boshlarida O'rta Osiyoga kelgan sayyohlar va tadqiqotchi olimlar e'tibori markazida bo'lgan. Sovet davrida esa unda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Uni har tomonlama tadqiq etish va ta'mirlashda munosib hissa qo'shgan olimlar sirasiga B.N.Zasipkin hamda L.Yu.Mankovskayalarning asarlari orqali yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin<sup>3</sup>.

**Termiz.** X–XVII asrlarga oid Termizdagi **Sulton Saodat me'moriy majmuasida** ham Temuriylar davrida bir qator inshootlar barpo etilgan. Xususan, XI asrda Termiz sayyidlari oilasining vakili Hasan al-Amir qabri ustida bunyod etilgan maqbara qurilgan. Uning yonida sayyidlar oilasi vakillari uchun yana bir maqbara bunyod etilgan. Ushbu maqbaralar XV asr boshlarida Xalil Sulton tomonidan qayta ta'mirlangan, xususan, maqbara ayvoni baland qilib qayta qurilgan<sup>4</sup>. XV asrning ikkinchi yarmida qo'shmaqbaralar ro'parasida yangi ikki maqbara bunyod etilgan. Ular avvaldan mavjud bo'lgan maqbaralar ro'parasida qurilgan bo'lib, me'moriy majmua tuzilishiga sezilarli darajada o'zgartirish kiritilishiga sabab bo'lgan. XV asrda

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 190.

<sup>2</sup> Хамидова М. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши... – Б. 224-226.

<sup>3</sup> Batafsil qarang: Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии... – С. 89-92; Маньковская Л.Ю. Исследование архитектурного комплекса – мавзолея Ахмада Яссави... – 168 с.

<sup>4</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 1450-ish, 20-varaq.

<sup>1</sup> Веселовский Н.И. Самаркандские мечети. Альбом арх. памят. Вып. I Гур-Эмир. – СПб., 1905. – 18 л.; Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средне Азии... – С. 111-112; Якубовский А.Ю. Самарканд при Темуре и темуридов... – С. 41; Ахмад Тонди. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Темуридов... – С. 184-188.

shimoliy maqbara yonida yana ikki guruh imoratlar: o'rtasi ayvonli va gumbazli g'ishtin inshootlar qurilgan bo'lib, tashqi tomoni bezaksiz. Ichki bezaklarida moviy rang va yulduzsimon girih naqshlar ustunlik qiladi<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo xalqlari qadimgi davrlardan boshlab shifo maskanlarini bunyod etish va ulardan keng foydalanish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lan. Qulay tabiiy sharoit va foydali tabiiy resurslarga ega bo'lgan ushbu hududda hammom, chillaxona, hovuz, tabiiy sharoitdagi buloq va suv havzalar atrofida qurilgan kasalxonalar turli kasalliklardan turli kasalliklardan davolanish va umumiy salomatlikni tiklash uchun foydalanishgan. Mutaxassislarining ta'kidlab o'tishicha, "shifo maskanlari butun dunyo xalqlari me'morchiligida mavjud bo'lib, insonlar salomatligini saqlashda muhim o'rin tutgan. Ammo ular yer yuzining turli hududlarida yashovchi xalqlarning o'ziga xos me'moriy madaniyati, tarixiy an'analari, qurilish uslubi, xom ashyosi va betakror ko'rinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, ularni bunyod etishda tabiiy shaorit va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar ham e'tiborga olingan. Xususan, issiq iqlimli hududlarda davo maskanlarini bunyod etishda asosan, daryo, suv havzalari, chashma yoki shunga o'xshash boshqa suv manbalarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan"<sup>2</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida ham mazkur o'ziga xosliklarni e'tiborga olgan holda **shifo maskanlari** bunyod etilgan. Ushbu davrda ham qadimiy an'analarni davom ettirgan holda tabobat ilmi rivojlangan bo'lib, har bir shaharda turli kasalliklarni davolashga mo'ljallangan shofoxonalar bunyod etilgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tarixiy hujjatlarda Amir Temur va Temuriylar saltanatining bir qator markaziy shaharlarida bunyod etilgan shu kabi inshootlar xususida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, "Temur tuzuklari"da shaharlarda masjid, madrasa, xonaqohlar bilan birgalikda shifoxonalar qurishni ham amr etgani ta'kidlab o'tilgan<sup>3</sup>. XIV asr

<sup>1</sup> Некрасова Е.Г. Филимонов В.М. Хонако в ансамбле Султан-Саодат // Краеведение Сурхандарьи. – Ташкент, 1989. – С. 86-92; О'sha muallif. Термез и его архитектура. – Ташкент: Фан, 2001. – С. 24-25.

<sup>2</sup> Уралов А. Архитектура лечебно-целебных учреждений средневековой Центральной Азии и стран зарубежного мусульманского Востока. – Самарканд: Зарафшон, 2013. – С. 8-9.

<sup>3</sup> Темир тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ.Караматов таржимаси. Б. Аҳмедов таҳрири остида – Тошкент, 1991. – Б. 100.

ayvoni bo'lgan saroy o'n olti kunda qurib bitkazildi". Ko'rinib turibdiki, bezak va sayqal ishlari binoning asosiy hajmi qurib bitkazilganidan keyin emas, balki u bilan baravar amalga oshirilgan. Markaziy shaharlarning asosiy me'moriy majmualarida joylashgan inshootlarning ichki va tashqi bezaklari bir-biriga mos ravishda amalga oshirilgan. Ular boshqa davrlardagiga nisbatan juda serhashamligi bilan ajralib turadi.

Umuman, Amir Temur davrida Movarounnahr me'morchiligida ilk bor inshootlarni yonma-yon qurish orqali "**qo'sh**" uslubidagi me'moriy majmualar (Bibixonim, Oqsaroy, Amir Temur) tizimi yaratilganligi, Temuriylar davrida esa me'morchilik ilm-fanda erishilgan yutuqlar asosida takomillashtirilib, "**maydoncha**" uslubi (Registondagi Mirzo Ulug'bek majmuasi) shakllantirilganligini ko'rish mumkin<sup>1</sup>.

Mazkur davr me'morchiligining e'tiborga molik inshootlaridan biri bog'-saroylar bo'lib, tekis hududlarda to'rtburchak shakldagi aniq o'lchamli (asosan 750x750 m) "**chorbog'**"lar yengil konstruktiviyali ko'shklar, sun'iy hovuz va favvorolari mavjud bo'lgan ochiq ayvonlarga ega bo'lgan. Tog' yonbag'irlari, dovonlarda esa bog'larning "qo'riqxonalar" shaklidagi hududi chegaralanmagan turi barpo etilgani, ularda ov qilish, ko'ngilochar o'yinlar o'ynash imkoniyatiga ega yashil maydonlar yaratilganligi tarixiy manbalarda batafsil yozib qoldirilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda bunyod etilgan inshootlar mamlakatning nafaqat kuchli iqtisodiy salohiyati, balki hukmdorlarning siyosiy kuch-qudrati hamda islom diniga bo'lgan e'tiborini namoyish etuvchi vosita sifati ham qo'llanilgan. Ya'ni Amir Temur va uning munosib avlodlari tomonidan islom dini bayrog'i ostida olib borilgan ishlar sirasiga mahobatli saroylar, masjid, madrasalar va boshqa turdagi inshootlarni bunyod etish ishlarini ham kiritilgan. Mazkur davrda masjid va madrasalar musulmon madaniyatini tarqatish va targ'ib etishda katta rol o'ynagan bo'lib, ularda sifatli ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish, ilmi toliblar va musulmon aholi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 183-185.

gumbazining nishab kosasi uchun yulduzsimon asos keng qo'llanilgan. Bu xil muhandislik izlanishlarining yakuni sifatida devordan devorga tashlanuvchi, o'zaro kesishuvchi va gumbazni ko'taruvchi (ayilsimon) to'rtta ravoq ko'rinishidagi yangi tizim vujudga kelgan. Bu turdagi ravoqlar ancha avval Armaniston me'morchiligida keng qo'llanilgan bo'lib, XV asrda Xuroson va Movarounnahr me'morchiligida ham kuzatiladi. Ushbu usulda ishlangan ravoqlarning hududiy farqi shundaki, Armanistonda ular toshdan ishlangan va ravoqlar oralig'i tekis toshtaxtalar bilan to'ldirilgan. Movarounnahr me'morchiligida esa me'morlar asosiy qurilish materiali sifatida pishiq g'ishtdan keng foydalanishgan. Ravoqlar oralig'ini to'ldirishda esa ganchdan foydalanishni afzal ko'rishgan. Bu bilan ular mazkur tizimda muhandislik nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlikka erishibgina qolmay, unga ifodali bezak xususiyatlarini ham singlirishga erishishgan. Movarounnahr me'morchiligida yopiq murabba o'rniga asosiy ravoqlar oralig'ida keng va chuqur tokchalar yoki umuman ochiq joylar qoldirish asosida ichki ko'rinish ancha kengaytirilgan<sup>1</sup>.

Temuriylar davrida, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek homiyligi va ishtirokida aniq fanlar rivojida kechgan yuksak taraqqiyot me'morchilikda ham namoyon bo'lgan. Bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklar (Shohi Zinda, Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasi inshootlari, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasalari)ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi handasaviy tuzilmalarning o'zaro aniq nisbati olingan. Shuningdek, bu davrda qurilish materiallari, tuzilmalarining yangi turlarini takomillashtirishga va qurilish jarayonini yuksak darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda, Sharafuddin Ali Yazdiyning 1396 yilda Bog'i Dilkushoda yozgi saroy barpo qilinishi to'g'risida quyidagi hikoyasi e'tiborga molikdir: "Uning balandligi bir gazga yetar-etmas, koshinkor naqsh va qoplama ashyolarni tayyorlash boshlandi. Sangtaroshlar tosh yo'nishga, musavvirlar surat chizishga, duradgorlar yog'och o'yishga va eshik tayyorlashga kirishdilar. Palos to'quvchilarga esa xonalar va shohnishinlarni o'lchab chiqib, tegishli kattalikda palos to'qish buyurildi. Tunlari shamchiroq yoqib qo'yilar, har bir ishning o'z sarkori bor edi. Shunday uzunlikdagi va shunday baland

oxirlarida Samarqandda Amir Temur majmuasida bunyod etilgan Dor ush-shifo bunga yaqqol misol bo'ladi. Unda nafaqat hukmdor oilasi, balki saroy ahli, shahar ziyolilari va harbiy ayonlar ham davolanishi mumkin bo'lgan<sup>1</sup>. Hirotidagi eng mashhur Temuriylar davrida shifo maskanlariga Milkat og'o tomonidan qurilgan Dor ush-shifo (XIV asr oxiri), Alouddavla va Alisher Navoiy shifoxonalari (XV asr) misol qilib ko'rsatish mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan, mazkur shifo maskanlarining aksariyat qismida dorixonalar va tibbiyot maktablari ham mavjud bo'lganligi aniqlangan<sup>2</sup>. Xususan, Hirotidagi Injil daryosi bo'ylarida Alisher Navoiy tomonidan bunyod etilgan me'moriy majmuada "Shifoia" nomli kasalxona, uning yonida "Safoia" nomli hammom ham mavjud bo'lgan. Ushbu me'moriy majmua tarkibiga kirgan "Ixlosiya" nomli madrasa va "Xalosiya" nomli xonaqoh tibbiyot maktabi vazifasini bajargan. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan shifoxona esa mazkur tibbiyot maktabining ilmiy-tadqiqot markazi ham hisoblangan. Tadqiqotchilarning ta'kidlab o'tishicha, dongi ketgan mazkur shifo maskanining bosh hakimi Mavlono G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin bo'lib, bu shifoxonada nafaqat Hirot ahli, balki qo'shni hududlardan kelgan bemorlar ham davolanishgan<sup>3</sup>.

O'rta Osiyoda hammomlar ham ozodalik va sog'lomlashtirish markazlari sifatida qaralgan. Amir Temur va Temuriylar davrida hammomlari ham o'ziga xos qurilish uslubi va shakliga ega. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tipologik jihatdan takomillashgan ushbu davr hammomlarini bir necha turlarga bo'lish mumkin. Bular: guzar hammomlari, bozorlar, madrasalar, masjidlar va karvonsaroylar tarkibidagi hammomlar, ark hammomlari. Hammomlarning deyarli barcha turlari pishiq g'ishdan ixcham qilib qurilgan inshootlar bo'lib, bino-ning yarmi yer ostida joylashgan. Hammomlarning yer ustidagi qismi turli xil haroratni saqlab turuvchi gumbazlardan iborat bo'lgan va ularning aksariyat qismiga yorug'lik gumbaz markazida qo'yilgan darchadan tushib turgan. Poliga tosh plitalar yotkazilgan va ularning ostidan issiq havo yo'llari o'tgan. Issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan bu inshootlarning oqava suvlari maxsus yopiq ariqlar

<sup>1</sup> Уралов А.С. Из истории медицинских учреждений Средней Азии эпохи Темуридов // Общественные науки в Узбекистане, – Ташкент, 1999. – №1-2. – С. 65-69.

<sup>2</sup> O'sha muallif. Архитектура лечебно-целебных учреждений... – Б. 18.

<sup>3</sup> O'sha muallif. Больничные учреждения средневековой Средней Азии // Маскан. 1992. – №1, – С. 11-13.

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон худудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 182-183.

(tozor – kanalizatsiya quvurlari) vositasida shahardan tashqariga maxsus obpartavlarga chiqarilgan<sup>1</sup>. Me'moriy majmualarda bunyod etilgan hammomlar bir necha xonali bo'lib, ularda cho'milish xonalaridan tashqari, muolajaxona, sartaroshxona, dam olish xonalari ham mavjud bo'lgan. Shu kabi tuzilishga ega va bir yo'la bir qator vazifalarni bajaruvchi hammomlar sirasiga Samarqand Registonida Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan hammomni misol qilib keltirish mumkin. Manbalarda, uning poli qimmatbaho toshlar bilan bezatilgani, shuningdek, u bir dona sham harorati bilan isitilishi haqidagi ma'lumotlar yozib qoldirilgan<sup>2</sup>. Kamoliddin Behzod tomonidan Firdavsiyning "Shohnoma" va Nizomiyning "Xamsa"siga chizilgan miniatyuralarda ham ijtimoiy sohaga oid inshootlar tasvirlangan bo'lib, ulardan o'rta asr hammomlari to'g'risida ko'pgina ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Hozirda Britaniya muzeyida saqlanayotgan "Horun ar-Rashid va sartarosh" nomli miniatyurada ham o'rta asr hammomi tasvirlangan bo'lib, uning kirish xonasi, hordiq chiqariladigan yog'och ustunli ulkan zalidan zinapoyalar orqali pastga tushib boriladigan yo'laklari va alohida xonalari tasvirlangan<sup>3</sup>.

Amir Temur va Temuriylar saltanatining katta-kichik shaharlarida, xususan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qarshi, Turkiston, Balx, Hirot va boshqa shaharlarda hammomlarning barcha turlari (guzar, masjid va madrasalar majmuida hamda hukmdorlar saroyidagi hammomlar) qoldiqlari topib o'rganilgan. Samarqandda hammomlarni qurishda o'ziga xos qurilish rejasi qo'llanilgan bo'lib, ular sharqona hammomning barcha xususiyatlarini o'zida jamlagan. Bu yerda keyinchalik, XVIII–XX asr boshlarida bunyod etilgan hammomlar ham ko'p gumbazli inshootlar sirasiga kiradi. Ular ikki parallel anfilada shaklida qurilgan bo'lib, bir-biridan o'tiladigan xonalar majmuidan iborat bo'lgan (Xo'ja Abdurahim hammomi). Bundan tashqari, Buxoro me'morlari hammomlarni choyxonalar bilan birlashtirib qurgan bo'lsa, Samarqandda hammomlarni masjidlargacha yondosh

qaror vaziyat va ijodiy muhit asosiy sabab bo'lgan. Ushbu davrda mamlakatning turli burchaklarida tug'ilib o'sgan va o'ziga xos madaniyat egasi bo'lgan ilm ahli, hunarmand hamda usta-me'morlar poytaxt shaharlarga ko'chirib kelingani, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda ularning bilim va tajribalaridan keng foydalanilgani mamlakatni rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Temuriylar saltanati sarhadlarida madaniy aloqalar rivojini jadallashtirgan. Buning natijasida turli madaniyatlar sintezidan yaratilgan yangicha san'at asarlari yaratilgan. Avval boshdan bir qator amaliy san'at sohalariga oid bilim va tajribalar asosida rivojlantirilgan milliy me'morchilik, endilikda turli halqlarga oid an'analar bilan boyitilib, dunyoga mashhur me'morchilik namunalari buni bunyod etilishiga sabab bo'lgan<sup>1</sup>.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "Temuriylar davri me'morchiligi faqat foyda olishni ko'zlovchi qurilishdan farqli o'laroq, sof amaliy va kundalik turmush xarakteriga ega bo'lgan binolarga ham badiiy obraz timsolini bashx eta olgan. Ana shu jihatdan bu davr me'moriy san'ati avvalgi davrlarga nisbatan rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilgan. Bu yangilik dadil muhandislik-texnik vazifalar qo'yishda, yangi yechimlarni ishlab chiqishda, me'moriy bezaklarning boyligida ko'rinadi". Samarqandda bunyod etilgan inshootlarning qurilishida o'z davri uchun kashfiyot darajasidagi yangicha muhandislik konstruksiyalarining ishlatilishi bunga misol bo'ladi. Shu jumladan, mahobatli gumbaz tuzilishi ushbu davr yodgorliklarini bunyod etgan me'morlar yechimini topgan mas'uliyatli muhandislik vazifalaridan biri hisoblanadi. Amir Temur davri me'morchiligida gumbazlar tuzilishi avvalgidek ko'rinishga ega bo'lsa-da, ularning hajmi ortgan va shunga ko'ra qirralar oralig'i kengaytirilgan. Ular an'anaviy ravishda to'rt burchakli asosdan iborat bo'lgan va ravoq bag'arlari sakkiz qirrali ravoqqa o'tgan. Ushbu davrda, shuningdek, ikki qavatli gumbazlar ulug'vorligini oshirishga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshirilgan.

Mirzo Ulug'bek davri me'morchiligida esa gumbaz osti tuzilmalarning yangi turlarini ishlab chiqish va qo'llashga kirishilgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ular gumbaz tarhida o'zaro kesishuvchi ko'p qirrali shakllardan iborat bo'lgan. Ushbu davr inshootlari

<sup>1</sup> Аҳмедов Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 42.

<sup>2</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 45; Уралов А.С. Архитектура лечебно-целебных учреждений... – С. 25-28; О'sha muallif. Самарқанд шахрининг ўрта асрлардаги даволаш ва шифобахш муассасалари / Самарқанд шахрининг умумбашарий маданият тараққиёт тарихида тутган ўрни... – Б. 233-235.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Полякова Е.А., Рахимова З.И. Шарқ миниатюраси ва адабиёти. – 1-расм. Мусаввир Камолитдин Бехзод. "Хорун ар-Рашид ва сартарош". Ҳирот, XV аср охири, 1495 йилда қўчирилган. Британия музейи қўлёзмаси, Лондон, О, 6810 в. – Б. 27.

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 170-177.

bog'ig'a borib to'ylar berdi. Ustakorlarga to'nlar kiydurub, otlar mindurdi"<sup>1</sup>.

Amir Temurning qat'iyati, bir ishga bo'lgan e'tibori me'moriy obidalar mahobati va hashamatida ham o'z aksini topgan. Xususan, Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga bitilgan "Qudratimizni ko'rmoq istasang – binolarimizga boq!" degan yozuv fikrimizga dalil bo'ladi. Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligi yuksak darajadagi rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan bo'lib, bundan avval va keyin ham Movarounnahr hamda Xuroson me'morchiligi bu darajaga yetishmagan<sup>2</sup>. Ushbu davrda mamlakatning markaziy shaharlarida qat'iy me'moriy g'oyaga bo'ysungan o'rta asr shaharlari bunyod etilgan. Ularda mahobatli inshootlarni o'z ichiga olgan me'moriy majmualar shakllantirilgan, mavjudlari yangi ulug'vor inshootlar bilan boyitilgan. Ayniqsa, Temuriylar davlati poytaxt shaharlari: Samarqand va Hirot, shuningdek, hukmdorlarning e'tibori markazida bo'lgan Kesh va Buxoroda saqlanib qolgan ushbu davrga oid me'moriy obidalar bunga yaqqol misol bo'ladi. Ularni tadqiq etgan turli soha mutaxassisarlari tomonidan tarixiy obidalarni yaratgan xalq daholari mahoratiga yuqori baho berilib, usta-me'morlar bilim va tajribalari alohida e'tirof etilgan<sup>3</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davri shaharlarida bir qancha mahallalar guzarlarga birlashtirilgan. Bu davrda mahallalar shahar qurilishiga doir maxsus reja asosida bunyod etilmagan, balki asrlar mobaynida mahalliy aholi mansub bo'lgan tabaqa, ularning kasb-kori turiga qarab shakllangan. Shundan kelib chiqqan holda, shahar markazida kesishadigan markaziy shoh ko'chalardan tashqari, kichik tor va berk ko'chalar vujudga kelib, chigal tarmoqni hosil qilgan. Ammo bu manzara avvaldan qat'iy reja bilan qurilgan muhtasham me'moriy majmualar joylashgan markaziy shaharlar ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Aksincha ular bir butun mexanizmni vujudga keltirgan bo'lib, shahar hayotini harakatga keltirib turuvchi kuch vazifasini bajargan. Shu tariqa ushbu davrda shaharsozlik va me'morchilik madaniyati avvalgi davr an'analarini davom ettirgan holda yangi me'moriy uslub, mahobatli ko'rinish va hashamatli bezaklar bilan boyitilgan. Bunga avvalo Amir Temur davlatida vujudga kelgan bar-

qilib qurish an'ana tusiga kirgan. Temuriylar davrida Shahrisabzda barpo etilgan hammomlarning tuzilishi ham o'rta asr hammomlari qurilishi an'ansiga ko'ra, asosiy bino yer sathidan pastda qurilgan va ularning yuqori qimi (3/1) va gumbazlarigina yer ustid joylashgan. Hammom markazida uqalash xonasi, uning atrofida yuvinish honalari, pishiq g'isht yoki tosh terib ishlangan hovuzaklar, hordiq chiqarish uchun ishlangan dam olish va yechinib-kiyinish xonalari joylashgan. Hammom binosining usti katta-kichik gumbazlar bilan yopilgan. Gumbazlarning ayrimlari tepasida yorug'lik tushishi uchun ochiq darchalar ishlangan. Shu kabi o'ziga xosliklarni o'zida mujassam o'tgan hammomlar Shahrisabz Chorsusidan shimolda joylashgan Jilovxona mahallasidan topilgan. Ularning biri Amir Temur va Temuriylar davriga oid deb, taxmin qilinadi. Ushbu hammom hozirda ham ishlab turibdi. Shahrisabz hammomining sahni yondosh ko'chaning yuzidan ancha past, shuning uchun butun bino qurilgan paytidan buyon hosil bo'lgan madaniy qatlam ichra ko'milgandek tuyuladi<sup>1</sup>. Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasidagisog'lomlashtirish inshooti bo'lgan hammom yuqorida ta'rifi keltirilgan an'analar asosida qurilgan va hozirgacha asl qiyofasini saqlab qolgan<sup>2</sup>. Movarounnahr hududida hammomlar qurilishi asrlar davomida mahalliy usta-me'morlar tajribasi asosida shariat qonunlariga zid bo'lmagan ko'plab an'analar bilan yanada boyib borgan. Hammom hovuzaklari maxsus suvga chidamli qorishma (qir) bilan suvalgan va butun inshoot devori ganch bilan suvalib, sopol parchinlar bilan bezatilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida hammomlarni bezatishda ham moviy rangdan keng foydalanilgan<sup>3</sup>.

**Yo'lbo'yi inshootlari.** Amir Temur hukmronligi davrida ham yo'lbo'yi inshootlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan karvonsaroylarda yo'lovchilar tunash va xordiq chiqarishlari bilan birgalikda ulgurji va savdo munosabatlari amalga oshirilgan. Karvonsaroylar, odatda, yirik shaharlarda, muhim karvon yo'llari bo'yida barpo etilgan bo'lib, ular tuzilishiga, hajmiga va ayrim hollarda bajaradigan funktsiyasiga ko'ra ham bir-biridan farqlanadi. O'rta asrlarda karvon yo'llarida va savdo markazlari bo'lgan shaharlarda bunyod etilgan karvonsaroylar tuzilishi bir-biriga o'xshash bo'lib, ular to'rtburchak

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 221.

<sup>2</sup> Темур ва Улуғбек даври тарихи... – Б. 173.

<sup>3</sup> O'zMA R-2406-fond, 1-ro'yhat, 347-ish, 5-varaq.

<sup>1</sup> Шахрисабз минг йиллар мероси... – Б. 37-38.

<sup>2</sup> O'zMA R-2810-fond, 1-ro'yhat, 47-ish, 20 varaq.

<sup>3</sup> Ахмад Тонди. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Темуридов... – С. 59-62.

shakldagi ichki hovliga (ba'zi karvonsaroylar ikkita hovliga) va uning atrofida joylashgan yashash xonalariga ega bo'lgan. Karvonsaroylardagi ichki hovli bo'ylab ayvonlar ham qurilgani, yirik karvonsaroylarda savdogarlarning mahsulotlari saqlanadigan maxsus xonalar va hatto masjid ham bo'lgani ma'lum<sup>1</sup>. Karvon yo'llari bo'ylab joylashgan ijtimoiy inshootlardan yana biri sardobalardir. Ular Sharq mamlakatlarida ko'plab bunyod etilgan bo'lib, suv tanqis bo'lgan hududlarda yilning yog'in-sochinli mavsumida yomg'ir va qor suvlari asosida to'ldirilgan. Sardobalardan mahalliy aholi va yo'lovchilar yil bo'yi foydalanishgan. Amir Temur va Temuriylar davrida sardobalarni nafaqat karvon yo'llarida, balki ba'zi me'moriy majmualar tarkibida ham qurishga alohida e'tibor qaratilgan<sup>2</sup>.

**Sardobalar** me'moriy tuzilishi jihatidan bir-biridan aytarli farq qilmaydi. Aylana shaklidagi hovuz va uning ustini yopib turuvchi gumbaz shaklida qurilgan bu sardobalar gumbazida bir nechta derazalar, ular pastida esa suv tushishi uchun mo'ljallangan maxsus teshiklar va tepasida aylana shaklidagi tuynuk bor. Bundan tashqari, sardoba hovuzidagi suvdan olish uchun mo'ljallab qoldirilgan maxsus kirish joyi mavjud. Sardoba suvini salqin holda saqlash uchun deraza va eshik doimiy havo aylanib turadigan qilib qurilgan. Sardoba ichida yorug' tushishi va doimo haroratni bir xilda saqlash uchun kunchiqar (Sharq) va kun botar (G'arb) tomonlarga tuynuklar qo'yilgan. Sardobaning quyi eshigi shamol oqimiga teskari tomonga qaratib qurilgan. Hovuzga suv kirishi uchun tarnov yasalgan. Sardoba yonida karvonsaroy joylashgan, yo'lovchilar hordiq chiqarib, olis yo'lga suv g'amlab olganlar<sup>3</sup>. Sardobalarning barchasi asosan yomg'ir suvi va qor erishidan hosil bo'lgan suvlar bilan to'ldirilgan. Bunday suvlar maxsus ariqchalar orqali sardoba hovuziga kelib tushgan. Ba'zi sardobalarga suv daryo va boshqa suv manbalaridan maxsus kanalchalar orqali ham keltirilgan. Sardobadagi suvni buzilishdan saqlashda va sardobada

likda shakl mahobatli va bezaklar hashamdor hamda nafis bo'lishi hokimiyatni ulug'lash vositasi sifatida qo'llanilgan. Ulug'vor inshootlarni bunyod etuvchi me'mor va hunarmandlarga temuriy hukmdorlar tomonidan katta e'tibor qaratilgan. "Temur tuzuklari"da keltirilishi-cha, jamiyat a'zolari 12 toifaga bo'lingan bo'lib, saroy me'morlari 8-toifaga kiritilgan. Bunda usta-me'mor muhandislar to'g'risida quyidagilar keltirib o'tilgan: "Sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir... muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog'u bo'stonlarning loyiha-tarhini chizdirdim<sup>1</sup>. Yana amr etdimki, kattakichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona<sup>2</sup> solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor ul-imorat<sup>3</sup> va dor ul-adolat<sup>4</sup> qursinlar"<sup>5</sup>. Ushbu davrda bunyodkorlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, buyurtmachi ya'ni hukmdor talabining qay darajada bajarilishi bunyodkorlik ishlariga mas'ul shaxslarning hayot-mamot masalasini hal etgan. Temuriylar davriga oid Samarqanddagi Jome' masjidi va Saroymulkxonim madrasasi haqida "Zafarnoma"da quyidagilar keltirib o'tilgan: "Masjidi jum'akim hazrat o'zi solib erdi, borib tavarruj qilib ko'rdikim, eshikni kichik solibdurlar. Buyurdilarkim "Buzib, ulug'roq solsunlar!". Saroymulkxonim solg'an madrasakim, masjidi jome' aning muqobilida tutur". Bundan norozi bo'lg'an Amir qurilishga mas'ul me'morlar Xoja Muhammad Dovud va Muhammad Jalldarni qatl ettirdi<sup>6</sup>. "Sohibqiron g'oyat ihtimomidinkim, masjid ishida ta'allul bo'lmag'ay, o'zi har kun kelib ishlag'onlar boshig'a turib, ihtimom qilur erdi. Masjidi jum'ada to'rt yuz sakson ustun toshdin yasab, har birining uzunlig'i yetti qari erdi. Va saqfini toshdin yasadilar va to'rt yonida to'rt minora yasadilar. Masjid tugagandin so'ng Dilkusho

<sup>1</sup> Немцова Н.Б. По караванным дорогам Бухарской степи // Великий шелковый путь. Культура и традиции. Прошлое и настоящее: Материалы международной научно-теоретической конференции – Ташкент, 2006. – С. 253; Эргашев Ж.Ю. Бухоро хонлиги карвонсаройлари хакида айрим мулохазалар // Хоразм Маъмун академиятси ахборотномаси. – Хоразм, 2019, – №1. – Б. 64.

<sup>2</sup> Хамидова М. Ўзбекистон худудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 135-138.

<sup>3</sup> Массон М.Е. Проблема изучения цистерн - сардоба... – С. 11; Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши – Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. Қарши, 2005. – Б. 53.

<sup>1</sup> Темур тузуклари / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Караматов таржимаси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 66.

<sup>2</sup> *Langarxona* – yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy; kamabag'al, yetim-esirlarga oziq-ovqat beriladigan maskan, g'aribxona.

<sup>3</sup> *Dor ul-imorat* – hukmdor saroyi.

<sup>4</sup> *Dor ul-adolat* – adolat saroyi, qozixona.

<sup>5</sup> Темур тузуклари... – Б. 100.

<sup>6</sup> Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома... – Б. 289.

ko'plab qimmatli ma'lumotlarni beruvchi madaniy meros namunalari sirasiga kiradi. O'tmishda jamiyat a'zolarining turli sohalaridagi ehtiyojlarini qondirib kelgan tarixiy inshootlar usta-me'morlar tomonidan asrlar davomida takomillashtirib kelingan me'morchilik an'analari, qurilish usullari va mahalliy xalqlar amaliy san'atining qator turlariga oid bilim va tajribalardan keng foydalanilgan holda bunyod eilgan. Ularni o'rganish orqali Movarounnahr hududlarida nafaqat me'morchilik san'ati, balki tasviriy san'at, mahalliy xalqlar hunarmandchilik, xattotlik, haykaltaroshlik san'atining o'sha davrdagi rivoji va tanazzuli izlarini ko'rish mumkin. Ular turli davrlarga oid me'moriy obidalarda o'z aksini topgan. Ya'ni turli davrlar me'morchiligi o'zining qurilish uslublari va bezaklari umumiy o'xshashliklar bilan birga bir-biridan sezilarli darajada o'ziga xosliklar bilan farq qiladi. Xususan, qadimgi davr me'morchiligida jonli mavjudotlar, inson qiyofasi, ov manzaralari ko'proq tasvirlangan yoki ularda shu mavzudagi haykaltaroshlik namunalaridan keng foydalanishga e'tibor qaratilgan. Masalan, Samarqanddagi Afrosiyob, Surxondaryodagi Dalvarzintepa, Buxorodagi Varaxsha yodgorliklari bunga yaqqol misol bo'ladi. O'rta asrlarda esa bu mavzudan chekinish holatlari kuzatiladi. Ya'ni VIII–XIX asrlarda Sharq mamlakatlarining aksariyat qismida islom dini va madaniyatining keng tarqalishi hamda rivojlantirilishini bunga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin. Shariat tartib-qoidalariga ko'ra ham jonli mavjudotlar, shu jumladan, inson qiyofasi obrazlarini tasvirlashga ta'qiqlangan. Buning natijasida mazkur mavzuga oid me'moriy bezak turlari keskin qisqarib, ularning o'rniga Movarounnahr xalqlari me'morchiligida islamiy (o'simliksimon), girix (geometrik), epigrafik (yozuvli, asosan arab imlosida), astral jismlar (oy, quyosh, yulduzlar) tavsirlangan naqshlardan ko'p foydalanishga e'tibor qaratilgan. Bu davrda zoomorf (jonli mavjudotlar tasviridagi) naqshlar kam uchraydi, ammo ular butunlay yo'qolib ketmagan. Ya'ni ular to'liq shaklda kamroq, aksariyat hollarda jonli mavjudotlarning ayrim qismlari (bosh, ko'z, tumshuq, qanot, qo'llari)ni tasvirlash ko'rinishidagi bezaklarda ifoda etala boshlangan. Samarqanddagi Registon maydoni madrasalari hamda Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madrasalari peshtoqlaridagi bezaklar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'ladi.

Umuman olganda, milliy me'morchilik tarixida Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligi alohida o'rin tutgan rivojlanish davri hisoblanadi. Ushbu davrda hukmdorlar irodasiga binoan me'morchi-

havo almashib turishini ta'minlashda sardoba gumbazidagi derazalar va tepasidagi tuynugi katta rol o'ynaydi. Sardobalarning kirish joyi shimol yoki shimoliy-g'arb tarafda bo'lib, ulardan 6-8 metr gacha uzoqlikdan sardoba hovuzi tubiga olib tushuvchi zinapoyalar boshlangan. Zinapoyalar usti uzun yo'laksimon qilib berkitilgan. Tabiiy to'yinuvchi sardobalar: qor-yomg'ir suvi o'zo'zidan sardoba hovuzini to'ldiradi. Sun'iy to'yintiriluvchi sardobalar: quduq, koriz, daryo, ariq suvi bilan to'ldirilgan. Aralash tarzda to'yinuvchi sardobalar: qor-yomg'ir, ariq, paynov suvi hisobidan to'ldirilgan, bu turdagi to'ldiriluvchi sardobalar ko'proq daryo bo'ylarida, sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlarga yaqin joyda joylashgan<sup>1</sup>.

Arxeologik tadqiqotlar asosida XV asrda Amir Temur va Temuriylar davlatining amalda ikkita poytaxti bo'lib, ularni qo'shni hududlar bilan bog'lovchi savdo yo'llari bo'ylab ko'plab yo'lbo'yi inshootlari bunyod etilgan. Hirotidan Samarqandga olib kelgan yo'llarning birinchi qismi Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlar orqali o'tgan. Xususan, bu davrda Xurosonning bosh shahri bo'lgan Hirot Sabzak ko'tali – Qal'ai Nov – Murg'ob – Maymana – Andxoy – Kelif yo'nalishi orqali Movarounnahr shaharlari bilan bog'langani aniqlangan. Shuningdek, Kelif kechuvidan hamda Termizdan Samarqandga o'tuvchi yo'l Qashqadaryo vohasidagi Kesh (Shahrisabz) yoki Qarshi shaharlari orqali o'tgani haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu davrda ko'pgina Yevropa va Osiyo davlatlari bilan ham savdo-madaniy aloqalar rivojlantirilgan bo'lib, poytaxt shahar Samarqandni janubda Hindiston, Xuroson, Eron, Iroq, Misr, shimoli-g'arbda Oltin O'rda shaharlari, sharqda Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bog'lovchi muhim xalqaro yo'llar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Markaziy Osiyo savdo yo'llari tarixi tadqiqotchisi O'. Mavlonovning ta'kidlab o'tishicha, "Amir Temur davrida barcha yo'llar Samarqandga olib borgan"<sup>2</sup>. Shubhasiz, ushbu yo'llar bo'ylab qurilgan yo'lbo'yi inshootlari qurilishi soni va ularda ko'rsatilgan xizmatlar jihatidan boshqa davrlarga nisbatan yuqori darajada bo'lgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson me'morchilik maktablari asrlar davomida rivoj topgan milliy me'morchilikning umumiy o'xshash an'analari davom ettirish bilan birgalikda, har biri o'ziga xos hududiy farqlarga ega bo'lgan. Shuning-

<sup>1</sup> Эргашев Ж.Ю. Savdo йўлларида сардобаларнинг аҳамияти хусусида... – Б. 68-69.

<sup>2</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари... – Б. 181-182.

dek, ushbu davr me'morchiligi sohaga oid yuqori darajadagi yutuqlar bilan boyitilgan. Temuriylar saltanati hududlarida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar o'z mahobati va hashamati bilan boshqa davr me'morchiligidan yaqqol ajralib turishi bunga misol bo'la oladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu davrda Samarqand me'morchilik maktabi o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tarilgan. Xususan, milliy me'morchilik-da qo'llanilgan me'moriy konstrukt-siyalar murakkabligi bunga yaqqol misol bo'lib, binolar qurilishida qo'llanilgan yangi uslublar sohaga oid kashfiyotlar darajasiga ko'tarilganidan darak beradi (Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Turkiston va Hirot) Ushbu davrda bunyod etilgan imoratlar mahobatli ko'rinishi hamda ularda bitilgan me'moriy bezaklarda o'z aksini topgan. Amir Temur tomonidan boshlangan keng ko'lamli bunyod-korlik ishlari uning vorislari davrida munosib tarzda davom ettirilgan (Shoxruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro va Sulton Badiuzzamon). Ayniqsa, o'z davri uchun kashfiyot sanalgan me'morchilik namunasi – Mirzo Ulug'bek rasadxonasining bunyod etilishi, ushbu davrda nafaqat me'morchilik balki ilm-fanning boshqa sohalari ham benihoya yuksak darajaga ko'tarilganidan darak beradi.

### **III BOB. TEMURIYLAR DAVRI ME'MORIY AN'ALARINING O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIGI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI**

#### **III.1. Temuriylar davrida me'morchilik maktablari taraqqiyoti va an'analari**

Tarixiy-me'moriy obidalar dunyo xalqlari madaniy merosining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Asrlar mobaynida insoniyat tarixi, madaniyati, san'ati va turmush tarzi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan ushbu obidalar hozirgi kunda turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojini ta'minlab beruvchi omillardan biri sifatida ham qo'llanilmoqda. Jahon xalqlari tarixiga oid moddiy manbalar sirasiga kiritilgan arxeologik hamda arxitektura yodgorliklari insoniyat yaratgan madaniyatlar rivoji, tanazzuli va madaniy aloqalari yo'nalishlarini yaqqol ko'rsatib turuvchi tarixiy dalillarni o'zida aks ettiradi. Shu sababli ularni asrash, chuqur o'rganish, unumli foydalanish hamda kelajak avlodga munosib tarzda yetkazib berish maqsadida YuNESKO tomonidan "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati" tuzilgan. Ushbu ro'yxatga yer sharining turli burchaklarida bunyod etilgan minglab osoru-atiqalar kiritilgan. Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Movarounnahr hududida barpo etilgan qator tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarning mazkur ro'yxatga kiritilgani ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan yuksak madaniyat va yaratuvchanlik mahoratidan darak beradi. Xususan, O'zbekistonning "ochiq osmon ostidagi muzeylar", deya nom olgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlari hamda ularda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar ham mazkur ro'yxatdan o'rin olgani e'tiborga molikdir.

Mutaxassislar tomonidan me'morchilik nafaqat qurilish san'ati mahsuli, balki bir qator amaliy san'at namunalari majmuining birlikda qo'llanilishidan yaratilgan san'at asari sifatida e'tirof etiladi. Me'moriy obidalar asrlar davomida turli sohalarda erishilgan yutuqlar va orttirilgan tajriba natijalarini o'zida namoyon etadi. Ular dunyo xalqlari madaniyatining ko'rgazmali namoyishida tarixiy manba sifatida ham alohida o'rin tutishi bilan o'ziga xosdir. Sharqona me'morchilik an'analari asosida bunyod etilgan Movarounnahr me'moriy yodgorliklari ham mahalliy xalqlar moddiy-ma'naviy madaniyati to'g'risida

43 COM 7A.44 adopted at the 43rd session of the World Heritage Committee (Baku, Azerbaijan). 26 January, 2021.  
<https://backend.madaniymeros.uz/media/uploads/docs/shahrisabz>

### III. Манбалар

1. Абу Бакр наршахий. Бухоро тарихи / Масъул мухаррир А. Ўринбаев. Форс тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1991. Б. 82-174.
2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн. ЎЗР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. №5376.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II ж., 1-қ. / Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳли луғатлар А. Ўринбоевники. – Тошкент, 1969. – 464 б.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II-китоб. 1-қисм. 1405–1429 йиллар воқеалари / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II-китоб. 2 ва 3-қисмлар. 1429–1470 йиллар воқеалари / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Географик номлар изоҳли кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
6. Абу Тоҳирхожа. Самария, ЎЗФАШИ қўлёзмаси, инв. № 412.
7. Абу Тоҳирхожа. Самария / Абдулмўмин Сатторий таржимаси, ЎЗФАШИ қўлёзмаси, инв. № 600.
8. Абу Тоҳирхожа. Самария. Описание древностей и мусульманских святин Самарканда Абу Тахир-ходжи / перев. В.Л. Вяткина. СКСО VI. – Самаканд, 1898. – С. 153-259.
9. Абу Тахир-Ходжа. Самария. Сочинение Абу-Тахир-Ходжи, персидско-таджикский текст, приготовленной к печати Н.И. Веселовским. С предисловием и приложением рисунков. – СПб, 1904. – 55 с.
10. Абу Тоҳирхожа. Самария / Таҳрир ҳайъати: Б. Аҳмедов ва бошқалар. – //Мерос туркумидан. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 7-81 с.
11. Абд-ур-Рауф Фитрат. Рассказы индийского путешественника (Бухара как она есть) / Перевод с персидского А.Н. Кондратьева. – Самарканд, 1913. – 65 с.

larida turli davrlarda bunyod etilgan tarixiy inshootlar me'moriy bezak san'ati an'analari hamda maftunkorligini ko'rsatib beruvchi vosita hamdir. Nozik va nafis ko'rinishga ega ganchkori bezaklar Movarounnahr tarixiy yodgorliklarining deyarli barchasida ma'lum bir o'rinda ishlatilgan. Ular sharqona me'morchilik taraqqiyoti rivojida o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston me'morchilik maktablari qadimiy an'analari tarixini tadqiq etgan olim S.S.Bulatovning ilmiy ishlarida milliy me'morchilikda keng qo'llanilgan ganchkorlik san'atiga madaniy aloqalarning ta'siri masalasi ham yoritib berilgan. Muallifning tadqiqotlarida milliy me'moriy yodgorliklar ganchkori bezaklari va qo'shni davlatlarda ganchkorlik san'ati masalasiga alohida tadqiq etilgan. Ganchning tarixiy inshootlarni bezatishdagi ahamiyatini tadqiq etarkan muallif, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "Milliy me'moriy yodgorliklarni bezatishda ganchkorlik katta ahamiyatga egadir. Har qanday binoni bezatishda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi turini tanlash hamda qo'llash muhim. Kichik xonaga mayda tekis o'ymakor va unga mos bo'lgan pardoz turi, katta mehmonxonalar (zallar)ga esa yirik yoyma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi. Ganch o'ymakorligi yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, qirma, zamini ko'zguli, zamini rangli o'yma, chizma pardoz panjarasimon o'yma, zanjira, hajmli o'yma turlaridan iborat. Bundan tashqari ganch o'ymakorligi zaminli va zaminsiz o'yma uslublariga bo'linadi"<sup>1</sup>.

Movarounnahr tarixiy yodgorliklarida ganch o'ymakorligining sanab o'tilgan barcha turlari ishlatilgan. Xususan, **zaminli o'yma** yirik binolarning fasadlari va katta mehmonxonalarni bezatishda qo'llanilgan bo'lib, o'yma naqshning chuqurligi 2-3 sm, zamini butun yuzaning 15-30 foizini egallaganini ko'rish mumkin. **Yirik o'yma** ganch bezakli namunalar qadimiy tarixiy yodgorliklarda ko'p uchraydi. Masalan, Termizning IX–X asrlarga, Samarqandning X asrlarga oid tarixiy me'moriy yodgorliklari bunga misol bo'ladi. Katta hajmli o'yma ganchkori bezaklar asosan haykalsimon, muqarnas, qubba kabi me'moriy bezaklarda ko'p ishlatilgan. Movarounnahrda Islom dini ta'limoti tarqalgunga qadar yaratilgan me'moriy yodgorliklarda haykalsimon ko'rinishga ega katta hajmli ganchkori bezaklar ko'p ishlatilgan. Misol uchun, Buxorodagi Varaxsha

<sup>1</sup> Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати... – Б. 22.

yodgorligini ko'rsatib o'tish mumkin. Muqarnas va qubba esa o'rta asrlarda keng tarqalgan.

**Muqarnas** (stalaktit karniz) – ishqor, ohak tomchilari shaklidagi bo'rtma qoplama, murakkab me'moriy naqsh turi bo'lib, asosan gumbaz, yarim gumbaz, mehrob, taxmon, ravoq va ustunlarning yuqori qismini bezatishda keng qo'llanilgan. U girihsimon ravoqli va mehrobsimon kosachalardan tashkil topgan. Muqarnas VII–VIII asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, O'rta Osiyo va Sharq me'morchiligiga xosdir. Ayniqsa bu hajmli me'moriy bezak turi O'rta Osiyo me'morchiligida XV–XVII asrlarda keng qo'llanilgan. Uning kalla-muqarnas (asosan ustunlarning yuqori qismini bezatishda keng qo'llanilgan), iroqi (ravoqchalarning o'zaro kesishishi natijasida hosil qilingan sharafta) araqi va pochabori (ko'pburchakli geometrik naqshlar uyg'unligi aks etgan karniz) kabi turlari mavjud. Muqarnas shuningdek, binoda konstruktiv rol ham egallagan. U gumbaz chetlari, karniz plitasini ko'tarib turuvchi ravoq, gumbaz konstrukt-siyasidan ustunlarga ko'chishda asos vazifasini bajargan. Qadimda muqarnaslar pishiq g'isht va toshdan yasalgan. Keyinchalik esa ularni yasashda ganchdan keng foydalanilgan. Ushbu uslub qo'llanilgan me'moriy yodgorliklar Movarounnahrning barcha hududlarida uchraydi. Masalan, Samarqanddagi Bibixonim jome' masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda me'moriy majmuasi inshootlari, Registon me'moriy majmuasidagi madrasalar, Buxorodagi Minorai Kalon, Mirzo Ulug'bek madrasalari, Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasi inshootlari va boshqalarni keltirib o'tish mumkin<sup>1</sup>.

Movarounnahr hududlarida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarda eng ko'p ishlatilgan ganchkori bezakning yassi o'yma uslubi asosan binolarning ichki bezaklarida keng qo'llanilgan. Ushbu uslubdagi bezaklar asosan yodgorliklarning kichik xonalarini bezatishda foydalanilgan. **Qirma** pardoz X asrlarda paydo bo'lgan. Bu bezak uslub Buxoro va Samarqand me'morchilik maktablari bezak san'atida alohida ajralib turadi. Buni ayniqsa, ushbu shaharlarda XIV–XVI asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar misolida ko'rish mumkin. Qirma uslubi binolarning ichki va tashqi me'moriy bezaklarida keng qo'llanilgan. O'yma ganchkori naqshning zaminini ko'zga tashkil etgan bezak turi XIX asr oxiri–XX asr boshlarida keng tarqalgan. Bu

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги ПҚ-426 сонли Қарори. 2006 йил 25 июль. <https://lex.uz/docs/1161968>

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Бухоро шаҳрининг тарихий қисмидаги маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш масалалари тўғрисида”ги 191-сонли Қарори. 2007 йил 11 сентябрь. <https://lex.uz/docs/1268825>

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тошкент шаҳрининг 2200 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги ПҚ-828 сонли Қарори. 2008 йил 2 апрел. <https://www.lex.uz/uz/docs/-1378164>

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2020 йилгача Бухоро шаҳридаги маданий мерос объектларидан замонавий фойдаланиш учун тадқиқ этиш, консервация, реставрация қилиш ва мослаштириш бўйича Давлат дастури ҳақида”ги 49-сонли Қарори. 2010 йил 3 март. Халқ сўзи газетаси, 2010 йил 5 март.

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2015 йилгача Самарқанд шаҳридаги маданий мерос объектларидан замонавий фойдаланиш учун тадқиқ этиш, консервация, реставрация қилиш ва мослаштириш бўйича Давлат дастури ҳақида”ги 164-сонли Қарори. 2011 йил 7 июнь // Халқ сўзи газетаси, 2011 йил 8 июнь.

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қашқадарё вилоятининг Шахрисабз шаҳридаги объектларни қуриш ва реконструкция қилишга доир комплекс чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги 31-сонли Қарори. 2014 йил 20 февраль // Халқ сўзи газетаси, 2014 йил 21 февраль.

12. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. 2017 йил 7 февраль. <https://lex.uz/docs/3107036>

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 мартдаги “2018–2019 йилларда Самарқанд вилоятида туризмни янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/3827576>

14. State of conservation report by the state party (Uzbekistan) “Historic centre of Shakhrisayabz” (Ref. 885) // In response to Decision

<sup>1</sup>Batafsil qarang: Ноткин И.И. Стalakтиты XIV в. из ансамбля Шах-и Зинда / Зодчество Узбекистана... – С. 239-254; Ремпель Л.И. Далекое и близкое... – С. 199-216.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олий-жаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбе-кистон, 2017. – 488 б.

2. Мирзиёев Ш.М. “Марказий Осиё – жаҳон цивилизациялари чоррахасида” мавзусидаги Халқаро илмий-анжуманда сўзлаган нутқи. 2021 йил 15 декабрь. <https://xs.uz/uzkr/post/markazij-osiyo-zhahon-tsivilizatsiyalari-chorrahasida-khalqaro-madaniyat-forumi>

3. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон маданий мероси – янги Ренессанс пойдевори” мавзусидаги IV халқаро конгресс материллари.

4. [https://uzbekembassy.com.my/uzb/news\\_press/uzbekistonning\\_madaniy\\_merosi\\_yangi\\_renessans\\_poydevori\\_iv\\_xalqaro\\_kongressi](https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/uzbekistonning_madaniy_merosi_yangi_renessans_poydevori_iv_xalqaro_kongressi)

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Бухоро шахрининг 2500 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги 6-сонли Қарори. 1996 йил 3 январь. <https://lex.uz/docs/1618194>

2. Ўзбекистон Республикаси “Маданий мерос объект-ларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни. 2001 йил 30 август. <https://www.lex.uz/acts/25461>

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Самарқандда Хўжа Ахрор Валийнинг 600 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги 143-сон Қарори. 2004 йил 25 март. // Халқ сўзи газетаси, 2004 йил 26 март.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шоҳи Зинда ёдгорлик мажмуасида қайта тиклаш ва ободонлаштириш ишларини ташкил этиш тўғрисида”ги 337-сонли Қарори. 2004 йил 16 июль. <https://lex.uz/pages/1150134>

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қарши шахрининг 2700 йиллигини нишонлашга доир қўшимча чоратadbirlar тўғрисида”ги ПК-135-сонли Қарори. 2005 йил 26 июль. // Халқ сўзи газетаси, 2005 йил 27 июль.

usul Buxoro me'morchiligida keng qo'llanilgan. Misol uchun, Sitorai Moxi-Xosa saroyining “oq uy” (xonai safed) xonasi me'moriy bezaklari aynan shu uslubda bajarilgan. Ushbu uslub asosida ganchkorlik uslublarining boshqa turlariga nisbatan kam mehnat sarflab, ajoyib va betakror me'moriy bezakni yaratish mumkin bo'lgan. Shuningdek, bunda bajarilgan me'moriy bezak o'zining nafis hamda ko'rkamligini yo'qotmagan, aksincha, inshootga o'ziga xos joziba baxsh etgan<sup>1</sup>.

Usta me'morlar tomonidan me'moriy bezaklar badiiyligi va jozibasini oshirishda zamini rangli o'yma uslubi qo'llanilgan. O'yma ganchkori naqshni rangli bo'yoqlarga bo'yash asosida bezatish XIX–XX asr boshlarida keng qo'llanilgan. Chizma uslubi esa yorug' xonalarni bezatishda keng qo'llanilgan bo'lib, ko'pincha hoshiya bezaklarini yaratishda foydalanilgan. Panjarasimon o'yma tarixiy yodgorliklardagi tokcha va tuynuklarni bezatishda keng qo'llanilgan. Ushbu uslubning boshqalaridan farqi shundaki, u ganch taxtaning ikki tomoniga bir xil shakldagi o'yma naqshlarning tushirilishi asosida bajariladi. Panjarasimon o'yma uslubi milliy me'morchilikda qadimdan to hozirgi kungacha keng qo'llanib kelinmoqda. Ushbu uslubda bezatilgan me'moriy yodgorliklarni ham respublikamizning turli hududlarida uchratish mumkin. Misol uchun, Buxorodagi Varaxsha yodgorligi (VIII asr), Mir Arab va Abdulloxon madrasalari (XVI asr), Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi yodgorliklari (XV asr), Xivadagi Muhammad Rahimxon (XIX asr) madrasalarida uning ajoyib namunalarini ko'rish mumkin. Panjarasimon uslub asosida yaratilgan nashqlarning aksariyat qismi geometrik, o'simliksimon va nishon ko'rinishida ekanligini ko'rish mumkin<sup>2</sup>.

Movarounnahr me'moriy yodgorliklari ganchkori bezaklarining hoshiya qismini bezatishda sharafo, panjara, zanjiradan keng foydalanilgan. **Sharafa (karniz)** binolarning devor va shift oralig'ida ishlatiladigan murakkab o'yma naqshli me'moriy bezak turi bo'lib, undan minoralar, taxmon, mehroblarning tepa qismida keng ishlatilgan. Sharafaning tuzilishiga ko'ra katakli, ko'p qirrali, prizma, ara-

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 185-186.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: Денике Б.П. Искусство Средней Азии. – М., 1927. – 56 с.; О'sha muallif. Архитектурный орнамент Средней Азии. – М–Л., 1939. – 228 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии... – С. 7-36; Ремпель Л.И. Далекое и близкое... – С. 199-216.

lash va boshqa shakllari mavjud. Milliy me'morchilikda sharafo ya'ni karniz yog'och, pishiq g'isht, ganchdan ishlanib, binolarning ichki va tashqi tomonlarini bezatishda birdek foydalanilgan. Masalan, Samarqanddagi Registon maydoni va Shohi-Zinda me'moriy majmuasi yodgorliklarida mazkur me'moriy bezakning turli shakllari keng qo'llanilgan.

**Zanjira** namoyon, tokcha, eshik, deraza, taxmon, izoralarni bezatishda ramka vazifasini bajargan. Zanjira naqshlarining asosini ham geometrik va o'simliksimon shakllar tashkil etadi. Zanjiraning g'ishtin, arazlagan, chashmi bulbul, qo'sh zanjira, ruta zanjira (asosan qo'yma asosida tayyorlangan) va boshqa turlari mavjud.

**Panjara** ham ganchkori me'moriy naqsh turi bo'lib, Movarounnahr me'morchiligida keng qo'llanilgan naqsh turidan biridir. Undan ham me'moriy yodgorliklarning ravoq, deraza tokchalarini bezatishda, xaziralarda xilxonasini ajratib turuvchi to'siq bezagi sifatida keng foydalanilgan. Panjaraning jingalak, kabira, moki suvora va boshqa turlari mavjud. Mutaxassis olimlarning ta'kidlashicha, mazkur bezaklarning barchasi chuqur o'yma naqsh turlariga kiritilgan<sup>1</sup>.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, chuqur o'yma ganchkori naqshlar aksariyat holllarda tarixiy inshootlarni alohida qismlari hisoblangan ichki detallarini hamda binolarning tashqi tomonini bezatishda keng qo'llanilgan. O'ymaning chuqurligi 2-3 sm bo'lib, ko'pincha ganchkori bezaklarga rang berilmagan. Temuriylar davri me'morchiligida rang berilmagan ganchkori bezaklar bilan birga umumiy bir rang berilgan katta hamjmlı bezaklar ham uchraydi. Xususan, bu davrda ganchkori bezaklar ustida ichki bezaklarda tilla rang, tashqi bezaklarda esa asosan moviy hamda yashil ranglar berilganini ko'rish mumkin. Ushbu naqsh turi yorug'-soya o'yiniga boy bo'lib, kunning turli vaqtlarida turlicha ko'rinish beradi. Binolarning me'moriy bezaklari nafaqat bezak, balki ularning qulayliklarini oshiruvchi vosita sifatida ham qadrlangan. Xususan, Movarounnahrning turli hududlarida o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi inshootlarni bunyod etishda tabiiy sharoitga katta e'tibor qaratilgan. Tabiiyki, bunda uning bezaklarida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, binolar qishda issiq, yozda salqin, yorug', keng va chiroyli bo'lishi nazarda tutilgan. Misol uchun, binolarning mehmonxonalari salqin va

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklarining Movarounnahr hududidan tashqaridagi namunalarini o'rganishga oid tadqiqotlarni olib borish;

Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarning tarixiy ahamiyatini targ'ib qiluvchi, ularning tarixiy qiyofasini jonli tasavvur etishda muhim bo'lgan 4D formatdagi hujjatli filmlar jamlanmasi va "smart-muzey"larni yanada ko'paytirish;

Ajdodlarimizdan qolgan me'moriy merosdan yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, respublikada ichki va tashqi turizmni rivojlantirish hamda ulardan mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон худудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 187-188.

jome' masjidi, Amir Temur maqbarasi, Ishratxona, Ruxobod, Oqsaroy maqbaralari, Shahrisabzdagi Oqsaroy yodgorligi, Dor ut-Tilovat, Dor us-Saodat me'moriy majmualari, Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madrasalarini muhofaza qilish va chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, tiklash-ta'mirlash ishlari aynan shu davrda boshlangan. Natijada yuqorida nomlari keltirib o'tilgan tarixiy obidalar hozirgacha saqlanib qolgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Movarounnahrning aksariyat hududlarini o'z ichiga olgan O'rta Osiyo xalqlari me'moriy merosini o'rganish maxsus davlat tashkilotlari (RIAK, TKLA) tomonidan nazoratga olingan. Mazkur siyosat O'rta Osiyo hududlarida sovet hokimiyatining o'rnatilishi natijasida vujudga kelgan davlat muassasalari tomonidan (Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkoms-taris, O'MMYoSQ) yanada kengroq amalga oshirilgan. Mustaqillik yillarida mazkur masala dastlab O'rta Osiyo davlatlari Madaniyat vazirliklari (Xususan, O'zbekistonda dastlab O'zR MV, hozirda esa O'zR TMMV) tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davri obidalari YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilib, ularning bir qismi "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati"ga kiritilgan.

O'tgan davr mobaynida Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr (O'rta Osiyo hududlari)da bunyod etilgan obidalarni o'rganish, asrash va ulardan foydalanish borasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, salbiy oqibatlarga olib kelgan xato va kamchiliklar ham kuzatilmoqda. Jumladan, me'moriy yodgorliklarni tabiiy ofatlardan himoyalash tizimining talab darajasida emasligi, ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida ularga jiddiy zarar yetish holatlari hozirga qadar kuzatilmoqda. Yodgorliklarni shoshqaloqlik bilan, milliy me'morchilik an'analarga rioya qilmasdan tiklash natijasida esa obidalarining tarixiy qiyofasi yo'qotilmoqda. Xususan, Toshkentdagi Zangiota me'moriy majmuasi hamda Shahrisabz tarixiy shahar markazida olib borilgan rekonstruktsiya ishlaridagi xatoliklar fikrimizga dalil bo'ladi.

Mazkur masala yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tish mumkin:

Amir Temur va Temuriylar davrida rivoj topgan milliy me'morchilik maktablari tarixini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarni davom ettirish;

yorug' bo'lishi zarur bo'lgani sabab, ular asosan shimolga qarab qurilgan. Mehmonxona devorlarida deraza, tokcha, taxmonlar uchun joy qoldirilib, ular yorqin ganchkori naqshlar bilan bezatilgan. O'rganilgan tarixiy yodgorliklarning me'moriy bezaklari asosan uch qismga bo'lingan. Ya'ni, devorning pastki qismi izora, o'rta qismini tokcha, taxmon, namoyon va dahana bilan, yuqori qismi esa sharafa bilan bezatilgan. Taxmon, tokcha, deraza chetlari ko'pincha ganchkori zanjira asosida hoshiyalangan<sup>1</sup>.

Amir Temur va Temuriylar darida Movarounnahrda bunyod etilgan tarixiy inshootlarni bunyod etishda va ularning bezaklarini boyitishda qo'shni hududlar, xususan, Eron, Ozarbayjon, Gurjiston, Armanistondan ko'chirib keltirilgan usta-me'morlarning bilim va tajribalaridan keng foydalanilgan. Bu holat tarixiy-me'moriy yodgorliklarning aynan ganchkori bezaklari badiiy kompozitsiyasini boyitilishida muhim rol o'ynagan. Ganchkori bezaklarning Movarounnahr, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligidagi mushtarak an'analari va o'ziga xos tomonlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklarni misolida ko'rish mumkin. Ayniqsa, Movarounnahr hududida Temuriylar davrida bunyod etilgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarning badiiy kompozitsiyasi va ishlanish uslubi fikrimizga dalil bo'ladi. Ushbu sohadagi madaniy aloqalarning izi Movarounnahr me'morchiligida ham ko'rgazmali tarzda o'zini namoyon etgan bo'lib, madaniy aloqalarning tarixiy-madaniy ahamiyatini asoslab berishga xizmat qiladi.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrda bunyod etilgan tarixiy obidalarni bezatishda sopol taxtachalarga bitilgan epigrafik bezaklardan foydalanish ham yetakchi o'rin tutgan bo'lib, inshootlarni ichki va tashqi tomondan bezatishda sopol yasalgan maxsus qurilish ashyosi parchin va koshin keng qo'llanilgan. Sopol parchin<sup>2</sup> va koshin<sup>3</sup> ishlab chiqarishga mo'ljallangan maxsus ustaxonalar mavjud bo'lib, ularda katta miqdorda me'moriy bezaklar

<sup>1</sup> Ремпель Л.И. Далекое и близкое... – С. 199-210; Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати... – Б. 23-24.

<sup>2</sup> *Parchin (mayolika)* – me'moriy bezak xom ashyosi. Parchin bir yoki bir necha xil sir berib pishirilgan yaxlit sopol bo'lagidir. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklarini bezatishda sidirg'a asosga chizma yoki o'yma naqsh berilgan sirli parchin turi ham qo'llanilgan.

<sup>3</sup> *Koshin (mazoika)* – rang-barang sopol bo'laklaridan yig'ib ishlanadigan me'moriy naqsh bo'lagi.

ishlab chiqarilgan<sup>1</sup>. Mazkur qurilish ashyosiga me'moriy bezaklarning barcha turlari (islamiy, handasaviy, epigrafik, astral shaklga ega) tushurilib, inshootlarni ichki va tashqi tomondan yirik kompozitsiyali hamda kichik hamjmiy naqshlar bilan bezatishda keng qo'llanilgan.

Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligida rangli metallar hamda qimmatbaho toshlardan foydalanish ham keng yo'lga qo'yilgan. Rangli metallardan asosan oltin, mis, jez hamda temirdan gumbazlarning ichki tomoni, eshik, panjara, tokcha kabi ichki intererlarini bezatishda keng foydalanilgan. Xususan, ushbu davr me'moriy yodgorliklarida muhim tarixiy dalillar aks etgan maxsus metal taxtachalarga bitilgan epigrafik bezaklar saqlanib qolgan<sup>2</sup>.

Temuriylar davri me'moriy yodgorliklarida epigrafik bezaklar yuqorida keltirib o'tilganidek, sopol va rangli metaldan yasalgan me'moriy bezak asoslariga bitilgan holda maxsus ajratilgan binolarning peshtoq, ravoq, poy gumbaz, devor, minora va boshqa ko'zga tashlanadigan qismlarida yirik xatda xattotlik san'ati asosida olti xil yozuvda amalga oshirilgan. Amir Temur va Temuriylar davri yodgorliklarida epigrafik yozuvlarning "kufiy" hamda "suls" xatida bitilgan bezaklari ko'p uchraydi. Ushbu bezaklar binoning tashqi tarafiga g'ishtin sath ustida ko'k, zangori, moviy va oq rangli sirli koshinlarda qadama naqshlar shaklida, bino ichiga esa epigrafik bezak uchun ajratilgan pannoga bo'yoqlar asosida tushurilgan. Handasaviy, ya'ni geometrik naqshga yaqin "kufiy" xatidagi girih naqshlar ulug'vor devoriy va poy gumbazlarni o'rab turgan naqshlarda, peshtoq hoshiya bitiklarida dastlab "devoniy", keyinchalik esa "suls" xati yetakchi o'rin egallagan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Муқминова Р.Г. Ремесло и ремесленники во времена Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1996. – №7-10. – С. 69-70.

<sup>2</sup> Bu haqida qarang: Лапин С. Перевод надписей на исторических памятниках города Самарканда... – С. 51-72; Семенов А. Надписи на надгробиях Темура и его потомков в Гур-Эмире... – С. 49-62; O'sha maqolaning davomi // Ko'rsatilgan kitob. Вып. III. Москва-Ленинград, 1949. – С. 45-54; Шедевры архитектурной эпиграфики Узбекистана... – С. 105; O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. I kitob / Samarqand Registon me'moriy majmuasi... – 400 b.; O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar... – 200 b.; O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. II kitob / Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar... – 296 b.; O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. III kitob / Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi... – 552 b.; Аминов Б. Марказий Мовароуннахр қабртош битиклари... – 200 б.; Гюль Э. Архитектурный декор эпохи Темуридов: символы и значения. – Ташкент, 2014. – 180 с.

<sup>3</sup> Темура ва Улуғбек даври тарихи... – Б. 174.

yoki sangin bezaklardan rangli koshin va parchinlar asosidagi tilla, moviy, ko'k, yashil, qizil va oq ranglar uyg'unlashuvida yaratilgan me'moriy bezaklar bilan bezatilgan.

Amir Temur hukmronligi davrida bunyod etilgan me'moriy inshootlarni bezatishda islamiy (o'simliksimon), girih (geometrik) hamda epigrafik bezaklardan keng foydalanilgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarning tashqi bezaklari esa osmon jismlarini aks ettirish bilan yanada boyitilgan. Mazkur davrda ayniqsa, epigrafik bezaklar yetakchi o'rin tutgan bo'lib, bu orqali hukmdor sulola vakillarining islom aqidalari va shiori ostida yuritgan siyosati hamda musulmon madaniyatini ko'rgazmali tarzda targ'ib etishga qaratilgan tadbirlari moddiyatda aks ettirilgan. Xususan, obidalarining "kufiy" hamda "suls" xatlariga asoslangan epigrafik bezaklari aksariyat hollarda muqaddas Qur'on oyatlari hamda hadislardan iborat bo'lgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand me'morchilik maktabi va Hirot me'morchilik maktablari taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilgan. Bu bir tomondan mahalliy usta-me'morlarning o'z ishiga ijodiy yondashuvi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan saltanatning turli hududlaridan poytaxt shaharlarga ko'chirib kelingan mohir me'mor va hunarmandlar mahoratining uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiq etilgan davr me'morchilik namunalari nafaqat qurilish sohasi mahsuli, balki xalq amaliy san'atining qator sohalariga oid bilim va tajribalar majmui birgalikda qo'llanilgan san'at asarlari darajasiga ko'tarilgan. Xususan, me'morchilikda ganchkorlik, sangtaroshlik, kulolchilik, duradgorlik, naqqoshlik, temirchilik, misgarlik, zargarlik, hat-totlik kabi amaliy san'at sohaları bilimlaridan foydalanish me'moriy inshootlarning sifat darajasi va qulayliklarini orttirilishiga xizmat qilgan.

XIX-XX asr boshlarida Samarqand me'moriy obidalarining Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari va xorijlik sayyohlar tomonidan talon-taroj etilishi hamda mintaqada kuzatilgan tabiiy ofatlar natijasida Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari ham jiddiy ziyon ko'rgan. Bu borada sovet davrida avvalgi davrga nisbatan ijobiy burilishlar ko'zga tashlanadi. Ya'ni, Temuriylar davrining dunyoga mashhur obidalari: Samarqanddagi Shohi Zinda me'moriy majmuasi yodgorliklari, Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi, Bibixonim

## XULOSA

Movarounnahrda Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklari tarixini o'rganish asosida qo'yidagi xulosalarga kelindi:

Amir Temur va Temuriylar davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tafsilotlari aks etgan yozma manbalar bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Ishda tahlilga tortilgan arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan tarixiy yodgorliklarning keyingi davrlardagi tarixi, milliy me'moriy yodgorliklarga bo'lgan munosabat, obidalarni ta'mirlash, muhofaza etish va saqlash masalalarini oydinlashtiradi.

Amir Temur va Temuriylar davri obidalarini o'rganish usullari hamda nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlaridagi dastlabki tadqiqotlarda (Samarqanddagi Shohi Zinda me'moriy majmuasi maqbaralari, Bibixonim jome' masjidi, Amir Temur maqbarasi, Registon majmuasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy yodgorligi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'moriy majmuasida) e'tibor qaratilgan. Sovet davrida tarixiy yodgorliklarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilib, maxsus uslubiy ko'rsatmalar shakliga keltirilgan. Mustaqillik yillarida esa ushbu masala yuzasidan huquqiy-me'yoriy hujjatlar majmui qabul qilinib, ularni amaliyotga tadbiiq etish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalarini asrlar davomida rivoj topgan milliy me'morchilikning umumiy o'xshash an'analarini davom ettirgan holda o'ziga xos davriy hamda hududiy farqlarga ham ega yangi uslublarlar bilan boyitilgan. Hukmdorlar irodasiga binoan, me'morchilikda shakl mahobatli va bezaklar hashamdor hamda nafis bo'lishi hokimiyatni ulug'lash vositasi sifatida qaralgan. Shuningdek, ushbu davr me'morchiligida murakkab me'moriy konstruksiyalarni qo'llashga erishilgan. Xususan, Temuriylar davrida ilk bora "qo'sh" hamda "maydoncha" uslubidagi inshootlar majmui barpo etilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklarining aksariyat qismi tuzilishi va shaklining turli-tumanligiga qaramay, me'moriy bezaklarga boyligi bilan o'ziga xosdir. Ularda tarixiy shaharlarning o'ziga xos tabiiy sharoiti va badiiy muhiti ta'siri ham aks etgan bo'lib, inshootlarning ichki va tashqi bezaklari rangsiz g'ishtin

Epigrafik bezaklarda asosan muqaddas Qur'on suralari, hikmatli so'zlar, shuningdek, inshootlarni bunyod etgan hukmdorlar, usta-me'mor va xattotlar nomlari keltirib o'tilgan. Xususan, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasida joylashgan Tuman og'a majmuasi peshtoqida eronlik xattot Xoji Bang'ir Tabriziy, mazkur majmuada joylashgan masjid eshiklari yog'och o'ymakorligida Yusuf Sheroziy, Muhammad Sulton xonaqoh va madrasa majmuasi topilmalari orasida usta me'mor Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyni nomi uchraydi<sup>1</sup>.

Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madarasi epigrafik naqshlari orasida esa Ismoil ibn Tohir Isfaxoniy nomlari keltirib o'tilgan. Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi bitiklari asosida uning bosh me'mori Shams Abdulvahob Sheroziy, koshinkor bezaklarini bajargan usta Xoji Hasan Sheroziy, ichki bezaklar ustasi Izoziddin ibn Tojiddin Isfahoniy tomonidan ishlanganini, Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqidagi yozuvlardan tabrizlik usta Muhammad Yusuf nomi keltirib o'tilgani bilib olish mumkin. Bundan tashqari, tarixiy obidalarda me'mor va bezak ustalarining faqatgina ismi keltirib o'tilgan holatlar ham mavjud bo'lib, mutaxassislarni bu holatni quyidagicha izohlab berishgan: "Samarqand tarixiy obidalaridagi bitiklarda ayrim ustalarining nomidagi nisbada Movarounnahr shaharlari nomi uchraydi, boshqlarida esa bunday emas, chunki ular samarqandlik ustalardir. Ya'ni o'z shahrida shu yerda tug'ilganini ko'rsatish rasm bo'lmagan. Masalan, Shohi Zindadagi Xoja Ahmad maqbarasida Faxr-Ali, Shodimulk og'a maqbarasida Badriddin va Shamsiddin, shuningdek, bezak ustasi Zayniddin Buxoriylarning nomlari shular jumlasidandir. Majmuadagi nomsiz maqbarada esa usta Ali va Alim Nasafiylarning nomi ko'rsatilgan"<sup>2</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davrida me'morchiligida mamlakatda rivoj topgan amaliy san'at turlarining yana bir turi tasviriy san'at namunalarining qo'llanilishidir. Ushbu davrda ilm-fan, madaniyat va ma'rifat rivoj topgan yirik madaniy markazlarda tasviriy san'at sohasidagi jonlanish sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Ayniqsa Mirzo Ulug'bek davrida naqqoshlik va tasviriy san'atning turli yo'nalishlari rivojlantirilib, ushbu davrda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklarni bezatishda ushbu san'at turi namunalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod

<sup>1</sup> Ахмад Тонди. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Темуридов... – С. 70.

<sup>2</sup> Темур ва Улуғбек даври тарихи... – Б. 174-175.

etilgan madrasa, xonaqoh, rasadxona va bog'lardagi saroylarda ushbu bezak turidan keng foydalanilganini ko'rish mumkin. Xususan, Samarqanddagi madrasa peshtoqidagi o'n ikki burj (Falak burji) va Quyosh tasviri tushurilgan me'moriy bezaklar hozirgacha saqlanib qolgan. Falak burji mazmunidagi bezaklar madrasa binosi ravoqlarida ham uchraydi. Xuddi shu kabi rang-tasvir san'atiga oid bezaklar Mirzo Ulug'bek rasadxonasi ichki devor va shiftlariga ham ishlangan<sup>1</sup>. Rasadxona atrofida bunyod etilgan bog'larda ham shunday tasviriy san'at namunalari bilan bezatilgan saroylar bo'lgan. Ayniqsa, "Bog'cha" deb nomlangan bog'da bunyod etilgan Chinniyxona saroyi bezaklari Xitoylik me'mor va naqqoshlar tomonidan Chinniy rang-tasvir bezaklari bilan sayqallangani haqida ma'lumotlar mavjud<sup>2</sup>.

Amir Temur va Temuriylar davrida markaziy shaharlarda bunyod etilgan inshootlar qurilishiga nafaqat mahalliy balki Eron va Xurosondan kelgan usta-me'morlar jalb etilgan bo'lsa, XVI asr oxirlariga kelib esa bu yerdagi qurilishlar asosan mahalliy me'morlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu davrlarda Buxoro me'morchilik maktabi namoyandalari ham yuqori obro'-e'tiborga ega bo'lib, ular nafaqat Movarounnahrda, balki O'rta Sharq mamlakatlari me'morchiligining nodir namunalarini bunyod etish uchun qo'shni davlatlarga taklif etilgan. Buning natijasida XV-XVII asrlarda O'rta Osiyo me'morchilik maktablarining o'zaro va qo'shni hududlarda ta'sir jarayoni jadal-lashgan. Ushbu maktablar ichida o'ziga xos o'rin tutgan Buxoro me'morchilik maktabi ta'sirini ayniqsa Qashqadaryo va Surxondaryo me'morchiligi namunalarida kuzatish mumkin. Mazkur maktab an'analari Samarqand va Toshkent me'morchiligiga ham qisman ta'sir ko'rsatgan. XVII asr oxirlarida esa Xorazm va Farg'ona vodiysi hududlarida bunyod etilgan madrasalarda Buxoro maktabi an'analari qo'llanilganiga mavjud me'moriy yodgorliklar qurilishi va bezaklaridagi o'xshashliklar dalil bo'ladi. Temuriylar davrida Buxoro me'morchilik maktabining O'rta Sharq mamlakatlari me'morchiligiga bo'lgan ta'sirini Xuroson hududida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar isbot etadi. Bunga ushbu hududlarning yaqin joylashganigina emas,

balki ular o'rtasidagi o'zaro tarixiy-madaniy aloqalarning rivoji sabab bo'lgani shubhasizdir<sup>1</sup>.

Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida inshootlarni bezatishda Movarounnahrning o'rta asr me'morchiligiga xos an'anaviy g'ishtin va sangin asosli rangsiz fondan tashqi bezaklarda asosan oq, ko'k, zangori rangli sopol koshin va parchinlar asosidagi rangli fonga, ichki bezaklarda shu bilan birga tilla rangdan foydalanishga o'tilganligini ko'rish mumkin. Ushbu davr me'morchiligi tarixini yorituvchi manbalar hamda hozirgacha saqlanib qolgan tarixiy inshootlar me'morchilikda milliy an'analar qo'shni hududlar me'morchiligiga oid o'ziga xosliklar bilan uyg'unlashtirilganligi, ilm-fanda erishilgan yutuqlardan me'morchilikda keng foydalanilganligi isbotlaydi. Xususan, ularni bezatishda jadal kechgan xalqaro madaniy aloqalar ta'sirini ko'rish imkonini beradi.

Shuningdek, Amir Temur va Temuriylar davrida inshootlarni bezatishda jonli mavjudotlar (inson qiyofasi, turli hayvonlar shaklidagi) ko'rinishidagi haykaltaroshlik va tasviriy san'at namunalaridan emas, aksariyat hollarda o'yma ganchkori, koshin hamda parchin asosli chizma islimiy, epigrafik (kufiy va suls xatlarida), astral (quyosh, oy, yulduzlar, falak burji) hamda qisman zoomorf (qush qanoti, sher va ohu tasviridagi) bezaklar birgalikda qo'llanilgani ushbu davr me'morchiligiga kiritilgan yangi me'moriy an'analar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur an'analar Movarounnahr me'morchiligining keyingi davrlardagi rivoji, xususan, me'moriy bezak kompozitsiyalarining boyitilishida muhim o'rin tutgan.

<sup>1</sup> Ахмад Тонди. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Темуридов... – С. 110-115.

<sup>2</sup> Ўролов А., Хожихонов М. Улугбек яратган маънавият... – Б. 61-67.

<sup>1</sup> Хамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи... – Б. 190-193.

171. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана: История развития и теория построения / Науч. ред. Г.А. Пугаченкова. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. – 606 с.
172. Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Бухарские записи. – Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1981. – 304 с.
173. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти – Тошкент: Академия, 2000. 1-қисм. – 272 б.
174. Саиджон М. Бухоро шаҳри ва эски бинолари. 1-қисм // Маориф ва ўқитғувчи. 1927. 3-4-сон. – Б. 30-35.
175. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва эски бинолари. 1-қисм // Маориф ва ўқитғувчи. 1927. 9-10-сон. – Б. 52-54.
176. Самарқанд тарихи / Масъул муҳаррир И.М. Мўминов. Т. I. – Тошкент: Фан, 1971. – 484 б.
177. Салимов А.М. Основные методы приспособления памятников архитектуры Узбекистана для современных функций. Методические указания. – Ташкент, 1994. – 30 с.
178. Салимов А.М. Сохранение и использование памятников архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 2009. – 288 с.
179. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари / Кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, шарҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи З.А. Саидбобоев – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – 336 б.
180. Сухарев И.А. Дворец-сад Темур Давлат-Абад // Труды УзГУ. Новая серия. №14. Вып. II. – Самарканд, 1940. – С. 1-8.
181. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (Историко-этнографические очерки). – Ташкент: АН УзССР, 1958. – 147 с.
182. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX–начала XX века. – Ташкент: АН УзССР, 1962. – 194 с.
183. Темур ва Улуғбек даври тарихи / Бош муҳаррир Амадали Асқаров; масъул муҳаррир Оқилхон Одилхон. – Тошкент, 1996. – 264 б.
184. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент: Абдулла Қодирий нашриёти, 1997. – 168 б.
185. Тереножкин А.И. Отчет об археологических работах в Шахи-Зинда. В кн.: Зодчество Узбекистана. Вып. II. – Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1970. – С. 109-120.

12. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабур-наме. Записки Бабура / Перевод М.А. Салье. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1958. – 464 с.
13. Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Т., 1989. – 380 б.
14. Гийас ад-Дин Али. Дневник похода Темура в Индию / Изд. Л.А. Зимина. Под ред. В.В. Бартольда. – Петроград, 1915. – 231 с.
15. Гийасаддин Али. Дневник похода Темура в Индию / Перевод с перс., предис. и прим. А.А. Семенова. – М., 1958. – 207 с.
16. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558–1560 гг: Бухара, Ургенч // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – Ленинград, 1939. – С. 178.
17. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи та’рихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. – Тошкент: Меҳнат, 1992. 1-китоб – 326 б.; 2 китоб – 192 б.
18. Ибн Хавқал. Китоб сурат ул-ард, Мовароуннахр / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси ДИН, 2011. – 400 б.
19. Клавихо Р.Г. Дневник путешествия ко двору Темура в Самарканд (1403–1406 гг.) / Пер. со староисп. И. С. Мироковой. – М.: Наука, 1990. – 216 с.
20. Клавихо Р.Г. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406 йиллар) / Таржимон О. Тоғаев. Масъул муҳаррир Мухаммад Али, – Тошкент, 2010. – 264 б.
21. Мирхонд. Раузат ас-сафо. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 1716.
22. Мирзо Мухаммад Ҳайдар. тарихи Рашидий. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 1430.
23. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов ва М. Ҳасанийлар таржимаси. Кириш сўзи, изоҳлар ва таҳрир Б. Аҳмедовники. – Тошкент, 1994. – 352 б.
24. Мирзо Мухаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Масъул муҳаррир С. Ҳасанов. Нашрга тайёрловчи, сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О. Жалилов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 704 б.

25.Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ғ. Каримий. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 254 б.

26.Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан Ю.Ҳакимжонов таржимаси Ҳофиз Абрунинг “Зафарнома”га ёзган иловаси (Зайл ва изоҳларни форс тилидан О. Бўриев таржима қилинган. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.

27.Открытие Туркестанского кружка любителей археологии. 11 декабря 1895. – Ташкент, 1895. – 16 с.

28.Пален К.К. Отчет по ревизии Туркестанского края, проведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстром графом К.К. Паленом. Ч. II. – СПб., 1909. – 222 с.

29.Панкратьев Г.А. Исторические памятники города Самарканда. – Самарканд, 1910. – 21 с.

30.Панкратьев Г.А. Альбом исторических памятников г. Самарканда фотографа Г.А. Панкратьева (конец XIX в.). – Самарканд, 1890. – 55 л.

31.Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. – СПб., 1868. – 272 с.

32.Фасих Ҳавафий. Мужмал, қўлёзма. РА. Осиё халқлари институтининг СПб. бўлими қўлёзмаси. В-709. Инв. № С-800дан копия.

33.Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад ал-Хавафи. Маджмал-и фасихи (Фасихов свод) / Перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели Д.Ю. Юсуповой. Отв. редактор А. Уринбаев. – Тошкент:Фан, 1980. – 346 с.

34.Фасих Ҳавафий. Мужмал Фасихи / Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Ю. Юсупованики. – Тошкент, 2018. – 544 б.

35.Хондамир. Хуласат ал-ахбор. ЎЗР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. №3.

36.Хондамир. Ҳабиб ас-сияр. ЎЗР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 2153.

37.Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 363 с.

38.Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – 532 с.

158. Пугаченкова Г.А. Очиқ осмон остидаги музей. Ўзбекистоннинг наққошлик хазинаси. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт, 1981. – 304 б.

159. Пугаченкова Г.А. Восточная миниатюра, как источник по истории архитектуры XV–XVI вв. / Архитектурные наследие Узбекистана. – Ташкент, 1960. – С. 111-161.

160. Пугаченкова Г.А. Неизвестные архитектурные памятники горных районов Узбекистана /Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1965. – С. 70.

161. Пугаченкова Г.А. Архитектурные памятники Мавераннахра эпохи Улугбека / Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. – С. 227-255.

162. Пугаченкова Г.А. Архитектура обсерватории Улугбека / Искусство зодчих Узбекистана. Вып. IV. – Ташкент, 1969. – С. 107-132.

163. Пугаченкова Г.А. Архитектурная композиция обсерватории Улугбека // Объединенная научная сессия, посвященная 2500-летию Самарканда. – Ташкент, 1969. – С. 28-30.

164. Пугаченкова. Г.А. Архитектура обсерватории Улугбека // Искусство зодчих Узбекистана. Вып. IV. – Ташкент, 1969. – С. 107-131.

165. Пугаченкова Г. А., Германов В. А. Туркестанский кружок любителей археологии и домусульманские древности Средней Азии (к 100 летию Туркестанского кружка любителей археологии) // Вестник древней истории. Вып.IV. – Ташкент, 1996. – С. 189.

166. Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. – Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1987. – 224 с.

167. Пугаченкова Г.А. Темурнинг меъморий мероси. – Тошкент: Энциклопедия бош тахририяти, 1996. – 126 б.

168. Пугаченкова Г.А. Темуридское архитектурное наследие Шахрисабза // Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Тошкент, 2002. – С. 8-10.

169. Ратия Ш.Е. Мечеть Биби-ханым. – М., 1950. – 108 с.

170. Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. – 244 с.

143. Ноткин И. И. Сталактиты XIV в. из ансамбля Шахи-Зинда / Зодчество Узбекистана. Вып. II. – Ташкент, 1970. – С. 239-254.

144. Нормуродов Д. Шохрухия қалъаси тарихидан // Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. – Тошкент, 2017. – Б. 52-53.

145. Полякова Е.А., Рахимова З.И. Шарқ миниатюраси ва адабиёти: инсон образининг тадрижи. – Тошкент: Ф. Ғулом номидаги нашриёт, 1987. – 288 б.

146. Пугаченкова Г. А. К вопросу о реконструкции ансамбля Дор ус-Сиадат, Темуридской усыпальницы в Шахрисябзе // Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана, Вып. I. – Москва, 1950. – С. 58-72.

147. Плетнев И.Е. Ғўри Амир. – Тошкент, 1965. – 24 б.

148. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. Сокровища архитектуры СССР. – М., 1949. – 66 с.

149. Пугаченкова Г.А. Памятники архитектуры Средней Азии эпохи Навои. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1957. – 97 с.

150. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1958. – 174 с.

151. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.

152. Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара. По древним памятникам Самарканда и Бухары. – М.: Искусство, 1968. – 204 с.

153. Пугаченкова Г.А. Ишратхона (Самарқанд). – Тошкент: Ўзбекистон, 1968. – 14 б.

154. Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Темура и Темуридов // Труды САГУ. История. Новая серия. Вып. XXIII. – Ташкент, 1951. – С. 120-155.

155. Пугаченкова Г.А. К вопросу о научно-художественной реконструкции мечети Биби-ханым // Труды САГУ. Новая сер. Гуманит. науки. Вып. 49. Кн. 6. – Ташкент, 1951. – С. 104-107.

156. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1976. – 116 с.

157. Пугаченкова Г.А., Галеркина О. Миниатюры Средней Азии. – М.: Изобразительное искусство, 1979. – 208 с.

39.Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Техрон нашри. I, II ж. 1336/1957.

40.Шарафиддин Али Яздий. Муқаддимаи Зафарнома. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 4472, 1а-84а-вв.

41.Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома /Нашрга тайёрлаш, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар А.Ўринбоевники. Масъул муҳаррир А.К. Арендс. – Тошкент: Фан, 1972. – 1270 б.

42.Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Сўзбоши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад ва Ҳайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

43.Шильтбергер И. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1427 гг.) /Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф. Броун. – Т.: Шарқ, 1997. – 240 с.

44.Ҳофиз Абду. Тарихий-географик асар, номи кўрсатилмаган, ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 5361.

45.Ҳофиз Абду. Зубдат ат-таворих қисми, ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 4078.

46.Ҳофизу Абду / Бартольд В.В. Ҳофиз-и Абду. / Соч. VIII. Работы по источниковедению. – М., 1973. – С. 74-97.

#### IV. O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari (O'zMA)

1. O'zMA I-71-fond.
2. O'zMA R-323-fond.
3. O'zMA R-394-fond.
4. O'zMA R-1195-fond.
5. O'zMA R-1591-fond.
6. O'zMA R-2286-fond.
7. O'zMA R-2296-fond.
8. O'zMA R-2406-fond.
9. O'zMA R-2773-fond.
10. O'zMA R-2810-fond.
11. O'zMA. R-2883-fond.

**O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi**  
**Madaniy meros agentligi arxiv hujjatlari**  
**(ММАО-Архив ГлавОПУ)**

1. ММАО. Samarqand. Arxiv hujjatlari to'plami.
2. ММАО. Toshkent. Arxiv hujjatlari to'plami.
3. ММАО. Shahrisabz. Arxiv hujjatlari to'plami.
4. ММАО. Buxoro. Arxiv hujjatlari to'plami.

**V. Adabiyotlar**

1. Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1991. – №8. – Б. 7-39.
2. Абдуматтор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – 592 б.
3. Абдуқодиров А. Улуғбекнинг Самарқанддаги обидалари. – Тошкент, 1969. – 22 б.
4. Абдураимов М.А. Два Среднеазиатских сочинения по истории агротехники / Известия АН УзССР, 1956, № 9, – С. 103-108.
5. Азимов И.М. Росписи Узбекистана. – Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1987 – 144 с.
6. Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик санъати тарихи. – Тошкент: Фан, 1984. – 136 б.
7. Аминов Б. Марказий Мовароуннаҳр қабртош битиклари ва улардаги тарихий шахслар генеалогияси (XV–XX асрлар). – Тошкент, 2021. – 200б.
8. Аҳмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. Письменные памятники. – Ташкент: Фан, 1985. – 262 с.
9. Аҳмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. – Тошкент: Университет, 1999. – 263 б.
10. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 142 б.
11. Аҳмедов М.Қ. Меъморий мерос. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – 160 б.
12. Аҳмедов М.Қ., Назарова Д.А., Хасанов А.О. Ўзбекистон архитектураси ва шаҳарсозлигининг тараққиёт йўллари. – Тошкент, 2016. – 290 с.

127. Массон М.Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении (Часть 1-ая: до первой послевоенной пятилетки) // Труды САГУ. Археология Средней Азии. Кн. XII. – Ташкент, 1956. – С. 29-30.

128. Массон М.Е. Архитектурно-планировочный облик Самарканда времени Навои // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XXXI. – Ташкент, 1956. – С. 57-84.

129. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1875. – 182 с.

130. Мечети Самарканда: Альбом архитектурных рисунков и чертежей. Вып. I. Мечеть Гур-Эмир. – СПб., 1905. – 18 л.

131. Мирзахмедов Д. К истории художественной культуры Бухары. – Ташкент: ТашПИ, 1990. – 85 с.

132. Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. – Тошкент: Navro'z, 2014. – 335 б.

133. Муҳаммаджонов А.Р. Шайбонийхоннинг сув айирғич кўприги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – 8 б.

134. Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 158 б.

135. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент, 1968. – 42 б.

136. Некрасова Е.Г. Термез и его архитектура. – Ташкент: Фан, 2001. – 32 с.

137. Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Шоҳи Зинда (Самарқанд). 4-нашри – Тошкент: Ўзбекистон, 1971.– 48 б.

138. Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Шахи-Зинда (Самарқанд). 5-нашри – Ташкент: Узбекистан, 1975. – 62 б.

139. Немцева Н.Б. Ханака Сайфеддина Бахарзи в Бухаре (к истории архитектурного комплекса). – Бухара, 2003. – 216 с.

140. Нильсен В.А., Манакова В.Н. Архитектурный декор памятников Узбекистана. – Ленинград: Стройиздат, 1974. – 242.

141. Нильсен В.А. Архитектурный облик обсерватории Улугбека // Труды ИИА. Т. V. – Ташкент, 1953. – С. 115.

142. Ноткин И.И. Развитие структуры однокупольного сооружения XIV–начала XV веков в ансамбле Шахи-Зинда // Архитектурное наследие. Т. XIII. – Ташкент, 1961. – С. 181-188.

115. Массон М.Е. Три эпизода, связанные с самаркандскими памятниками старины. – Ташкент, 1972. – 46 с.
116. Массон Е.М. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Ташкент: Фан, 1973. – 92 с.
117. Массон М.Е. Из воспоминаний среднеазиатского археолога. – Т.: Изд-во им. Г. Гуляма, 1976. – 176 с.
118. Массон М.Е. Краткое сообщение о результатах исследования фундаментов мавзолея Ходжа Ахмада в группе Шахи-Зинда в Самарканде в 1922 г. // Известия ТОРГОТ. Т. XVII. – Ташкент, 1924. – С. 150-160.
119. Массон М.Е. К вопросу происхождения памятников древней деревянной архитектуры, открытых М.С. Андреевым в горах Самаркандской области / По Таджикистану. Вып. I. – Ташкент, 1927. – С. 15-17.
120. Массон М. Е. Краткая историческая справка о Среднеазиатских минаретах // Материалы Узкомстариса. Вып. II-III. – Ташкент, 1933. – С. 3-11.
121. Массон Е.М. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ по изучению восточной половины Кашкадарьинской области. (Археология Средней Азии – 1977) // Сборник научных трудов ТашГУ. Вып. 533. – Ташкент, 1977. – С. 3-63.
122. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Темуре и Улугбеке // Труды САГУ. Вып. 53. – Ташкент, 1953. – С. 17-98.
123. Массон М.Е. Термезская археологическая комплексная экспедиция // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях ИИМК. Вып. VIII. – Москва – Ленинград: АН СССР, 1940. – С. 113-117.
124. Массон М.Е. О происхождении мавзолея Туркан-ака в Самарканде // Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. Вып. I. – Москва, 1950. – С. 44-51.
125. Массон М.Е. Результаты археологического надзора за ремонтно-исследовательскими работами Самкомстариса на мавзолеях «Гур-Эмир» и «Ак-Сарай» в Самарканде в 1924 году // Известия Средазкомстариса. Вып. I. – Ташкент, 1926. – С. 82-114.
126. Массон М.Е. План Самаркандского хисара XV века // Труды САГУ. Новая серия. Вып. 61. Кн. VI. Археология Средней Азии. Часть II. – Ташкент, 1953. – Ненум. стр. (Приложение).

13. Ашрафи М.М. Миниатюры XVI века в списках произведений Джами из собраний СССР. – М., 1965. – 92 с.
14. Ашрафи М.М. Джами в миниатюрах XVI в. – М.: Советский художник, 1966. – 92 с.
15. Ашрафи М. М. Персидско-таджикская поэзия в миниатюрах XIV–XVII вв.: Альбом. Из собраний СССР – Душанбе: Ирфон, 1974. – 125 с.
16. Ашрафи М.М. Бухарская школа миниатюрной живописи (40–70-е годы XVI века). – Душанбе, 1974. – 28 с.
17. Ашрафи М.М. Из истории развития миниатюры Ирана XVI в. / Отв.ред. К.С. Айни, Н.Н. Негматов – Душанбе: Дониш, 1978. – 186 с.
18. Ашрафи М.М. Бехзад и развитие бухарской школы миниатюры XVI в. / Отв. ред. Н. Н. Негматов, Н. И. Пригарина; АН ТаджССР, Ин-т истории им. Ахмада Дониша – Душанбе: Дониш, 1987. – 240 с.
19. Бартольд В.В. Бухара. Ее памятники и их судьба // Правда Востока, 1925. – №130.
20. Бартольд В.В. Улугбек и его время. – Петроград: РАН, 1918. – 188 с. Бартольд В.В. О погребении Темура / Соч. Т. II. – М.: Наука, 1964. – С. 37-62.
21. Бартольд В.В. Улугбек и его время / Соч. Т. II. – М.: Наука, 1964. – С. 64-116.
22. Бартольд В.В. К вопросу об археологических исследованиях в Туркестане. Соч. Т. IV. – М., 1966. – С. 96-110.
23. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии / Соч. Т. V. Ч. I. – М.: Наука, 1968. – С. 19-192.
24. Бекчурин М. Шахрисабзское владение по рассказам Джурабека и Бабабека // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. – Вып. II. – Санкт-Петербург, 1873. – С. 80-89.
25. Бертгер Е. К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля // Труды САГУ. – Ташкент, 1957. – Вып. CXI. – С. 20.
26. Бердимуродов А. Гўри Амир мақбараси. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – 80 б.

27. Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. I. – М.: Изд. П.В. Голубкова, 1848. – 528 с.

28. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. – М.: Наука, 1978. – 384 с.

29. Булатов М.С. Искусные геометрические приёмы в зодчестве Самарканда конца XIV–начала XV в. / ИЗУз. Вып. IV. – Ташкент, 1969. – С. 35-49.

30. Булатов М.С. Арочно-сводчатые формы в зодчестве средневекового Самарканда / К истории искусства великого города. – Ташкент, 1972. – С. 53-93.

31. Булатова В.А. К истории сложения ансамбля Шахи-Зинда в XV в. / Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. – С. 256-273.

32. Булатова В.А. Медресе Улугбека в Самарканде // Общественные науки в Узбекистане, – Ташкент, 1969. – №3. – С. 45-48.

33. Булатова В.А., Ноткин И.И. Мавзолей Тугли Текин (Эмира Хусейна) / Зодчество Узбекистана. Вып.2. Ансамбль Шахи-Зинда. – Ташкент, 1970. – С. 194-219.

34. Булатова В.А., Маньковская Л.Ю. Комплекс Чупан-ата (XVIII–XX век). В кн.: Памятники зодчества Ташкента XIV–XIX вв. – Ташкент, 1983. – С. 120-125.

35. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Ташкент: Меҳнат, 1991. – 384 б.

36. Буряков Ф.Ю. По древним караванным путям Ташкентского оаиса. – Ташкент: Фан, 1978. – 104 с.

37. Бўриев О. Нахшаб – Қарши Темурийлар даври манбаларида // Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. – Ташкент, 2006. – Б. 210-214.

38. Бўриев О. Амир Темур бунёдкорлигининг топонимлардаги инъикоси // Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. – Ташкент, 2017. – Б. 35-36.

39. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1865. – 361 с.

40. Вамбери А. Путешествіе по Средней Азіи изъ Тегерана черезъ Тукрменскую пустыню по восточному берегу Каспійскаго моря въ Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпріятое въ 1863 году съ научною цѣлью, по порученію Венгерской Академіи въ Пештъ членомъ ея А. Вамбери. – М.: Изд-во А.М. Мамонтова, 1867. – 369 с.

99. Мадраимов А. Миниатюра эпохи Темуридов // Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. – Ташкент, 2017. – Б. 81.

100. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Ежегодник. Вып. V. – СПб., 1879. – 382 с.

101. Маматмусаев Т. Улугбек даври архитектураси. – Ташкент, 2014. – 161 б.

102. Маньковская Л. Ю. Бибихоним [Самарқанддаги архитектура ёдгорликлари ҳақида]. 3-нашри. – Ташкент: Ўзбекистон, 1968. – 24 б.

103. Маньковская Л.Ю. Қўш мадраса [Бухородаги архитектура ёдгорликлари]. – Ташкент: Ўзбекистон, 1968. – 12 б.

104. Маньковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1971. – 56 с.

105. Маньковская Л.Ю., Пулатов Х. Ш. К изучению архитектурного наследия Ташкента // Строительство и архитектура Узбекистана. – Ташкент, 1972. – №6. – С. 21-22.

106. Маньковская Л.Ю. Доруссаодат ансамбли. – Ташкент: Ўзбекистон, 1978. – 32 б.

107. Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари. – Ташкент: Ўзбекистон, 1979. – 100 б.

108. Масальский В.И. Туркестанский край. – СПб., 1913. – 680 с.

109. Массон М.Е. Мавзолей Гур-Эмир усыпальница темуридов. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1926. – 30 с.

110. Массон М.Е. Соборная мечеть Темура, известная под именем мечети Биби-ханум. 2-е изд. – Самарканд, 1929. – 16 с.

111. Массон М.Е. Регистан и его медресе. 2-е изд. – Самарканд, 1930. – 30 с.

112. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Публикации Узкомстариса – Ташкент: Изд-во КН при СНК УзССР, 1935. – 44 с.

113. Массон М.Е. Обсерватория Улугбека. – Ташкент, 1941. – 48 с.

114. Массон М.Е. Падающей минарет (северо-восточный минарет Самаркандского медресе Улугбека). – Ташкент: Узбекистан, 1968. – 44 с.

85. Кдырнийзов М-Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник Каракалпакского отделения АН РУ. 2005, № 1-2. – С. 119-121.

86. Кдырнийзов М-Ш. Самарканд и Хорезм (О связях столицы Амира Темура с Хорезмом) // Самарканд шахрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. – Тошкент-Самарқанд, 2007. – Б. 132-135.

87. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

88. Каталог Среднеазиатских жалованных грамот из фонда Института Востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан / Составители А. Урунбаев, Г. Джураева, С. Гулямов. – Germany: OWZ Halle (Saale), 2007. – С. 114-122.

